

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV KURS BITIRUVCHISI**

**JUMAEVA MOHIGUL**

**ELBEK ASARLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOPOETIK  
XUSUSIYATLARI**

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

**Ё Саидов**

**Buxoro- 2014**

## **REJA**

**1. Kirish.** Ishning umumiy tavsifi

**2. I bob. Jadidchilik harakati va Elbekning milliy til taraqqiyotida tutgan o`rni**

**3. II bob. Elbek lirik asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari**

2.1. Polisemantik so`zlar

2.2. Omonim so`zlar

2.3. Sinonim so`zlar

2.4. Antonim so`zlar

**3. III bob. Elbek poetik asarlarining lingvopoetik xususiyatlari**

3.1. Metaforalar va ularning lingvopoetik xususiyatlari

3.2. Metonimiyalar va ularning lingvopoetikasi

3.3. Sinekdoxalar va ularning uslubiy-badiiy xususiyatlari

**4. Umumiy xulosalar**

**5. Foydalanilgan adabiyotlar**

## KIRISH

### ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liqdir. Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov asarlarida mazkur omillar aniq ko'rsatib o'tilgan: "... islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir".<sup>1</sup>

Xalqimiz ma'naviyatini tiklash, ma'naviy merosimizni o'rganish va fanimizni har tomonlama rivojlantirish hozirgi kunlarimizda eng muhim masalaga aylandi. Milliy tilshunosligimizni yana ham yuqori sifat bosqichiga ko'tarish, zamonaviylashtirish, jahon tilshunosligi darajasiga olib chiqish dolzarblik kasb etmoqda. Tilshunosligimizda ayrim masalalar borki, ularni hal etishga to'g'ri keladi.

Milliy istiqloлга erishilgach, XX asr boshlari davri adabiyoti tub mohiyat-mazmuni va yo'nalishidan kelib chiqqan holda «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» yoki ixchamlashgan ko'rinishda «Jadid adabiyoti» deb nomlanadi hamda tarixan qisqa bir davr ichida mazkur adabiyot namoyandalarining ma'lum siyosat sabab uzoq yillar mobaynida el nazaridan yashirib kelingan qator asarlari keng kitobxonlar ommasiga hukmiga havola etildi.<sup>1</sup> Ularning ilmiy-ijodiy merosini nashr etish, o'rganish va targ'ib qilish borasida A.Aliev, O.Sharafiddinov,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.76-77.

<sup>1</sup>Бехбудий. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 1997. -232 б.; Абдулла Авлоний. Шеърлар, ибратлар. Танланган асарлар. 2-жилдлик. -Т.: Маънавият, 1998. -1-жилд. -270 б.; Абдулла Авлоний. Пандлар, ибратлар, хикоятлар, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. 2 жилдлик. -Т.: Маънавият, -1998. -2-жилд. - 303 б.; Ибрат, Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият. 1999. -228 б.; Каримбек Камий. Дилни обод айлангиз. -Т.: Маънавият, 1998. -160 б.; Абдулхамид Мажидий. Кўнгил орзулари. -Т.: Маънавият, 2000. -159 б.; Сидкий Хондайликий. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 1998. -304 б.; Абдурауф Фитрат. Чин севиш. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. -253 б.; Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). -Т.: Шарқ, 2001. -127 б.; Хожи Муин. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 2005. -175 б.; Элбек. Танланган асарлар. -Т.: Шарқ, 1999. -287 б.; Боту. Танланган асарлар. - Т.: Шарқ, 2004. -190 б.; Абдулхамид Чўлпон. Гўзал Туркистон. -Т., Маънавият, 1994. -128 б. ва ҳ.к.

B.Qosimov, H.Boltaboev, N.Karimov, U.Dolimov, B.Karimov, B.Do'sqoraev, U.To'ychiev, Sh.Turdiyev, D.Quronov, R.Barakaev, Sh.Rizaev<sup>1</sup> kabi olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Jadidlarning ma'naviy madaniyatini to'plab nashrga tayyorlagan, ularning hayoti va ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rgangan, asarlarining ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy mohiyati, badiiyati, poetikasi, o'ziga xos xususiyatlari xususida qator maqola, risola, tadqiqotlar yaratgan bu fidoyilarning sa'yu harakatlari, intilishlari tufayli mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi ushbu soha bo'yicha yuqori pog'onaga ko'tarildi.

Mazkur davrda jadidchilik harakati namoyandalarining ma'naviy merosini tadqiq etish ishlari ko'lamiga ancha kengaydi, ularning hayoti, ilmiy va badiiy ijodi, adabiy-estetik qarashlari, milliy-poetik tafakkuri, publististik mahorati adabiyotshunoslikning ayrim tarmoqlari bo'yicha maxsus o'rganildi va baholandi. Shunday ishlar jumlasiga H.H.Boltaboev, D.Quronov, I.G'aniev, Z.Eshonova, U.Sultonov, G.Ernazarova, N.Avazov, S.Yo'ldoshbekova, H.Saidov, N.Namozova, R.Javharova va boshqalarning tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin<sup>1</sup>.

Istiqlol davridagi ijtimoiy-siyosiy holat, ma'naviy-madaniy, ilmiy tafakkur rivoji barcha fanlar singari tilshunosligimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

---

<sup>1</sup> Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. - Т.: Хази́на, 1994; Шарафиддинов О. Мустафо Чўкай, Чўлпон, Отажон Ҳошим. -Т.: Шарқ, 1993. -138 б.; Қосимов Б. Маслакдошлар: Бехбудий Ажзий, Фитрат. -Т.: Шарқ, 1994. - 156 б.; Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. -Т.: Маънавият, 2002. -308 б.; Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. -Т.: Шарқ, 1994. -140 б.; Баҳодир Карим. Янгиланиш соғинчи. -Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004. -79 б.; Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. -Т.: Маънавият, 2000. -87 б.; Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустиқиллик ва тараққиёт учун кураш / Туркистон ва Бухоро жади́дчилиги тарихига янги чизгилар. Даврий тўплам. 1-китоб. -Т.: Университет, 1998; Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедова С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти / Олий ўқув юртлари учун дарслик. -Т.: Маънавият, 2004. -461 б.; Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат / Олий ўқув юртлари учун қўлланма. -Т.: Ўқитувчи, 1992; Қосимов Б. Маърифат жарчиси // Халқ сўзи. -Т.: 2001. -12 январь; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва Чўлпон // Жамият ва бошқарув. -Т.: 1998. -№3. -Б. 37-39.; Қурунов Д. Руҳий дунё талқини. -Т.: Хази́на, 1995; Қурунов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. -Т.: Ўқитувчи, 1997; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. -Т.: Фан, 2004. -158 б.; Ризаев Ш. Жадид драмаси. -Т.: Шарқ, 1997. -317 б.;

<sup>1</sup>Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. док. ... дис. автореф. -Т.: 1996; Қурунов Д. Чўлпоннинг «Кеча ва кундуз» романида характер психологизми: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1995; Қурунов Д. Чўлпон насри поэтикаси: Филол. фан. док. ... дис. автореф. -Т.: 1998; Ғаниев И. Фитрат драмаларининг поэтикаси: Филол. фан. док. ... дис. автореф. -Т.: 1998; Эшонova З. Чўлпон поэзиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1994; Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1995; Эрнazarova Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (А.Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърляти мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 2001; Авазов Н. Махмудхўжа Бехбудийнинг ижодий мероси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1995; Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва мухаррирлик фаоляти: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 2002; Саидов Ҳ. Махмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва мухаррирлик фаоляти: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1998; Намозова Н. Ҳожи Муиннинг публицистик ва мухаррирлик фаоляти: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 2005; Жавҳарова Р. Сирожи́ддин Сидқий Хондайлиқийнинг адабий мероси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 1996.

Shuning natijasida keyingi yillarda jadidlarning tilshunoslik merosini, badiiy asarlarining lingvistik xususiyatlarini, milliy tilni shakllantirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari va faoliyatini o`rganish, tahlilu tadqiq etishga jiddiy diqqat qilinmoqda. Istiqlol samarasi o`laroq, M.Qurbonova,<sup>2</sup> M.Yo`ldoshev,<sup>3</sup> Sh.Bobomurodova,<sup>4</sup> F.Bobojonov,<sup>5</sup> T.Tog`aev,<sup>6</sup> D.Ne`matova<sup>2</sup>, Z.Chorieva<sup>3</sup>, L.Djalolova,<sup>4</sup> S.Normamatov<sup>5</sup> va boshqalarning tadqiqotlari maydonga keldi.<sup>7</sup>

Istiqloldan oldin ham ushbu sohada ayrim ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, XX asr boshlari davri o`zbek adabiy tilining leksikasi, uslubi, frazeologik va morfologik xususiyatlari, turkchilik, jadidchilik hamda purizmning mohiyatu maqsadi A.K.Borovkov,<sup>1</sup> A.Abunazarov,<sup>6</sup> G`.Karimov,<sup>7</sup> G.Muhammadjonova,<sup>8</sup> B.Turdialiev<sup>9</sup> va boshqalarning ishlarida qisman yoritilgan, tahlil qilingan va baholangan. Bu kabi ishlar muayyan davr tilshunosligi taraqqiyotiga u yoki bu darajada hissa bo`lib ko`shilganligini e`tirof etib o`tish lozim. Biroq ushbu tadqiqotlar sho`ro mafkurasi hukmron bir paytda yozilganligi, masalaga shu nuqtai nazardan kelib chiqib yondashilganligi bois ularda ayrim biryoqlama, noxolis talqinlar ham yo`q emas.

<sup>2</sup> Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ТошДУ, 1993. -19 б.; Курбонова М Фитрат-тилшунос. -Т.: 1996. -31 б.

<sup>3</sup> Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: 2000. -24 б.; Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. -Т.: Маънавият, 2000.

<sup>4</sup> Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2002.

<sup>5</sup> Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2002. -23 б.

<sup>6</sup> Тоғаев Т. Ашуралӣ Зоҳирӣ ва унинг тилшунослик мероси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2005.

<sup>2</sup> Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2004. -24 б.

<sup>3</sup> Чориева З. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: : Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2006. -23 б.

<sup>4</sup> Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2007. -22 б.

<sup>5</sup> Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърининг лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2011. -25 б.

<sup>7</sup> Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т.: Фан, 2001. - №4; Тўйчибоев Б. Фитрат — тилшунос. -Т.: 1995; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. - Т.: Ўзбекистон, 2002.

<sup>1</sup> Боровков А.К. Ўзбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. - Т.: 1940.

<sup>6</sup> Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Т.: 1968.

<sup>7</sup> Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 20-30-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Т.: 1972.

<sup>8</sup> Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. -Т.: Фан, 1982.

<sup>9</sup> Турдиалиев Б. Хамза и узбекский литературный язык начало XX века: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. -Т.: 1988.

XX asr boshlari davri adabiy tili rang-barang xususiyatlarga boyligi nuqtai nazaridan o'zbek adabiy tili taraqqiyotining eng murakkab va alohida bosqichini tashkil etadi. Mazkur davr adabiy tilida, jumladan, jadid badiiy asarlari tilida ham eski o'zbek adabiy tilining, ham hozirgi o'zbek adabiy tilining ko'pgina xususiyatlari o'z ifodasini topgan. O'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida jadid badiiy asarlari alohida o'rin tutadi. Jadidlarning sa'y-harakatlari tufayli ona tilimiz tom ma'noda milliy til darajasiga ko'tarildi. Ularning badiiy asarlari bugun ham badiiy fikr hazinasini boyituvchi qimmatli manba sifatida qadrlidir.

Davr rivoji, ijtimoiy-madaniy, ilmiy ong harakati o'zbek adabiy tili tarixiga, uning har bir taraqqiyot bosqichiga, yozma manbalar tiliga yangicha nigoh bilan qarashni va ularni tarixiylik tamoyiliga to'la amal qilgan holda atroflicha yoritishni talab etmoqda. Shu jumladan, Elbek badiiy asarlarining lingvistik xususiyatlarini ham zamonaviy tamoyil, qolip, fikr va ilmiy-metodologik usullar asosida o'rganishni, ularning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini to'g'ri yoritishu baholashni xamda tadqiqot natijalaridan istiqloq mafkurasini yaratishda samarali foydalanishni ijtimoiy davr taraqqiyoti taqozo etmoqda. Yangi o'zbek adabiy tilida ijod etgan, uning rivoji-yu mukammallashishiga beqiyos ulush qo'shgan Elbekning badiiy asarlari leksikasini tadqiq etish, o'sha davr til siyosatida yuzaga kelgan puristik harakat, umumturkiy tilni joriy qilish, eski «chig'atoy» tiliga qaytish singari g'oya va oqimlarning mazkur ijodkorlar asarlari tiliga, xususan, leksikasiga ta'sirini yoritish, ularning o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini boyitish va yangilashdagi xizmatlarini to'g'ri belgilash, oydinlashtirish va muayyan ilmiy-nazariy xulosalarga kelish katta ahamiyatga ega.

Elbek badiiy asarlarining til xususiyatlarini o'rganishning muhimligi quyidagilarda ko'rinadi:

— Elbek badiiy asarlarining til xususiyatlari o'zbek tilshunosligida, xususan, leksikologik yo'nalishda yaxlit holda maxsus tadqiq etilmagan;

— milliy istiqbolga qadar tilshunosligimizda shu sohaga doir mavjud boʻlgan ayrim fikrlarni tarixiylik tamoyilidan kelib chiqib, qaytadan koʻrib chiqish, aniqlashtirish zarurdir;

— yangi oʻzbek adabiy tili xususiyatlarini oʻzida toʻliq ifodalagan Elbek badiiy asarlari leksikasini oʻrganish oʻzbek adabiy tili tarixining shu davrga xos jihatlarni yoritishda va hozirgi oʻzbek adabiy tilining shakllanishiga asos boʻlgan yangi oʻzbek adabiy tili lugʻat tizimining oʻziga xos qonuniyatlarini ochishda ilmiy qimmatga egadir;

— Elbek badiiy asarlarida qoʻllanilgan deyarli barcha soʻzlarni bagʻriga singdirgan erk, ozodlik, maʼrifat tushunchalari bugungi kunimiz uchun ham oʻta qadrlidir;

— Elbekning oʻzbek millati va milliy tilini shakllantirishga yoʻnaltirgan ijtimoiy siyosiy faoliyatini oʻrganish oʻzligimizni anglash, milliy tafakkurimiz manbalarini bilish uchun qanchalik zarur va dolzarb boʻlsa, oʻzbek xalqining adabiy-badiiy saviyasining yuksalishida muhim omil boʻlgan badiiy asarlarining tili xususiyatlarini yaxlit tahlilu tadqiq etish ham shunchalik ahamiyatlidir;

— oʻzbek milliy terminshunosligining nazariy va amaliy masalalarini hal etish jarayonlarida shu soha boʻyicha muayyan ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surgan hamda maʼlum amaliy ishlar qilgan, uni shakllantirgan, takomillashtirgan Elbekning ushbu yoʻnalishdagi fikr-qarashlari, ish uslublaridan oʻrinli foydalanish muhimdir;

— til taraqqiyotining maʼlum davrlariga xos adabiy til meʼyorlarini, asosan, badiiy asarlarning mantlarini tahlil qilish orqali belgilash mumkinligi hammaga ayon. Shunday ekan, oʻz-oʻzidan yangi oʻzbek adabiy tilining meʼyorlarini, xususan, jadidchilik adabiy oqimi namoyandalarining asarlarini tadqiq qilish asosida belgilash zaruriyati kelib chiqadi;

— XX asr boshlari davri til siyosatida vujudga kelgan qator gʻoya, yoʻnalish va oqimlarning oʻsha davr badiiy asarlari tiliga taʼsiri masalasi atroflicha va chuqur oʻrganilgan emas;

— Elbekning o`zbek milliy adabiy tilini shakllantirish va takomillashtirish borasidagi faoliyati, xizmatlari, afsuski, ularning ma`naviy madaniyatimiz taraqqiyotiga qo`shgan hissasiga mos ravishda o`rganilmagan va qadrlanmagan.

O`zbek xalqining adabiy – badiiy saviyasining yuksalishida muhim omil bo`lgan jadid adabiyotining til xususiyatlarini yaxlit tadqiq etish bugungi tilshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan sanalishi lozim.

**Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universiteti o`zbek filologiyasi kafedrasining tadqiqot rejalari doirasida amalga oshirildi. Mavzu Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi Elbek she`riyati tili leksikasini tadqiq qilish, uning o`ziga xos lug`aviy, ma`naviy, uslubiy va lingvopoetik xususiyatlarini tahlil etish va tahlil natijalariga asoslangan holda o`zbek adabiy tilining mazkur davriga xos muhim jihatlari haqida xulosalar chiqarishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

— Elbek asarlari tili, jumladan, she`riyati tilining o`zbek tilshunosligida o`rganilish darajasini belgilash;

— shoir she`riyati tili leksikasining leksik-semantik guruhlarini belgilash;

— she`rlarda qo`llanilgan co`zlarning ko`chma ma`nolari, ularning turlarini aniqlash hamda uslubiy jihatdan tahlil qilish;

— Elbekning o`zbek adabiy tilini xalq tiliga yaqinlashtirish ishiga qo`shgan hissasini o`rganish;

— ijodkorning badiiy ijodi va dunyoqarashi o`zaro bog`liq ekanligini nazarda tutib, Elbekning badiiy asarlari tilini ularning adabiy tilga, leksik birliklarga bo`lgan ilmiy-nazariy qarashlari asosida tahlil va tadqiq etish;

— Elbekning badiiy mahoratini, badiiy tasvir hamda til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini yoritish;

— badiiy asarlar tilining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil etish, leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasniflash, so'zlarning badiiy imkoniyatlari va uslubiy xususiyatlarini izohlash.

— Elbekning o'zbek adabiy tili lug'at tarkibini yangilash, boyitishdagi xizmatini to'g'ri baholash, faoliyatining tarixiy ahamiyatini yoritish.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti** sifatida Elbekning she'riy merosi va uning til xususiyatlari olindi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotning metodologik asosini falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylilik kategoriyalari, zamonaviy tilshunoslikning badiiy-estetik merosni ilmiy baholash, lisoniy tadqiq qilishga oid nazariy qarashlari tashkil qiladi. Ishda asosan tavsifiy, qisman qiyosiy, lingvopoetik, uslubi tahlil usullaridan foydalanildi.

#### **Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. O'tgan asrning boshlari yangi o'zbek adabiy tili shakllanishi va rivojida alohida o'rin tutadi. Ushbu jarayonda Elbek asarlari tili ham ma'lum ahamiyatga ega.

2. Elbek she'riyati leksikasining lug'aviy tarkibi, semantik qirralari shoir tanlagan etakchi mavzu – ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik mavzulari bilan aloqador bo'lib, bu holat adib she'riy asarlari badiiyatini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi.

3. Elbek she'riyati tilida ham mumtoz o'zbek she'riyatida ishlatilgan bir qator leksemalar, trafaretlar, obrazli iboralar qo'llanilgan. Ammo ularni shoir ko'p holda tamoman yangi, ko'chma ma'nolarda qo'llaydi, ularga yangi-yangi real va ramziy ma'nolar yuklaydi, asar badiiyatini ta'minlashga xizmat qildiradi.

**Tadqiqotning yangiligi.** Elbek lirik asarlari leksikasi milliy mafkura tamoyillari asosida o'zbek tilshunosligida birinchi marta funkstional-semantik va lingvopoetik aspektlarda monografik planda maxsus tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida:

— XX asr boshlarida til masalasining siyosat darajasiga ko'tarilish omillari va sabablari, milliy tilni shakllantirish davridagi islohotlar, kurashlar va yo'nalishlar nisbatan mukammal yoritildi, Elbekning bu jarayondagi faoliyatiga ob'ektiv baho berildi. Elbekning o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti, imlo qoidalari, yozuv takomili, o'zbek tilshunosligini shakllantirish, tilning leksik tarkibini yangilash, boyitish, milliy adabiy tilni yuzaga keltirish, lingvistik did (til estetikasi) rivoji borasida amalga oshirgan ishlari faktik materiallarga suyanan holda yangicha qarash hamda dalillar asosida tahlil qilindi;

— Elbek lirik asarlarining leksik-semantik xususiyatlari, xususan, polisemantik, sinonim, omonim, antonim so'zlar yaxlit, kompleks ravishda tahlil etildi, ularning genetik manbalari, badiiy-estetik funkstiyasi, badiiy san'atlarni voqelantirishdagi o'rni va ahamiyati semasiologik, lingvopoetik aspektida o'rganildi. Elbekning polisemantik, sinonim, omonim, antonim so'zlardan foydalanish mahorati filologiyaning zamonaviy metodlari asosida tahlil etildi;

— Elbek she'riyati leksikasi birinchi bor lug'aviy-ma'naviy xususiyatlariga ko'ra ilmiy tahlilga tortildi;

— shoir she'riyatining lug'aviy tarkibi zarur o'rinlarda o'zbek mumtoz adabiyoti leksikasiga qiyoslangan holda o'rganildi, ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar belgilandi;

— she'rlarda qo'llanilgan leksemalar, so'zlarning xilma-xil ko'chma va uslubiy ma'nolarining o'rni belgilandi;

— shoirning tildagi mavjud lug'aviy boylikdan nafaqat mohirona foydalanganligi, balki uni yangi leksema va so'z shakllari hisobiga boyitishga intilganligi aniq dalillar tahlili asosida isbotlandi;

— Elbek lirik asarlaridagi ko'chimlar, xususan, metafora, metonimiya va sinekdoxalar lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil etildi, Elbekning lirik asarlarida millat taqdiriga bevosita aloqador *erk*, *ozodlik*, *vatan* kabi tushunchalarni ifodalovchi metaforalar alohida tizim sifatida shakllanganligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot xulosalari milliy tilshunosligimizning nazariy asoslarini boyitishga, milliy tilimizning

shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni chuqurroq anglashga va ulardan tegishli saboqlar olishga yordam beradi. Ish natijalaridan oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan shu sohaga oid darslik va qo'llanmalarni to'ldirishda, talabalar uchun shu mavzuda maxsus kurslar o'qishda, istiqlol mafkurasi asoslarini boyitishda foydalanish mumkin. Tadqiqotning nazariy xulosalari va tahlil usullari Elbek bilan zamondosh bo'lgan boshqa yozuvchi, shoirlar she'riyati tilini tadqiq qilishda qo'l kelishi mumkin. Ishning ilmiy natijalari o'zbek tili stilistikasi, lingvostilistikasi, lingvopoetikasi va leksikologiyasi sohasini muayyan ilmiy xulosalar bilan boyita oladi.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari jurnal va ilmiy to'plamlarda e'lon qilingan 3 ta maqolada o'z ifodasini topgan.

**Dissertastiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertastiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertastiyaning umumiy hajmi 90 bet.

**I BOB**  
**JADIDCHILIK HARAKATI VA ELBEKNING MILLIY TIL**  
**TARAQQIYOTIDA TUTGAN O`RNI**

XX asr boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining o`ziga xosligi, ma`lumki, ikki asosiy omil: 1) kapitalistik ijtimoiy munosabatlarning qaror topa boshlagani hamda 2) Turkistonning mustamlaka o`lkasi bo`lganligi bilan belgilangandir. Ya`ni, yurtimizda yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topa boshlashi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning tabiiy hosilasi emas, ko`proq tashqi omillar ta`siri bilan bog`liq edi. Ijtimoiy taraqqiyot bobida Yevropa mamlakatlaridan ancha ortda qolgan Rossiya ta`sirida hali anchagina mustahkam feodal asoslarga kapitalistik munosabatlar payvandlana boshlandi. Albatta, bu narsa ijtimoiy-taraqqiyot sur`atini tezlatdi, biroq yurtimizda eskilik va yangilikning ajib quramasi vujudga keldiki, har ikkisining orasidagi farq yaqqol ko`zga tashlanib qoldi. Bu esa, tabiiyki, eskilikni tugatish, jamiyat hayotini isloh etishu millatni taraqqiy ettirish zaruratini kun tartibiga qo`ydi. Ayni shu zaruratni teran idrok qilgan fidoyi ziyolilarimizni yagona maqsad atrofida birlashtirgan ma`rifiy-islohiy harakat milliy tariximizga jadidchilik nomi bilan kirdi. Ma`lumki, jadidchilik harakatini atroflicha va ilmiy xolis o`rganila boshlanganiga xali ko`p bo`lganicha yo`q, u haqdagi yirik fundamental tadqiqotlarning paydo bo`lishi yaqin kelajakda kutiladi. Tabiiyki, biz bu o`rinda jadidchilik harakatining mavzuimizni yoritish uchun zarur o`rinlarigagina to`xtalamiz.

Asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta`sirini yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Yevropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, jadidchilik harakati o`zining ko`p jihatlari bilan XYIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma`rifatchilik harakatiga o`xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar emirilib, ularning o`rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan

paytda maydonga kelgan. Ya'ni, har ikki harakatning yuzaga kelishini zaruratga aylantirgan ijtimoiy tarixiy sharoitning o'xshashligi ulardagi o'xshashlikni keltirib chiqargan. Feodal ijtimoiy munosabatlardan farq qilaroq, kapitalistik munosabatlar jamiyatning har bir a'zosi uchun teng boshlang'ich (start) imkoniyatlar ochishi bilan xarakterlanadi.

Yangi sharoitda insonning taqdiri va jamiyatdagi o'rnini ilgorigidek ijtimoiy kelib chiqishi emas, aqlu zakovati, tadbirkorligiyu omilkorligi belgilaydi. Ko'rinadiki, yangicha ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy maqomini o'zgartirdi, u endi o'zini ijtimoiy shaxs sifatida — jamiyatning va o'zining hayotiga faol ta'sir ko'rsata oladigan unsur sifatida anglay boshlaydi. Shaxs maqomining o'zgarishi bilan feodal-monarxik tartiblarning eskirgani, jamiyat hayotini isloh etish zarurati tobora ravshan ko'zga tashlana boradi. Yevropaning qator mamlakatlarida ayni shu xil sharoit yuzaga kelganida maydonga chiqqan harakat ma'rifatchilik harakatidir.

Ma'rifatchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan uzviy bog'liqligini shundan ham ko'rsa bo'ladiki, uning g'oyalari Yevropa mamlakatlarining hammasiga bir paytda emas, konkret mamlakatda buning uchun mos ijtimoiy sharoit yuzaga kelgandagina yoyilgan: avval Angliyada, keyinroq Fransiyada, so'ng Germaniyada (ma'lumki, jadidchilik g'oyalarining qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston hududlariga yoyilishida ham shunga o'xshash holni kuzatish mumkin: ularning har birida g'oyaning o'zlashishi va ommalashuv darajasi turlicha bo'lgan). Jadidchilikka o'xshab, Yevropa ma'rifatchiligining ham yagona harakat dasturi bo'lgan emas, har ikki harakat ichida ham qarashlar turlichaligi (biroz konservativroq qarashlardan to radikal qarashlargacha) mavjud edi.

Ma'rifatchilar eskirgan ijtimoiy asoslarni tamomila inkor kilib, yangi — inson tabiatiga mos, "aql"ga muvofiq jamiyat qurish g'oyasi bilan chiqqanlar. Jadidchilarga o'xshab, ular ham ijtimoiy islohnı amalga oshirishda ma'rifat yoyishni asosiy vositalardan biri deb bilganlar. O'z g'oyalarining imkon qadar keng doirada yoyilishini istagan ma'rifatchilar nashriyot-matbaa ishlariga katta

ahamiyat berganlar, kichik hajmli va arzon risolalar chop etib tarqatganlar. Ma'lumigizki, jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalari (Behbudiy, Munavvar qori, Ibrat va boshq.) ham noshirlik bilan shug'ullanganlar. Boz ustiga, jadidchilarning yuqoridagicha maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlari o'zbek milliy matbuotining shakllanishiga olib kelgani ham ma'lum.

Mutaxassislar Yevropa ma'rifatchiligini "falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konstepstiya", yangicha dunyoqarashga asos bo'lgan mafkura deb hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o'zagini "inson aqlu zakovatigina dunyoni o'zgartirishi mumkin", degan qarash tashkil etadi.

Darhaqiqat, ma'rifatchilik g'oyalari ijtimoiy ongning keyingi taraqqiysiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi: XYIII asrdan boshlab moddiyunchilik qarashlari tobora ko'proq kishilarning ongini zabt eta boradi. Muayyan ijtimoiy sharoit mahsuli sifatida dunyoga kelgan bu mafkura jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub burilishlar yasadi. Yevropada ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida yangicha estetik prinstiplarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida "dunyoni va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak", degan aqida yotadi. Ya'ni, boshqacha aytsak, ma'rifatchilarning ijtimoiy ideali — "inson tabiati va "aql"ga muvofiq jamiyat qurish" ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotning-da shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng muhimi — idealning "erga tushgani"dirki, buning natijasi o'laroq badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi.

Jadidchilar kabi ma'rifatchilar ham adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rganlar. Shu bois ham ma'rifatchilik adabiyotidagi qator jihatlar jadid adabiyotidagi tamoyillarni esga soladi. Badiiy adabiyotga konkret maqsadga erishish vositalaridan biri sifatida qaraganlari uchun ham ma'rifatchilarning asarlarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, qahramonlar tilidan muayyan g'oyalar aytiladi, qisqasi, g'oya asarning birlamchi unsuriga, uni ifodalash muallifning birlamchi maqsadiga aylanadi. Shu jihatdan, ayrim adabiyotshunoslarning

"ma`rifatchilik realizmi" atamasidan ko`ra "didaktik realizm" atamasini ma`qul ko`rishlari bejiz emas, albatta. Zero, ma`rifatchilik adabiyoti, bir tomondan, adabiyotni hayotga yaqinlashtirdi, ikkinchi tomondan, uni tarbiya vositasi deb bildi. Ma`lumingizki, ayni shu ikki tamoyil jadid adabiyotining ham mohiyatini belgilovchi xos xususiyatlar sifatida ko`rsatilishi mumkin.

Ma`rifatchilar o`z maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi san`at turlari va janrlarga ayrica ahamiyat berganlar. Xususan, ular teatrni o`z g`oyalarini targ`ib etish minbari deb bilganlar, shu bois ham dramatik janrlar rivojlantirilgan, sahnada o`ynalayotgan voqealar hayotiylik kasb etib borgan. Didro, Lessing kabi yirik ma`rifatchilar teatr san`atiga, dramaturgiyaga bag`ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratishganki, bu ham yuqoridagi fikrimiz daliliga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, ma`rifatchilik adabiyotida badiiy proza ayniqsa faol rivojlantirildi: "epistolyar roman", "sayohatnoma roman", "tarbiya romani", "falsafiy qissa" kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi; inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usulu vositalar joriy qilindi. Ma`rifatchilik adabiyotida, ayniqsa, hayotni atroflicha badiiy tahlil etishu yaxlit badiiy konstepstiyani ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurgirab rivoj topdi. Shu o`rinda jadidchilarning milliy teatrimizni shakllantirish yo`lidagi jonbozliklarini, jadid nashrlarida bot-bot uchrab turgan "bizga tiyotr va ro`mon kitoblari kerak" qabilidagi xitoblarni eslasak, mushtaraklik yana ham bo`rtib ko`zga tashlanadi.<sup>10</sup>

Mamlakat va xalq istiqloli uchun kurashgan jadidlar, eng avvalo, xalqni ma`rifat nurlaridan bahramand etish yo`lida faoliyat yuritdilar, eski maktab va madrasalarni isloh qilish g`oyasi bilan chiqdilar.

Ayonki, jadid maktablarining asoschisi va targ`ibotchisi qrimlik mutafakkir Ismoilbek Gaspirali hisoblanadi. U tovush usulini anglatuvchi "usuli savtiya" yoki "usuli jadid" asosida 1884 yili tajriba o`tkazib, qirq kunda o`n ikki bolaning xat-savodini chiqarishga erishdi. Shundan so`ng u o`z usulining ham nazariy, ham amaliy jihatdan favqulodda katta foydasini sezib, uni keng joriy etish yo`llarini

---

<sup>10</sup> Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: Шарқ, 2004. –Б. 6-9.

izladi. O`zi tomonidan 1883 yil aprel oyidan chop etilayotgan (ba`zi manbalarda 1881 yil deb qayd etilgan) “Tarjumon” gazetasi orqali uni tinimsiz tashviq qiladi. U, bir tomondan, matbuot orqali o`z qarashlarini targ`ib etishga intilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, Kavkaz turklari va Turkiston musulmonlari yashaydigan hududlarda bo`lib, yangi usuldagi maktablarni ochishga harakat qildi. XX asr boshlariga kelib Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg`ona vodiysi shaharlarida ko`plab “usuli savtiya” maktablari tashkil etildi. Yangi usuldagi maktablarning ochilishida, ayniqsa, Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, So`fizoda, Fitrat, Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy kabilar jonbozlik ko`rsatishdi.

Jadidchilik harakati namoyandalarining boshlang`ich ta`lim rivoji va takomili yo`lida qilgan sa`y-harakatlari diqqatga molikdir. Yangi usuldagi maktablarni joriy etish, maorifni har tomonlama taraqqiy ettirish va xalq orasida ma`rifat tarqatish ular faoliyatining bosh yo`nalishini tashkil etadi.

Jadid ziyolilari asrlar davomida qotib qolgan eski ta`lim tizimi, uning vositalaridan voz kechib, keng omma uchun har jihatdan samarali yangi ta`lim usulini tatbiq etishga, ular uchun har tomonlama qulay, «ochuq tilli va oson» (Abdulla Avloniy) darslik, qo`llanmalar yaratishga harakat qilishdi. Ular maktablarning, jumladan, boshlang`ich maktablarning milliy, zamonaviy, islomiy, dunyoviy bo`lishi uchun kurashishdi.

Yangi usuldagi maktablarning ochila boshlashi ularni o`quv qo`llanma va darsliklari bilan ta`minlash muammosini keltirib chiqardi. Jadid ziyolilari yangi o`quv tizimi talabi va tamoyillaridan kelib chiqib, o`tgan asrning boshlarida yangi mazmun-mohiyatdagi ko`plab darsliklarni yaratishdi; ayniqsa, boshlang`ich ta`lim uchun o`ta muhim va dolzarb bo`lgan alifbe darsliklarini yozish hamda chop etishga alohida diqqat qaratishdi. Ular tomonidan «Turkistonda ilmiy-adabiy uyg`onishning boshlanishi» (Hoji Muin), ya`ni 1900 yil avvalidan to 1926 yilgacha (lotin yozuvi asosidagi o`zbek alifbosi tuzilganiga qadar) bo`lgan davr oralig`ida yigirmaga yaqin o`zbekcha va o`ndan ortiq forsha-tojikcha alifbe darslik-qo`llanmalari yozildi va nashr qilindi. Sayidrasulxo`ja Aziziyning «Ustodi avval»

(Toshkent, 1900), Munavvar Qori Abdurashidxonovning «Adabi avval» (Toshkent, 1907), Abdulla Avloniynig «Birinchi muallim» (Toshkent, 1912), Rustambek Yusuf o'g'lining «Ta'limi avval» (Toshkent, 1912), Muhammadjon Abduxoliq o'g'lining «Turkiy alifbo» (Ko'qon, 1916), Sayidrizo Alizodaning «Birinchi yil» (Samarqand, 1917), M.Faxriddinning «Rahbari avval» (Toshkent, 1918), Shokirjon Rahimiyning «Sovg'a» (Toshkent, 1919) va «O'zbek alifbosi» (Toshkent, 1922), Hasanalining «Til ochg'ich» (Buxoro, 1922) kabi alifbe risolalari Turkistondagi boshlang'ich o'zbek maktablari uchun asosiy darslik sifatida keng qo'llanildi.

Jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri Hoji Muin «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 1926 yil 7-8- sonlarida bosilib chiqqan «Forscha alifbolar tarixi» maqolasida nazarda tutilgan davrda boshlang'ich tojik maktablari uchun Sayidahmad Vasliyning «Bayon un huruf» (Samarqand, 1904), Mahmudxo'ja Behbudiyning «Asbobi savod» (Samarqand, 1906), Hoji Muinning «Rahnamoi savod» (Samarqand, 1908), Rahmatillazodaning «Rahbari maktab» (Samarqand, 1913), Vyatkinning «Bahori donish» (Samarqand, 1918), Saidrizo Alizodaning «Soli naxustin» (Samarqand, 1920), Muhammad Samadzodaning «Miftoh ut-ta'lim» (Toshkent, 1922), Mazhar Burhon va Sadriddin Kiromning «Alifboi tojik» (Moskva, 1925) nomli forscha-tojikcha alifbe darsliklari ham chop etilganligini qayd etadi. Mazkur darsliklar o'zbek maktabi, pedagogik fikri rivoji va takomili tarixida muhim ahamiyatga egadir.

Jadidlarning ona tili ta'limi rivojidadagi xizmatlari quyidagilardan iborat:

1. Jadidlar birinchilardan bo'lib eski ta'lim usulining kamchiliklarini chuqur va teran anglashdi hamda uni isloh etishga urinishdi. Boshlang'ich maktablarning milliy, zamonaviy, dunyoviy bo'lishi xususidagi g'oyalarni jasorat bilan ilgari surishdi.

2. Yangi usuldagi boshlang'ich maktablarni shakllantirib, uning ta'limiy va tarbiyaviy asoslarini yaratishdi.

3. Yangi o'quv tizimi va tamoyillaridan kelib chiqib, yangi shakl va mazmundagi ko'plab alifbe, o'quv darsliklarini nashr ettirishdi.

4. Ta'lim har bir xalqning o'z ona tilisida amalga oshirilishi lozimligi xususidagi fikr-g'oyani targ'ibu tashviq qilishdi va mazkur g'oyaning to'la joriylanishi yo'lida tinmay kurashishdi.

Ta'limning maqsadi va mazmun-mohiyati ularning sa'y-harakatlari tufayli tubdan yangilandi. Uning maqsadi, asosan, millat rivoji, yurt ozodligini ta'min etishga qaratildi.

Jadidlar o'z g'oya va qarashlarini keng xalq ommasiga yoyishda matbuotdan ham unumli foydalanishga harakat qilishdi. Agar XX asr boshlariga qadar o'zbek tilida Turkistonda bor-yo'g'i bitta, ya'ni "Turkiston viloyatining gazetasi" (1870 yil iyul oyidan chiqa boshlagan) nashr etilib kelinayotgan bo'lsa, XX asr boshidan to 20-yillarigacha o'zbek tilida o'ttizdan ortiq gazeta va jurnallarning chiqishi yo'lga qo'yildi. Mahalliy xalq manfaatlarini ko'zlab chiqarilgan ilk gazeta Ismoil Obidiyning "Taraqqiy"si hisoblanadi. U 1906 yil 27 iyun oyidan boshlab chop etilgan. Shundan so'ng "Xurshid" (1906), "Shuhrat", "Tujjor" (1907), "Osiyo" (1908), "Samarqand" (1913), "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" (1914) "Najot" (1917), "Kengash" (1917) kabi gazetalar, "Oyina" (1913), "Al-isloh" (1915) kabi jurnallar paydo bo'ldi. Jadidlar tomonidan chiqarilib turilgan bu gazeta va jurnallar xalqning ijtimoiy tafakkurining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Jadidlarning faoliyat doirasi keng qamrovli bo'lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalar bilan birga ilm-fan, adabiyot, san'at, til, alifbo yo'nalishlarida ham jonbozlik ko'rsatishdi. Ular mazkur sohalarni yangilash, zamonaviylashtirishga harakat qilishdi. Ayniqsa, til masalasi ular faoliyatida muhim o'rin tutdi. Chunki bu davrga kelib o'zbek adabiy tilining nazariy masalalarini ishlab chiqish, uning qonun-qoidalarini ma'lum bir tartibga keltirish, o'zbek tili grammatikasini yaratish, tilning ijtimoiy-siyosiy mavqeini ko'tarish juda dolzarb masala bo'lib turgan edi. Shu nuqtai nazardan, jadidlar til masalasiga alohida e'tibor qaratib, unga bag'ishlangan bir qator ilmiy-nazariy asarlar yozishdi. Chunonchi, M. Faxriddinovning "Turkcha qoida" (1913); Behbudiyning "Til masalasi" (1915); Fitratning "Tilimiz" (1919), "Tilimizning

adabiyligi”(1921), “O`zbek tili qoidalari to`g`rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf. Ikkinchi kitob: Nahv” (1925-1930); Elbekning “Bitik yo`llari” (1919), “Yozuv yo`llari” (1921); Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O`zbekcha til saboqlig`i” (1925); Shorasul Zunnunning “O`zbekcha til qoidalari” (1925) kabi maqola va kitob-darsliklari yozildi.

Elbekning ilmiy merosida tilshunoslik muammolarini o`rganishga oid asarlari talaygina. Ular jumlasiga «Til o`qitishda savodxon bo`laylik», «Gazeta tilida birlik bo`lsun», «Imlo masalasi» kabi maqolalarini; «Yozuv yo`llari», «Boshlang`ich maktabda ona tili» kabi ilmiy-usuliy qo`llanma dasturlarini; «Lug`at va atama» kabi tarixiy izohli lug`atini aytib o`tish mumkin.

Dastlabki ikki maqolada adibning maktablardagi ona tili ta`limiga doir nuqtai nazari va munosabati ifodalangan. Uning fikricha, maktab ta`limi jarayonida ona tili faniga alohida e`tibor qaratish lozim. Chunki ona tili fani savodxonlik darajasini oshirish va boshqa barcha fanlarning bilimlarini egallashda asos bo`ladi. Ijtimoiy davr talabidan kelib chiqib, uni takomillashtirish va sifat – samaradorligini yaxshilash yo`l-yo`riqlarini izlab topish shart. Bu uchun, eng avvalo, mazkur fandan saboq beradigan o`qituvchilarning savodlilik darajasini yuksaltirish chora-tadbirlarini ko`rish kerak. Chunki muallimlar xalq savodxonligining umumiy zanjirida dastlabki bo`g`in hisoblanadi.

Elbek «Gazeta tilida birlik bo`lsun» maqolasida bu xususda shunday yozadi: «Matbuotchilar ham o`qituvchidan ta`lim oladilar, ular o`rgatganicha yozadilar. Turli bilimdagi o`qitg`uvchilardan sabog` olgan o`qig`uvchi ham ustozi izidan boradir. Bilimlari andoq bo`lg`on o`qitg`uvchidan o`rgangan tolib-gazetachi ham so`zlarni turlicha yozadir».

Shu ma`noda, Elbek ona tilini barcha fanlarga ta`sir etuvchi, ularni o`z qonun-qoidalari bilan zabt etuvchi keng qamrovli fan deb tushundi. O`qituvchilar qaysi fan egasi bo`lishlaridan qat`iy nazar ona tilini yaxshi bilishlari, to`g`ri yoza olishlari shart deb bildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Узоқов Ҳ. Эрк йўлида эрксиз кетган фидойи / Элбек. Танланган асарлар. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 16.

Mazkur asarlarda adibning o'zbek tilining lug'at tarkibini yot so'zlardan tozalash, uni soflashtirish, yagona o'zbek adabiy tilini shakllantirish, imlo qoidalarini takomillashtirish xususidagi ayrim fikr-qarashlari ham ifodalangan.

Elbekning 1923 yilda yozilgan «Boshlang'ich maktabda ona tili» usuliy qo'llanma - dasturida ham maktab ta'limida, umuman millat hayotida ona tili fani muhim ahamiyat kasb etishi yana bir bor alohida ta'kidlangan. U yozadi: «Bir elning maktabin tirgizaturg'on narsa u elning ona tilisidir. Bir elning maktabi o'sha elning o'z tilining negiziga qurilg'an bo'lmog'i tegishdir. El tili el maktabig'a ona bo'lmog'i tegishdir»<sup>11</sup>.

Elbek boshqa jadidlar singari ta'lim, ayniqsa, o'quv jarayonining dastlabki bosqichi har bir xalqning o'z ona tilida amalga oshirilishi lozim, deb hisoblaydi va bu fikr-g'oyalarini o'zbek xalqining ijtimoiy-ma'rifiy hayotiga joriy etishga intiladi. Milliy ta'lim tizimini yaratishda, qolaversa, millatni va uning adabiy tilini shakllantirishda ona (o'zbek) tili muhim asos bo'lishligi uning barcha asarlari mazmuniga chuqur singdirilgan. «Bilimning barchasi ona tili orqa beriladir...Maktabdagi ona tili – borliq bilimning negizi ham bosqichidir», — deb yozadi Elbek.

Serqirra ijodkor Elbekning ilmiy faoliyatida lug'atchilik muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining lug'aviy birliklarga boy ekanligini namoyish etish, isbotlash, uni soflashtirish va eng muhimi, xalqimiz ma'naviy olamini boyitish maqsadida 1924 yilda «Lug'at va atama» nomli tarixiy izohli lug'atni yaratdi hamda uni «Inqilob» jurnalining 13-14-qo'shma sonida chop ettirdi.

Lug'atshunos Elbek mazkur lug'atiga o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib ulush qo'shgan Lutfiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon kabilarning asarlari tilini manba qilib oldi va asosiy e'tiborini ulardagi umumturkiy so'zlarga qaratdi. Lug'atdagi deyarli barcha leksik birliklar o'z qatlamga oid so'zlar hisoblanadi.

Elbek har bir so'zni izchil izohlashga, uning ma'no-mazmunini to'la yoritishga uringan. U so'zning o'z (bosh) ma'nosi bilan bir qatorda ko'chma,

---

<sup>11</sup> Элбек. Бошланғич мактабда она тили / Танланган асарлар. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 264.

qo`shimcha ma`nolarini ham sharhlashga harakat qilgan. Shubhasiz, ushbu tarixiy izohli lug`at o`zbek leksikografiyasi rivojida muhim o`ringa ega.

Elbekning «Imlo masalasi» maqolasi 1920 yilda yozilgan bo`lib, u «Ishtirokiyun» gazetasining 18-19 sentyabr va 7 oktyabrda chiqqan sonlarida chop etilgan. Maqolada adibning imlo islohiga oid ilmiy qarashlari bayon etilgan. Uning ta`kidlashicha, ijtimoiy davrning talabi zudlik bilan «imloda bo`lg`an eskiliklarni (nuqsonlarni) va qiyinchiliklarni yo`q etish», aniq bir to`xtamga kelish va shu asosda yagona umumiy qoidalarini qabul qilish lozim.

Elbek imloning ikki turi, ya`ni «chig`atoy imlosi» va «eski imlo» amalda ekanligini aytib o`tadi. «Chig`atoy imlosi» deb atalgan imlo, ma`lumki, «Chig`atoy gurungi» tomonidan ilgari surilgan va unda to`qqiz «cho`zg`i» (unli)ni yozuvda ifodalash uchun qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur imloda yozuv va talaffuz jarayonida ohangdoshlik xususiyatlarini inobatga olish, so`zning talaffuziga ko`ra yozish talab etilgan.

Elbek maqolasida «Eski imlo»ning kamchilik va nuqsonlari xususida quyidagilarni yozadi: «Eski imlo» deb atalgan imlo burungi chog`lardan beri bo`g`unsiz, negizsiz yozilib kelmoqda bo`lg`an bir imlodirkim, buning bilan bir narsani ochiq anglov juda qiyindir. Chunki, bir so`zni bir necha turli o`qimoq mumkin bo`lg`anligidan kishi ko`b yanglishadir»<sup>12</sup>.

Elbek fikricha, «eski imlo»dan butunlay voz kechish, «chig`atoy imlosi»ning esa kamchiliklarini tuzatish kerak. U «chig`atoy imlosi»ning kamchiliklari sifatida quyidagilarni aytib o`tadi:

1) imloda harflar «ikki guruhga ajratilgan, ya`ni turkiy va yot harflarga. Yot harflar guruhiga arabcha va forsha so`zlarda qo`llaniladigan «xa», «ayn», «alif», «zod», «sod», «itqi», «izg`i», «so», «zol», «ji» harflari kiritilgan. Qolgan yigirma to`rt harf turkiy. Harflarning ikki guruhda berilishi yozuvda muayyan xatolik va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, yozuvni endigina o`rganayotgan, «o`z tilini yaxshi anglamagan yosh bolalar uchun» mazkur yo`l anchagina murakkabliklarni tug`diradi. Chunki ular muayyan so`zning qaysi tilga

---

<sup>12</sup> Ўша асар, 254-бет.

mansubligini hali bilishmaydi. Hatto katta yoshdagilar ham turkiycha, forsha, arabcha soʻzlarni belgilashda qiynaladilar;

2) yot harflar «mehmon» boʻlgʻanligi uchun imlodagi «turkcha harflardan yuqori oʻrin» berilgan. Bu esa imloni murakkablashtirgan;

3) Tatariston imlochilari singari «chigʻatoy imlosi»da ham «choʻzgʻi (unli)larni yozuvda ifodalash lozimligi aytib oʻtilgan. Tatariston imlochilari ettita «choʻzgʻini, «chigʻatoy imlosi»chilari esa toʻqqiz «choʻzgʻi»ni qabul etishgan va ular uch guruhga ajratilgan. Bulardan «alif» qalin – yoʻgʻon oʻtru, «u» ingichka oʻtru hisoblanadi. Ikkinchisi «ust choʻzgʻilar» boʻlib, ularga «a» («alif»), qisqa «e» va «o» unlilari kiradi. Bular «yoʻgʻon choʻzgʻi»lardir. Uchinchisi «ost choʻzgʻilar» nomi bilan atalib, ularga «yoʻgʻon ost choʻzgʻi «e», «ingichka «i», «qisqa ost choʻzgʻi «y-e» kiradi.

Adib «choʻzgʻilar» xususida qayd etilgan yangi qoidalarini maʼqullaydi. Biroq bu qoidalar faqat «turkcha soʻzlar» uchun qoʻllanmasdan, balki yot — arabcha va forsha soʻzlar uchun ham amal qilishi lozim deb hisoblaydi. Qoidalarini umumiy qilish, barcha soʻzlarni yozishda yagona qoidaga asoslanish kerak. U bu xususda yozadi: «Yot soʻzlar turkcha harflar bilan yozilsun» deganim kabi, yot soʻzlar-da turkcha uchun tuzilgan qoida ostigʻa kirgizulsin, deyman»<sup>13</sup>. Uning fikricha, bir necha yuz yillardan beri amalda boʻlgan yot til qoidalaridan voz kechish, yot soʻzlarni turkiy (oʻzbek) til tabiatidan kelib chiqib yaratilgan qoidalariga «boʻysindirish» kerak. Shu yoʻl bilan yot tillar taʼsiridan «turk-oʻzbek til»ni qutqarish, uning taraqqiyotini taʼminlash va ijtimoiy-siyosiy nufuzini oshirish mumkin.

Elbekning alohida taʼkidlashicha, yot soʻzlar talaffuziga koʻra yozilishi kerak. Bundan tashqari, uning nazdicha, yozayotganda turkiy (oʻzbekcha) soʻzlarga alohida eʼtibor qaratish, imkon qadar bunday soʻzlarni qoʻllash kerak. Chunonchi, «makotib» (maktublar) oʻrniga «yozoqlar», «qolom» yoxud «qalam» (qalam) oʻrniga «yozgʻich» kabi. Uning taʼkidlashicha, turkiy (oʻzbekcha) soʻzlarni yozishda hech qanday qiyinchilik yoʻq. «Turk - oʻzbek» tili juda boy. Yot

---

<sup>13</sup> Ўша асар, 256-бет.

soʻzlarning deyarli barchasining muqobillarini mazkur til tarkibi va zaminidan topish mumkin.

Elbek maqolada davrning eng muhim masalalaridan biri, yaʼni arab yozuvining islohiga oʻz nuqtai nazari, ilmiy qarashlari va munosabatini ham ifodalagan. U mazkur maqolasida imloning yaxshilanishi va mukammal boʻlishi uchun mantiqan toʻgʻri hamda asosli boʻlgan taklif, mulohaza va maslahatlarini berib oʻtgan.

Elbekning 1921 yilda «Yozuv yoʻllari» nomli qoʻllanma — dasturi nashr etildi. Qoʻllanma 2-4-sinf oʻqituvchi va oʻquvchilari uchun moʻljallangan boʻlib, unda imlo qoidalari ixcham va tushunarli tarzda ifodalangan. Adibning oʻzi ushbu asarini «saboqlik» deb ataydi.

Qoʻllanma – dastur «Bir-ikki soʻz» («Kirish») va «Soʻng» («Soʻng soʻz»)dan tashqari oʻn bir «saboq» (dars)ni oʻz ichiga oladi. «Kirish»da Elbek qoʻllanmani yozishdan koʻzlagan maqsad-muddaosini bayon etgan. U bu xususda shunday yozadi: «Elimizda shu kungacha «yozuv yoʻllari» yoʻqligidan yozuvlarimiz bir turli yozilmasdan, har kimning yozgʻichi istagan yoqqa burilib, istagan yoʻl bilan ketkan va shul yoʻl orqasida bir necha turli yoʻlsiz yozuvlar yuzaga chiqib qolgʻon edi. Bu yoʻlsiz yozuvlarni bir toʻgʻri yoʻlga solib, bir yoʻsin ostigʻa olmoq kerakmidi»<sup>1</sup>

Ayonki, mazkur ilmiy-usuliy qoʻllanmadan sal avvalroq «Chigʻatoy gurungi» aʼzolari tomonidan toʻgʻri yozuv, imlo qoidalari boʻyicha «Bilim yoʻllari» nomli darslik nashr etilgan edi. Elbekning qayd etishicha, shu darslik tufayli yozuv, imlo ancha yaxshilangan. «Biroq 21-yil boshida boʻlgʻon til-imlo qurultoyi soʻngida imlomizgʻa yana yangiliklar qoʻshuldi. Shuning bilan «Bilim yoʻllari»dagi koʻrsatilgan negizlarning bir ozi oʻngardi... Shuning uchun men ushbu qoʻlingʻizdogʻi bitikcha (kitobcha)ni yangi yoʻlda qurultoy toʻqtami (qarori)ga moslab yozdim»<sup>2</sup>

Adibning ushbu fikridan anglashiladiki, «Chigʻatoy gurungi» aʼzolari tashabbusi bilan 1921 yilning boshida Toshkentda Til va imlo qurultoyi boʻlib

---

<sup>1</sup> Элбек. Ёзув йўллари / Танланган асарлар. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 274.

<sup>2</sup> Ўша асар, ўша бет.

o`tdi. Unda imlo asoslariga muayyan yangiliklar kiritiladi. Ta`kidlab o`tish lozimki, qurultoyda, asosan, alifbo-imlo masalasi ko`rib chiqiladi hamda eski alifbo-imlo rasman isloh etiladi.

Elbek mazkur qo`llanmasini ana shu qurultoy qarorlari talabidan kelib chiqib yozadi. Qo`llanma o`n bir saboqdan iboratligini aytib o`tgan edik. Ularda «tovishliqlar (harflar)», «tovishliq cho`zg`ilari (harf hadlari)», so`z, «so`z bo`lagi» (bo`g`in), «qalin va ingichka cho`zg`ilar» (qattiq va yumshoq unlilar), «tutash va uziq                    tovishliqlar»                    (munfasil                    va                    muttasil harflar), «qo`shimchalar», «qo`shimchalarning yozilishlari», «tovishliqlarning o`zgarishlari», imlo qoidalari xususida ma`lumot, sharh va izoh berilgan.

«So`ng so`z»da Elbekning yot so`zlar imlosiga oid nuqtai nazari va tavsiyalari o`rin olgan. Uning fikricha, birinchidan, arabcha, forsha o`zlashma so`zlar yozuvda o`zbek tilining tovush tizimi uchun qo`llanadigan harflar bilan ifodalanishi kerak. Boshqacha tarzda aytganda, yot so`zlarning, xususan, arabcha o`zlashma so`zlarning grafik qiyofasida mavjud bo`lgan «zod», «izg`i», «zol» harflari **z** bilan, «sod», «se» harflari **s** bilan yozilishi lozim. Elbek bu haqda shunday fikrni ilgari suradi: «Tilimiz orasiga qotishib qolg`on yot so`zlarni yozg`on chog`imizda butunlay o`z tovishliqlarimiz bilan yozmog`imiz kerakdir». Elbek «tovishliq» deganda harf tushunchasini nazarda tutgan.

Ikkinchidan, yot so`zlarni o`zbek tilining fonetik qurilishi xususiyatlari va turkiy tillar tabiatiga tegishli singarmonizm qonuniyatlaridan kelib chiqib, ohangini e`tiborga olish va ularni talaffuzga moslab yozish lozim.

Uchinchidan, adib imlo qoidalariga «monelik» qiladigan ayrim yot so`zlar o`rniga umumturkiy qatlamga oid leksik birliklarni «oxtarib topish»ni va ularni qo`llashni tavsiya etadi. «Yozuvimizning orasig`a kirib olib bizga tuzgan qoidamiz yog`indan moneliklar beraturg`an so`zlarning o`rnig`a o`z so`zimizni oxtarib topmog`imiz tegishdir. Misol uchun, kitob deb qoidag`a teskari yozib qiynalgancha «bitik» so`zin ishlatsak, qiyinlikdan qutilishimizg`a anchagina yo`l topiladir», — deb yozadi olim.

Elbekning ushbu asarlari o'zbek lingvistikasi va ta'limshunosligi tarixida ona tili fani bo'yicha yaratilgan dastlabki o'quv-usuliy qo'llanma-dasturlar ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bu asarlar o'zbek tilshunosligi va maktab ta'limi tizimi rivojini ta'minlashda muhim asos bo'ldi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Elbekning lingvistik merosini tahlil etish natijalari quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

— Elbekning barcha asarlari mazmunida bir necha asrlardan beri yot tillar ta'siriga tushib qolgan ona (o'zbek) tilining ijtimoiy-siyosiy nufuzi, mavqeini qayta tiklash, yuksaltirish; uni e'zozlash, qadrlash, har doim millat tushunchasi bilan uzviy bog'lash, unga milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida qarash fikri o'z ifodasini topgan;

— Elbek millatni yaxlit shakllantirishda muhim vosita va asos bo'luvchi yagona o'zbek adabiy tilini yaratish uchun harakat qildi, uni soflashtirish, soddalashtirish hamda takomillashtirish yo'lida beqiyos fidoyilik ko'rsatdi. Ona tili taqdirini o'z taqdiri bilan chambarchas bog'ladi va unga umrining oxirigacha sadoqat bilan xizmat qildi;

— Elbek ta'lim-tarbiya tizimi asosini tashkil etuvchi ta'lim maqsadi, uning mazmuni, vazifasi, usullari va vositalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, zamonaviylashtirish, dunyoviylashtirishga urindi. Uning maktabda bolalarga ona (o'zbek) tilida ta'lim berish lozimligi xususidagi islohiy fikr-g'oyalari o'z davri uchun inqilobiy hodisa va muhim ahamiyatga ega edi;

— Elbek o'zbek tili masalalarini teran anglagan. Yaratgan har bir nazariyasini ijtimoiy hayotda amaliy tatbiq etishga, tekshirish va sinovdan o'tkazishga harakat qildi;

— Elbek o'zbek tili lug'aviy birliklarga juda boy ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berdi;

— Elbek nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki, turkiyshunoslikda ilk tarixiy izohli lug'atlarni yaratdi. Bular o'zbek leksikografiyasi taraqqiyotiga asos bo'ldi;

— Elbek yangi imlo qoidalarini ishlab chiqdi, uning soddaligi, puxtaligi, ixchamligi yo`lida kurashdi. Eng muhimi, o`zbek tilining xususiyat – tabiatidan kelib chiqib, imlo qoidalarini yaratdi. Talaffuz va yozuvni muvofiqlashtirish, mushtaraklashtirish va mutanosiblashtirish tamoyiliga xayrixohlik bildirdi va uni izchillik bilan targ`ib etdi, o`zbek tilining yozuv qoidalarini ishlab chiqishda fonetik tamoyilga amal qildi;

— Elbek terminlar masalasida til sofligiga alohida diqqat-e`tibor qaratdi. O`zbek terminologiyasi tizimini tilning o`z ichki manbalari va imkoniyatlaridan keng foydalangan holda yangi terminlar bilan boyitdi.

Umuman olganda, Elbek o`zining serqirra va salmoqli ilmiy-usuliy merosi bilan o`zbek adabiyoti, tilshunosligi hamda ta`limshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa qo`shdi. Xalqning kamoloti va maorifi taraqqiyotini til bilan bog`lagan Elbek til masalasiga alohida etibor bilan qaradi. Uning nazdida, til millat uchun hayot-mamot masalasi edi. Shunga ko`ra bu davrda til masalasi siyosat darajasigacha ko`tarildi. Elbek til siyosati jarayonida faollik ko`rsatdi. U o`zbek tilining ijtimoiy-siyosiy huquqini tiklash uchun harakat qildi, uning boyligini katta kuch va g`ayrat bilan himoya etdi.

Ishimizning keyingi bobida shoir asarlari, xususan, lirik asarlaridagi ko`p ma`noli so`zlar, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni tahlil etishga harakat qilamiz.

## II BOB

### ELBEK LIRIK ASARLARI TILINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Soʻz tilning murakkab hodisalaridan biri boʻlib, barcha til hodisalari orasida alohida, markaziy oʻrinni egallaydi.<sup>14</sup> Soʻzlar leksik maʼnolaridagi oʻxshash va umumiy xususiyatlariga koʻra maʼlum tiplarga boʻlinadi. Ularni tadqiq etishda “semantik yoki tushuncha maydoni” nazariyasidan foydalaniladi.<sup>15</sup> Mazkur nazariyada maʼno strukturalari bilan oʻzaro bogʻlangan soʻzlar bir mavzuiy guruhga jamlanadi va ular leksik-semantik nuqtai nazardan oʻrganiladi.

Bu usulda soʻzlarning maʼno xususiyatlari hisobga olinadi. Tilda bir shakl (soʻz)ning bir necha maʼno anglatishi (polisemiya), aksincha ikki yoki undan ortiq shakl (soʻz)ning bir yoki yaqin maʼnoga ega boʻlishi (sinonimlar), oʻxshash shakllarning oʻzaro aloqasiz boʻlgan boshqa-boshqa maʼnolarga ega boʻlishi (omonimlar), ikki shaklning qarama-qarshi maʼno anglatishi (antonimlar) keng tarqalgan hodisadir.

E.Begmatov oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlarni keltirilgan belgilarga koʻra quyidagi tizimli guruhlariga ajratadi: 1) bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar guruhi; 2) oʻz va koʻchma maʼnoli soʻzlar guruhi; 3) sinonimlar; 4) antonimlar; 5) omonimlar; 6) paronimlar<sup>16</sup>.

Biz mazkur ishimizda qayd etilgan semantik guruhlardan koʻp maʼnoli soʻzlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlarni Elbekning asarlari asosida oʻrganishga harakat qildik.

#### 2.1. Polisemantik soʻzlar

---

<sup>14</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 7.

<sup>15</sup> Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. -Т.: Ўқитувчи, 1981. –Б. 100.

<sup>16</sup> Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985. –Б. 25.

Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni ko'p ma'noli so'zlarni o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi. Masalan: **Yuk** so'zi o'zbek tilida ko'p ma'noli so'z hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'zning quyidagi ma'nolari qayd qilingan: 1) «Bir erdan ikkinchi erga ko'tarib, tashib borilishi lozim bo'lgan og'irlik»; 2) «Kishini urintirib qo'yadigan, tashvishga soladigan ortiqcha narsa, tashvish, dahmaza»; 3) «Qorindagi bola, homila»; 4) «Diniy e'tiqodga ko'ra aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yuz beradigan kasallik».<sup>17</sup>

O'zbek tilshunosligida polisemiya masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab maxsus o'rganila boshlandi.<sup>1</sup> Polisemiyaning mohiyat-mazmuni, tabiati va yuzaga kelish yo'llari xususidagi dastlabki tadqiqotlarni M.Sodiqova, T.Aliqulov, D.Bozorova kabilar yaratishdi. M.Sodiqova rang-tus bildiruvchi so'zlar semantikasining tahliliga bag'ishlangan tadqiqotida o'zbek tilida polisemiyaning vujudga kelishi xususida ayrim fikrlarni bayon etgan bo'lsa, T.Aliqulov esa ot turkumi doirasidagi polisemantik so'zlarning leksik ma'nolari, ularning paydo bo'lish yo'llari haqida ba'zi nazariy qarashlarini ifoda etadi. Turkiy tillardagi tana a'zosi nomlari va ularning ko'chma ma'nolarini maxsus tadqiq etgan D.Bozorova mavzu talabi bilan polisemiya hodisasi mohiyatini ham qisman o'rganishga harakat qilgan.

Ko'chma ma'no turlari, ularning hosil bo'lish yo'llari haqidagi M.Mirtojiyevning "O'zbek tilida polisemiya" tadqiqotining yaratilishi o'zbek tilshunosligida muhim voqea bo'ldi.<sup>2</sup> Olim mazkur ishida polisemiya muammosini maxsus o'rgandi, o'zbek tilida polisemiyaning yuzaga keltiruvchi

<sup>17</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Москва: Рус тили, 1981. -2-том. –Б. 465.

<sup>1</sup> Содикова М. Слова, обозначающие цвет и окраску в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т.: 1963; Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т.:1966; Базарова Д. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т.: 1967.

<sup>2</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Т.: Фан, 1975.

hodisalarni atroflicha talqin etdi, polisemiyaning yondosh hodisalarga munosabatini va ularning o'zaro farqlanuvchi belgilarini aniqladi, polisemiya da so'z strukturasini tadqiq etdi.

Ayonki, har bir tilga oid so'zlar dastlab muayyan voqea-hodisa, narsa, buyum, belgi, harakat kabilarning atamasi sifatida paydo bo'ladi. Keyinchalik ijtimoiy ong, tafakkurning o'zgarishi va rivoji bilan bog'liq ravishda ayrim so'zlarning leksik ma'nosida siljish yuz beradi. Ular o'z mustaqil ma'nolaridan tashqari boshqa ko'plab ma'no tovlanishlariga ega bo'ladi.

Ko'p ma'nolilik hodisasi borliqdagi bir narsa-buyum, belgi-harakat nomini boshqasiga ko'chirish orqali sodir bo'ladi. Bunday nom ko'chishida narsa-buyumlarning shakl, belgi, ichki sifat jihatidan o'xshashligi; vazifa, mantiqiy nuqtai nazardan o'zaro bog'liqligi muhim omil bo'ladi. Odatda kishilarning kundalik turmushida ko'p uchraydigan va ular tomonidan aniq tasavvur etiladigan narsa-buyum nomlari o'zaro ko'chiriladi.

Tilda ko'p ma'nolilik hodisasining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi ko'pgina omil hamda manbalarga bog'liq. Bular orasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyot omili muhimdir. Ayniqsa, madaniyati, san'ati, jumladan, badiiy adabiyoti ancha rivoj topgan xalqlarda bu hodisa keng tus olgan. Borliqdagi mavjudotlarning mohiyat- xususiyatini mumkin qadar tugal, aniq, yaqqolroq badiiy ifodalash va tasvirlash ehtiyoji ko'p ma'noli so'zlar miqdorining ko'payishi va ko'lamining kengayishiga olib keladi. Bunday xususiyatli so'zlarning ko'p bo'lishi badiiy nutqning ifoda imkoniyatlari doirasini kengaytirishga yordam beradi.

O'zbek tilining lug'at tarkibida ko'p ma'noli so'zlar muhim o'rin tutadi. Boshqacha tarzda ifodalaganda, o'zbek tili dunyo tillari orasida ko'p ma'noli so'zlarga eng boy tillardan biridir. O'zbek badiiy adabiyotida ko'p ma'noli so'zlar vositasida yaratiladigan so'z o'yini, askiya va tuyuq kabi janrlar mavjudki, bu kabi janrlar boshqa xalqlar adabiyotida deyarli uchramaydi.

Adabiy turlardan biri lirikada ko'p ma'noli so'zlardan unumli foydalanish imkoniyati ancha kengdir. Buni Elbek she'riyati misolida kuzatish mumkin. U har

bir soʻzning maʼno va mazmunidan oʻrinli foydalanib, oʻzbek sheʼriyatini yangi choʻqqiga olib chiqdi. Maʼlumki, oʻzbek tilidagi *bosh*, *yuz*, *koʻz*, *oyoq*, *qanot*, *bel*, *burun*, *til* kabi soʻzlarning koʻp maʼnolilik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan ancha keng asoslab berilgan. Mazkur koʻp maʼnoli soʻzlar Elbek asarlarining deyarli barchasida uchraydi. Masalan,

Har erda favvoralar durafshon,

Gul boshina su-la gavhar ofshon

baytda *bosh* leksemasi koʻp maʼnoli soʻz sifatida namoyon boʻlgan. Ayonki, mazkur soʻzning asl lugʻaviy maʼnosi “tananing boʻyindan yuqorigi (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi; kalla” (OʻTIL, I, 136-b.) tushunchasini ifodalaydi. Shoir yuqoridagi baytda “bosh” soʻzini koʻchma maʼnoda, yaʼni “gulning tepa qismi, uchi, choʻqqisi” mazmunida qoʻllagan.

Shoirning

Umrning boshi zidi yumruqidir,

Bir kun kishi darsi ushbumidir

baytida *bosh* leksemasi “umrning avvali, muqaddimasi, boshlanishi” maʼnosida kelgan. Botuning “Bizning bayram” sheʼrida “bosh” leksemasining “xalq” koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi kuzatiladi. Masalan:

Ishimizni quyosh nuri oʻynatsa,

Boshimizni bilim kuchi uygʻotsa.

Anglashiladiki, “bosh” soʻzining semantikasida siljish yuz berib, u butun tushunchaning nomi sifatida kelgan. Boshqacha tarzda aytganda, sinekdoxa hodisasi yuz bergan. Bir qarashda mazkur soʻz sheʼrda asl lugʻaviy maʼnosida qoʻllanganday. Biroq sheʼrning umumiy mazmuni va ruhidan kelib chiqilsa, nazarda tutilgan soʻz qayd etilgan maʼnoni beradi.

Maʼlumki, *yuz* soʻzining oʻz lugʻaviy maʼnosi “odam boshining old tomoni, old tomondan koʻrinishi, chehra, bet, aft; inson betining u yoki bu tomoni; yonoq” (OʻTIL, II, 463-b.)dir. Ushbu soʻz Elbek sheʼriyati tilida quyidagi koʻchma maʼnolarda qoʻllangan:

1) biror narsaning ustki tomoni, yuzasi; sirti maʼnosida:

Ko`k yuzini qop-qora, mash`um bulutlardir o`rar,

Ul bulutlardir yorug`liqning yuzin qoplab turar.

Mazkur misralar Elbekning “Tabiatga” nomli she`rida keltirilgan. She`rdagi “ko`k yuzi”, “yorug`likning yuzi” birikmalarida “yuz” so`zi ko`p ma`noli leksema mavqeini olgan, ya`ni yuqoridagi ko`chma ma`noda qo`llangan. Bu o`rinda shakliy o`xshashlik asosida, ya`ni metafora usulida ma`no ko`chirilgan.

Anglashiladiki, *yuz* so`zining semantikasida siljish yuz berib, u borliqdagi boshqa bir voqelikni nomlab kelmoqda.

Shoir she`riyatida *yuz* so`zining ko`chma ma`noda qo`llanilishi ancha ko`p uchraydi. Chunonchi, *tong yuzi* («Xo`rozlar chaqirib, yuzin ochsa tong»), *quyosh yuzi* («Qoplab oldi, yana quyosh yuzini bulut») kabilar shular jumlasidandir.

2) yer usti, yuzasi ma`nosida:

Yerning yuzin qoplab olg`on dengizning

To`lqinlanib turg`an tubsiz suvlari.

Mazkur she`rdagi “yerning yuzi” birikmasida ko`chma ma`no hosil bo`lgan. *Yuz* leksemasi bu o`rinda *yer usti*, *yuzasi* ma`nosida kelgan.

3) dunyo, olam ma`nosida:

Yer yuzida borlig`imni ko`rsatmakdan uyaldim,

Yutdim butun qayg`ularning, motamlarning og`usin.

Keltirilgan misoldagi “yer yuzi” birikmasida dunyo, olam ma`nosi anglashiladi.

4) kesish asboblarining tig`i ma`nosida:

O`roqning oq yuzin zang bossa,

El ko`ngli motamga o`ralgan.

Ma`lumki, har bir polisemantik so`zning ma`lum leksik ma`nosi kontekst (matn)da reallashadi. Misoldan ko`rinib turibdiki, mazkur she`rdagi “yuz” so`zi o`roq asbobining tig`i ma`nosida qo`llanilgan.

5) obro`, e`tibor, nufuz ma`nosida:

Millat yuziga shafqat ila qilmadik nazar,

Qildi tadanniy millatimiz, biz hanuz mast.

*Yuz* soʻzi singari uning maʼnodoshi *bet* leksemasida ham polisemantik holat yuz bergan. Bizga maʼlumki, *bet* soʻzining oʻz lugʻaviy maʼnosidan «odam boshining oldingi qismi; yuz, aft» (OʻTIL, I, 105-b.) tushunchasi anglashiladi. U nazarda tutilgan sheʼriyatda quyidagi koʻchma maʼnolarda qoʻllanilgan:

- 1) biror narsaning sirt tomoni, sirti, yuzi maʼnosida:

Aytalar, dalada yer beti tamom

Koʻm-koʻk duxobadan koʻylaklar kiymish.

- 2) kitob, jurnal, gazeta va daftar sahifasi maʼnosida:

Soʻng davrda yoʻqsil Sharqning tarixi

Bir bet boʻlsin oq satrni koʻrmadi.

Elbek sheʼriyatida koʻp maʼnolilik kasb etgan soʻzlardan yana biri “qoʻl” leksemasidir. Mazkur soʻz aslida “odamning barmoq uchlaridan elkasigacha boʻlgan qismi, aʼzosi” (OʻTIL, II, 634-b.) tushunchasini ifodalaydi. Shuningdek u «shu aʼzoning bilakdan barmoqlar uchigacha boʻlgan qismi; panja» maʼnosida ham qoʻllaniladi. *Qoʻl* leksemasi Elbek asarlarida quyidagi koʻchma maʼnolarda kelgan:

- 1) ixtiyor, izm maʼnosida:

Oʻynoq qizcha, erkin-erkin oʻynab ol,

Erta-indin erking qoʻldan ketadir.

- 2) biror ishni amalga oshirish uchun imkoniyati yuqori ekanligi maʼnosida:

Tabiatning kuchli qoʻli orqali,

Er ostidan qaynab chiqqan buloq.

- 3) yigit-qiz, kishi, odam maʼnosida:

Boqchangga yosh qoʻllar ekalar gullar,

Ochilmoq istaydir lola, sumbullar.

Ayonki, bunday maʼno koʻchish hodisasi koʻchma maʼno hosil qilishning sinekdoxa turiga kiradi. Sinekdoxada maʼno koʻchishi butun va uning boʻlagi mantiqiy yaxlit tushunilishining natijasi boʻladi. Unda obʼektlarning biri

ikkinchisiga asosiy belgidan iborat qism bo'lishiga asoslanib nomlashdan kelib chiqqan bo'ladi.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan misollarda bo'lak, qism ("qo'l") vositasida butun ("kishi", "yigit-qiz") tushunchasi ifodalangan. Bu esa sinekdoxa hodisasini yuzaga keltirgan.

O'zbek tilida *yo'l* so'zi ham ko'p ma'nolidir. U Elbek she'riyati tilida quyidagi ko'chma ma'nolarda ifodalangan:

1) narsa yoki ish-harakatning biror narsaga qaratilganligi, bag'ishlanganligi ma'nosida:

Bormi senda qorin, qursoq yo'lida,  
Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

2) g'oyaviy yo'nalish, dunyoqarash, maslak ma'nosida :

Shuning uchun-da har bir eski yo'l,  
Yoshlar ko'ziga yomon ko'rinur.

Ta'kidlash o'rinliki, Elbek asarlari tilida *yo'l* leksemasining mazkur ko'chma ma'noda qo'llanilishi ko'p uchraydi. Xulosa qilib aytganda, Elbek she'riyatining lug'aviy tarkibida ko'p ma'noli so'zlar muhim o'ringa ega. Ular badiiy nutqning ifoda imkoniyatlari doirasini kengaytirishga katta yordam bergan.

## 2.2. Omonim so'zlar

Tilimizda tovush (yozuvda harfiy) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: omoleksema, omograf va omofonlar. «Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi.»<sup>18</sup> Masalan, qovoq-I (inson a'zosi) – qovoq-II (o'simlik nomi). Omograflar esa, harfiy

<sup>1</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Т.: Фан, 1975. –Б. 56.

<sup>18</sup> Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.-Т: Университет, 2006. –Б. 45.

jihatdan bir xil bo`lib talaffuzi har xil bo`ladi: tom-I (uyning tomi) – tom-II (jild), atlas-I (ipakdan tayyorlangan mato turi) – atlas-II (xarita). Omofonlar deb talaffuz jihatidan teng kelish hodisasiga aytiladi: bor (<bob) – bor, yot (<yod) – yot, sutxo`r (<sudxo`r) – sutxo`r kabi. Shakldoshlik iboralarda ham kuzatiladi: boshiga ko`tarmoq-I (e`zozlamoq) – boshiga ko`tarmoq-II (to`palon qilmoq), qo`l ko`tarmoq-I (ovoz bermok, ma`qullamoq) – qo`l ko`tarmoq-II (urmoq). Shakldosh so`zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Nasrda askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida, she`riyatda esa tuyuq hosil qilishda ishlatiladi.

Ayonki, Sharq nazmida, chunonchi, o`zbek she`riyatida omonimlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma`nolarni ifodalovchi omonimlar she`riyatda nozik so`z o`yinlarini ishlatish, so`zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta`sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan jadid adabiyoti namoyandalari o`z she`rlari tilini yaratishda ulardan o`ta mohirlik bilan foydalanganlar.

O`zbek tili omonimlarga nihoyatda boyligini yuqorida aytib o`tgan edik. Tilimizning bu xususiyati adabiyotda yangi janr—tuyuq janrining vujudga kelishiga sabab bo`lgan. Shakldoshlik so`zlar aytilishi va eshitilishi bir xil, ammo ma`nolarining boshqa-boshqa bo`lganligi tufayli jumlar ichida aniqlanadi va uning xilma-xilligini ta`minlashga xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Ayonki, tuyuq o`zbek va ayrim boshqa turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi tajnisli qofiya asosida, aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yaratiladigan to`rt misradan iborat she`riy janrdir. U dastlab xalq og`zaki ijodida yuzaga kelgan bo`lib, keyinchalik yozma adabiyot vakillari tomonidan tajnis san`ati vositasida mumtoz adabiyotga o`tgan.<sup>3</sup>

---

<sup>2</sup> Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б. 277.

<sup>3</sup> Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 321.

Tajnis (yoki jinos) sheʼr baytida maʼno jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki soʻzni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni taʼsirchan ifodalash sanʼatidir.<sup>4</sup>

Tajnis sanʼatini voqealantiruvchi lugʼaviy omonimlarning badiiy adabiyotda, ayniqsa, nazmdagi ahamiyati kattadir. Ular badiiy adabiyotda uslubiy xususiyat kasb etib, kitobxonning diqqatini jalb etishda muhim oʻrin tutadi.

Ayonki, tajnis soʻzning ichki, tashqi shakli bilan aloqador sanʼatlardan biridir.<sup>6</sup> Oʻzbek mumtoz poeziyasida bu sanʼatning quyidagi turlari qoʻllanilgan: tajnisi tomm, tajnisi murakkab, tajnisi noqis, tajnisi zoyid, tajnisi muzoriʼ, tajnisi aks, tajnisi mukarrar, tajnisi xatti.<sup>7</sup>

Tajnis sanʼatining bu turlarini Elbekning poetik asarlarida ham kuzatish mumkin. Ularni tahlil qilishga harakat qilamiz.

**Tajnisi tomm.** Ikki soʻz ham unli, ham undoshlar jihatidan (arab yozuvida esa nuqtalari va harakatlari jihatidan ham) bir-biriga toʻla mos boʻlib tushsa, bu xil tajnislarni tajnisi tomm, yaʼni toʻliq tajnis deb yuritiladi.<sup>8</sup> Masalan:

Yam-yashil maysa, barra barg, oʻtlar

Gulbahor koʻrkini oshirdi yana.

Yoqquvchi, yiqquvchi olov-oʻtlar,

Telba oshiq dilin shoshirdi yana.

Mazkur sheʼrning birinchi qatoridagi “oʻt” – “poyasi yogʻochlanmaydigan, chorva mollari uchun asosiy emish boʻladigan yashil oʻsimlik; “alaf” maʼnosini, uchinchi qatoridagi “oʻt” – “yonish jarayoni; olov, otash” maʼnosini ifodalaydi. Nazarda tutilgan ikkala soʻz ham bir soʻz turkumiga, yaʼni ot soʻz turkumiga xos. Shakldosh ikki soʻz bir xil soʻz turkumiga mansub boʻlsa, **mumosil tajnisni** hosil qiladi.<sup>9</sup>

Toʻliq shakldosh soʻzlar ikki xil soʻz turkumiga mansub boʻlsa, mustavfiy tajnisni yuzaga keltiradi:

<sup>4</sup> Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. -Т.: Шарқ, 1998. –Б. 65.

<sup>6</sup> Исҳоқов Ё. Навоӣ поэтикаси. -Т.: Фан, 1983. –Б. 107.

<sup>7</sup> Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. -Т.: Шарқ. 1998. –Б. 65-74.

<sup>8</sup> Ўша асар, 65-бет.

<sup>9</sup> Ўша асар, ўша бет.

Yiroqlardan oppoq bo`lib, oq ilondek buralib,

Erinmasdan, viqor ila ko`krak kerib oq

baytidagi birinchi misradagi “oq” so`zi “qor, sut, paxta rangidagi” (O`TIL, I, 557-b.) ma`nosini ifodalab, sifat turkumiga xos bo`lsa, ikkinchi misradagi “oq” so`zi “oqadigan, doim oqib turadigan, oqmoq” ma`nosini ifodalab, u fe`l turkumiga xosdir.

Adabiyotshunoslarning ta`kidlashicha, tajnis poeziyamizning badiiyligini ta`minlovchi asosiy san`atlardan biri hisoblanadi. U tilimizning rivojlanishi qonuniyatlari bilan chambarchas bog`liq holda rivojlanib keldi. Shuni ham aytib o`tish kerakki, tajnis qo`llash shoirning poetik mahoratiga, o`z tilining imkoniyatlarini ilg`ab olishga va qolaversa, poetik maqsadiga bog`liqdir. Elbek mazkur san`at turidan unumli foydalanib, estetik qiymati yuksak badiiy asarlar yaratdi.

### **2.3. Sinonim so`zlar**

Ma`nodosh so`zlar tilning lug`aviy jihatdan boylik darajasini ko`rsatib beruvchi o`ziga xos vositadir. Tilda ma`nodosh so`zlarning ko`p bo`lishi tilning estetik vazifasini yanada to`liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o`rganilgan. O`zbek tili ma`nodosh so`zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma`nodosh so`zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so`zni topib o`z asarlarida qo`llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir ob`ektining eng kichik qirralarigacha real ko`rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi ma`nodosh so`zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e`tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma`nodosh so`zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo`lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma`nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg`un holda qo`llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma`nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya`ni: 1) leksik ma`nodoshlik; 2) frazeologik ma`nodoshlik; va 3) leksik-frazeologik ma`nodoshlik.<sup>19</sup> **Leksik ma`nodoshlik**dan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag`alligi va rangsizligidan qochish uchun: *Ikkala o`rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlar boshqa hamma unlarni bosib ketdi.*(Cho`lpon);<sup>20</sup> tasvir ob`ektiga e`tiborni jalb qilish uchun: *Xolbuki, musulmonlik kiyimda emas, qalbda, dilda.* (Cho`lpon); ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham bir-biridan yaxshi, bir-biridan soz, bir-biridan ochiq, bir-biridan quvnoq...*(Cho`lpon); salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun: *Xo`sh, mingboshining o`zi odamlar aytganiday juda xunuk va badbashara odammi?* (Cho`lpon).

**Kontekstual ma`nodoshlik.** Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo`lgan, tayyor ma`nodosh so`zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko`ra ma`nodosh bo`lmagan so`zlarni ham shunday qo`llaydilarki, bu so`zlar ham matnda xuddi ma`nodosh so`zlar kabi idrok etiladi. Masalan: *Kechagina qarg`ab, so`kib, «o`ldirsam!» deb yurgan kundoshini o`pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi «qalin do`st» bo`lgan emishlar.* (Cho`lpon).

**Frazeologik ma`nodoshlik.** Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko`zi o`ngida aniq va to`la gavdalantirishda frazeologik iboralarining ma`nodoshligidan keng foydalaniladi. *Toqati toq bo`lmoq – sabr kosasi to`lmoq, burni ko`tarilmoq – dimog`i shishmoq, yaxshi ko`rmoq – ko`ngil bermog, ikki oyog`ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og`ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq* kabilar frazeologik ma`nodoshlikka misol bo`ladi. Jumla tarkibida kelgan ma`nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni

<sup>19</sup> Қаранг: Асқарова М., Қосимова М., Жамолхонов М. Ўзбек тили. –Т: Ўқитувчи, 1989. –Б. 29.

<sup>20</sup> Чўлпондан келтирилган бу ва бундан кейинги мисоллар қуйидаги нашрдан олинди: Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. 2-жилд. –Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.

detallashtirib, iker-chikirigacha ko`rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan: *U enggan, yutgan, oshig`i olchi kelgan, deganini bo`ldirgan kundosh emasmi?*

**Leksik-frazeologik ma`nodoshlik.** «Lug`aviy birlik sifatida frazeologizmlar so`zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo`la oladi.»<sup>21</sup> Masalan: *xursand – og`zi qulog`ida, g`azablanmoq – jahli chiqmoq, beg`am – dunyoni suv bossa to`pig`iga chiqmaydi* kabilar leksik-frazeologik ma`nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma`nodoshlikning bunday turidan holatni bo`rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi: *Qurvon bibi so`zga qancha epchil bo`lsa, Razzoq so`fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.*

Sinonimiya qatorlari o`zbek tilshunosligida atroflicha o`rganilgan leksik paradigmalardan biridir.<sup>22</sup> Ma`lumki, o`zbek tili sinonimlarga juda boy bo`lib, boshqa tillardan shu jihatiga ko`ra ham alohida ajralib turadi. Buni besh asr ilgari Alisher Navoiy o`zining “Muhokamat ul-lug`atayn” asarida aniq misollar yordamida isbotlab bergan.<sup>2</sup>

Buyuk allomaning fikr-qarashlarini to`la qo`llab-quvvatlagan Abdurauf Fitrat ham bir asr ilgari o`zbek tilining lug`aviy birliklarga, chunonchi, sinonimlarga boyligini ilmiy asarlarida asoslagan.<sup>3</sup> O`zbek tilida ma`nodosh so`zlarning ko`p miqdorda bo`lishi qator omillar bilan bog`liq. Ularning eng muhimlari quyidagilardir:

1) o`zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri bo`lib, uning tarixi juda uzoq o`tmishdan boshlandi. Ana shu ko`p asrlik tarixiy taraqqiyot davrida xalq bilan muvoziy holda uning tili ham shakllandi va har bir taraqqiyot davriga xos turli voqea-hodisalarni ifodalovchi lug`aviy birliklar bilan izchil boyib bordi. Natijada muayyan narsa, hodisa va tushunchani anglatuvchi ko`p so`zlar zahirasi yuzaga keldi;

2) ayonki, o`zbek xalqining etnik jihatdan shakllanishida to`qsondan ortiq turkiy va turkiylashgan urug`lar ishtirok etgan. Har bir urug`ning til xususiyatlari mazkur xalq tilining shakllanishiga u yoki bu darajada asos bo`lib xizmat qilganligini olimlar qayd

<sup>21</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм, -Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 144.

<sup>22</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Т.: Фан, 1995; Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1974.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. -Т.: Фан, 2000. -16-том.

<sup>3</sup> Абдурауф Фитрат. Тилимиз / Чин севиш. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. –Б. 237-242.

etganlar.<sup>4</sup> Xususan, o`zbek xalqi qarluq-chigil-uyg`ur, o`g`uz va qipchoq lahjalarida so`zlashuvchi elatlarning tarixan birikishidan yuzaga kelganligini ular alohida ta`kidlashgan. Bir ulkan manbadan boshlanuvchi uch ulug` daryoning irmoqlari qaytadan bir nuqtada tutashdi va madaniyatning boshqa jabhalari qatori til sohasida ham turkiylar olamida misli ko`rilmagan bir sintez jarayoni boshdan kechirildi. Boshqa turkiy tillarning har biri qandaydir bir irmoqdan, faqat ba`zilarigina ikki irmoqdan suv ichsa, o`zbek tili yaqin turkiy tillarning uch yirik guruhiga mansub lisoniy merosning qonuniy vorisiga aylandi <sup>23</sup>.

3) o`zbek xalqi murakkab tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli xalqlar, chunonchi, arab, fors-tojik, uyg`ur, mo`g`ul, keyinchalik ruslar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy aloqada bo`lib keldi. Ayniqsa, arab va fors-tojik aloqalari uzoq tarixga ega bo`lib, ularning ta`sir kuchi ancha sezilarli bo`ldi. Ana shu aloqalar natijasida juda ko`plab arabiy va forsiy so`zlar o`zbek tiliga o`tib o`zlashdi;

4) o`zbek xalqi madaniyati, adabiyoti ko`p asrlik tarixga ega bo`lib, ular insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq shakllangan. Badiiy adabiyot namunalarini uzluksiz yaratish, ularni doimiy ravishda takomillashtirish, estetik didni tarbiyalash ehtiyoji tarixiy taraqqiyot jarayonlarida yangidan-yangi so`zlarni yuzaga kelishiga zamin hozirladi;

5) eng asosiysi, o`zbek xalqi alohida ijodkorlik qobiliyati, iste`dodiga ega. Bu xalq azaldan o`z nutqiy madaniyatini oshirishga, tilining rang-barang, go`zal, jozibali bo`lishiga intilib kelgan xalqlardan biridir.

Ayonki, sinonimlar tilning lug`at tarkibini boyitishga xizmat qiladi, uning estetik vazifasini yanada to`laroq bajarilishini ta`minlaydi, badiiy adabiyot namunalarida tasvirlanayotgan lavha, timsol, voqea-hodisalarning ta`sirchan, jozibali, ohangdor bo`lishiga olib keladi. Ijodkor ayni bir ma`noni anglatuvchi birdan ortiq til birliklarini muayyan maqsadni ko`zlab qo`llaydi.

Tabiiyki, Elbek ham ma`nodosh so`zlardan foydalanayotgan jarayonda ma`lum maqsadlardan kelib chiqib ish tutganligi aniq. Uning nazarda tutilgan so`zlardan

<sup>4</sup> Каранг: Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Т.: Ўқитувчи, 1991.

<sup>4</sup> Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. -Т.: 1999. —Б. 7-10.

<sup>23</sup> Олимов М. «Бобурнома»да қўлланган синонимлар луғати. -Т.: Фан, 2004. —Б. 6-7.

foydalanish maqsadini badiiy asarlari bo'yicha olib borilgan kuzatishlardan kelib chiqib, quyidagicha ifodalash mumkin:

- badiiy ifodaning ta'sirchanligini oshirish;
- so'zlarni takror ishlatishdan qochish;
- uslubning ravonligi va xalqchilligini ta'minlash;
- fikrni aniq, lo'nda, ixcham ifodalash;
- kishilarning badiiy-estetik tafakkurini boyitish;
- o'zbek tilining imkoniyat darajasi yuqori ekanligini namoyish etish;
- ona tilining lug'at tarkibi boy ekanligini ko'rsatish va dalillash;
- misralarni vaznga solish, qofiya hosil qilish, turli badiiy san'atlarni yuzaga keltirish va h.k.

Uning quyidagi ikki qator she'rida keltirilgan *shamol* va *el* sinonimlariga diqqat qarataylik:

O'lim shamollarini kutib turalar,

Yoz kuni ellari nozlicha esganda.

Ko'rinib turibdiki, forsiy *shamol* va umumturkiy *el* so'zlari o'zaro almashinib kelgan va ular she'rning rang-barang, ravon bo'lishiga asos bo'lgan. Sinonimik qatorni hosil etuvchi har ikkala so'z ham shoir yashagan davr adabiy tilida (hozirda ham) faol qo'llanuvchi lug'aviy birliklardir. Shu o'rinda uqtirib o'tish o'rinliki, Elbek she'riyati tilidagi lug'aviy birliklar tarkibi u bilan zamondosh ayrim shoirlar asarlari tilidan keskin farq qiladi. Uning she'riyati tilida qo'llanilgan sinonimlarning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lib, ularning lug'aviy mazmunini maxsus izohlarsiz anglash mumkin.

Elbek takrordan qochish uchun ifodalarni sinonimlar bilan almashtirishga harakat qilganligi uning har bir she'rida bilinib turadi. Bu uning takrordan qochish tamoyiliga to'la amal qilganligini anglatadi. Shoir she'rlarida *xayol* - *o'y-fikr* (arabiy - turkiy - arabiy), *zamon-chog`-davr-on-dam* (arabiy -turkiy –arabiy – forsiy), *istak-tilak* (turkiy-turkiy), *yurak-bag`ir* (turkiy-umumturkiy), *gul-chechak* (forsiy-turkiy), *dunyo-olam-jahon* (arabiy-arabiy-forsiy) kabi ma'nodosh so'zlar qo'llanilgan bo'lib, ular shoirning qaytariqlardan qochish yo'lidagi sa'y –harakatini bildiradi.

Ayonki, badiiy nutqda sinonimlarning to`g`ri va o`rinli ishlatilishi asar qiymatini oshiradi. Badiiy asarning estetik jihatlari ko`p o`rinlarda unda qo`llangan sinonimlarda namoyon bo`ladi. Sinonimlar ijodkorning g`oyasi, maqsadi, fikr va his-tuyg`ularini yana-da aniqroq, ravshanroq, ta`sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Elbek badiiy asarlari tilini yaratish jarayonida ma`nodosh so`zlarga, ularning ifoda xususiyati, ma`no qirrasini, uslubiy bo`yog`i, nutqiy xoslanishiga alohida e`tibor qaratgan. Shoir she`rlaridagi ma`nodosh so`zlarni ifoda semasi va nutqiy xoslanishiga ko`ra ikki guruhga ajratib tasniflash maqsadga muvofiqdir:

1.Ma`no qirrasini jihatidan farqlanuvchi, ya`ni ideografik sinonimlar. Elbek she`riyati tilida bunday xususiyat kasb etgan sinonimlar talaygina. Masalan, uning “Kuz kunida” she`rida shunday jihat-xususiyatga ega bo`lgan sinonimlar qo`llangan:

Butun tol butoqlar kulishib turganda,

Quyoshning yorug`i jilmayib tushganda.

Ma`lumki, *kulmoq* va *jilmaymoq* sinonimlari o`zaro ma`no qirrasiga ko`ra farqlanadi. *Kulmoq* so`zining lug`aviy ma`nosi “xursandligini yoki zavqi-shavqini kulgi bilan ifodalamoq” (O`TIL, I, 404-b.) bo`lsa, *jilmaymoq* so`zining lug`aviy ma`nosi esa “kulimsiramoq, tabassum qilmoq” (O`TIL, I, 279-b.)dir. Ushbu tushunchalar, asosan, insonga tegishli bo`lib, she`rda ular tol va quyoshga nisbatan ko`chma ma`noda qo`llanilgan. *Kulmoq* so`zida belgi-xususiyat darajasi *jilmaymoq* so`ziga nisbatan kuchliroq va ular shu jihat-xususiyatga ko`ra ma`no qirrasida farqlanadi.

Senga qarshi bugun ko`kka yuksalgan,

La`nat, qarg`ish “hech”dan ko`ra “kech”gina.

Mazkur ikki qator she`r shoirning “Kichgina armug`onim” she`ridan olingan bo`lib, unda *la`nat* va *qarg`ish* so`zlari o`zaro ma`nodoshlik qatorini hosil etgan. Ular o`ziga xos ma`no nozikligiga ega. *La`nat* so`zining lug`aviy ma`nosi “kechirib bo`lmaydigan aybi, xatti-harakati og`ir jinoyati uchun bildirilgan qattiq qarg`ish” (O`TIL, I, 429-b.), *qarg`amoq* so`zining lug`aviy ma`nosi esa “birovga yomonlik, baxtsizlik yoki o`lim tilab koyimoq” (O`TIL, II, 558-b.)dir. Anglashiladiki, *la`nat* so`zining ifoda semasida “koyish” miqdoriy darajasi *qarg`amoq* so`zi ifodasiga nisbatan yuqori.

Elbek she`riyati tilining xarakterli tomoni shundaki, ma`nodosh so`zlar aksariyat o`rinlarda yonma-yon qo`llanilgan. Bu, albatta, bejizga emas. Lirik qahramonning his-tuyg`ulurini aniq, ravshan va ta`sirchan ifodalash, ekspressivlikni yanada oshirish uchun shunday qilingan. Yoshlarning intilish va kuch-g`ayratlarini ifoda etgan “So`zimiz” she`rida yonma-yon qo`llanilgan *yugur(moq)*, *el(moq)* so`zlari misolida buni ko`rish mumkin:

Yugurdik, eldik, uzoqdan keldik,  
Yo`q bizda tislash, yo`q gulni islash.

Tilimizda *chopmoq*, *tez yurmoq*, *tez harakat qilmoq*, *yugurmoq*, *elmoq* kabi bir sinonimik uyada birlashuvchi so`zlar mavjud. Mazkur ma`nodosh so`zlardan *yugurmoq*, ayniqsa, *elmoq* so`zida “harakat” belgisi darajasi boshqalariga nisbatan ancha yuqori. Shu sabab shoir yoshlikka xos jo`shqinlikni shu ma`nodosh so`zlar vositasida ifodalagan. Ayonki, *elmoq* so`zida “shamoldek uchmoq” semasi ham mavjud. Elbek his-tuyg`uning aniq, ta`sirchan ifodasi uchun shu so`zdan foydalangan. Nazarda tutilgan *yugurmoq* va *elmoq* ma`nodosh so`zlari muayyan ma`no qirralari bilan farq qiladi.

2. Nutqiy xoslanish jihatidan farqlanuvchi sinonimlar, ya`ni nutqiy sinonimlar. Bunday sinonimlarga shoirning “So`rma” she`ridagi *ochun* va *dunyo* so`zlarini misol qilib keltirish mumkin:

So`rma bu mahzun xayolning qay ochunda yurganin...

Marhamat yo`q, to`g`rilik yo`q dunyodan kechmoq kerak.

*Ochun* so`zi keyingi yillarda badiiy asarlar va matbuot tilida muayyan darajada faol qo`llaniladigan bo`ldi. U nutqiy xoslanishiga ko`ra badiiy nutqqa xosdir. *Dunyo* so`zi esa nutqning barcha ko`rinishlari – so`zlashuv, badiiy, rasmiy nutq kabilarda keng qo`llaniladi.

Elbek ma`nodosh so`zlarga boy o`zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Elbek yangi o`zbek adabiyoti va madaniyatining shakllanishi davrida yashadi hamda mana shu milliy adabiyotning mazmun mundarijasiga yangiliklar olib kirib, uning rivoju takomiliga munosib ulush qo`shdi. U iste`dodli shoir sifatida badiiy adabiyotning mazmunan va shaklan yangilangan namunalarini yaratdi. Mazmuniy o`zgarishlar, ayniqsa, uning she`riy asarlarida to`la o`z ifodasini topgan.

Shoir sheʼrlarining lugʻaviy tarkibi juda boy va rang-barang boʻlib, ularda soʻzlarning oʻrinsiz takrori deyarli uchramaydi. Bunga u maʼnodosh soʻzlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. Elbek sinonimlardan badiiy nutqni ravshan va ravon qilib tuzish, qaytariqlardan qochish, kitobxonning estetik didini tarbiyalash maqsadida keng va unumli foydalangan.

## 2.4. Antonim soʻzlar

Qarama-qarshilik antik davrlardan oq faylasuflar eʼtiborini oʻziga jalb etib kelgan kategoriya sifatida xarakterlanadi. Sokrat, Platon, Aristotel, Demokrit kabi faylasuflarning ilmiy qarashlarida bu kategoriya turlicha talqin etib kelingan

Qarama-qarshilik borliqdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Olamni anglashda qarama-qarshilik kategoriyasining oʻrni beqiyos. Falsafiy nuqtai nazardan har qanday hodisaning oʻrganilishi, ertami-kechmi, ularning qarama-qarshi tomoniga murojaat qilinishiga olib keladi. Masalan, B.Spinoza «Etika» asarida his-tuygʻularning tabiatini ochishda qarshilantirishdan unumli foydalanadi va ularning ifodasini soʻzlarni qarshilantirish orqali tushuntiradi.<sup>24</sup> Faylasuf hodisalarga kontrast asosida yondashayotganini quyidagi fikri orqali asoslaydi: «Aniqlash – bu qarshi qoʻyish demakdir».

Qarama-qarshilik kategoriyasining belgilanishidagi yana bir muhim jihat uning psixolingvistik aspektidir. Psixologlar har qanday tushunchaning shakllanishi, turli narsa-hodisalarning xususiyatlarini farqlash va ularni bir-biri bilan qiyoslash, umumiy jihatlarini aniqlash tafakkurimizdagi tasavvurlar asosida amalga oshadi, degan qarashni ilgari surishadi. Masalan, *uzuqlik* haqida qachonki bizning ongimizda *uzluksizlik* toʻgʻrisida tasavvur boʻlgandagina gapiramiz. Xuddi shu kabi, *engil*, *kichik*, *keng* belgilari haqidagi tasavvurimiz *ogʻir*, *katta*, *tor* belgilarini aniqlashimizni taʼminlaydi. Inson tafakkuridagi bu kabi qarshilantirish munosabatlari mazmuniy moslikni chegaralaydi va yoʻnaltiradi. Ongdagi

---

<sup>24</sup> Спиноза Б. Этика. <http://www.koob.ru/books>

qarshilantirish til vositalari asosida reallashadi, ya'ni antonimik til birliklari bu holatda asosiy rol o'ynaydi.

Demak, qarama-qarshilik muhim farqlilik sifatida tafakkurimizda bog'lanishda joylashgan bo'lib, har qaysisi boshqasi haqidagi tasavvurni bera oladi.

Qarama-qarshilik hodisasi tilshunoslikda asosan *antonimiya* nomi ostida talqin qilinadi. Uning lisoniy tabiati ikki planda: paradigmatic va sintagmatic planda belgilanadi. Paradigmatic planda antonimlarning eng muhim belgisi ularning semantik qarama-qarshilik ifodalashi hisoblanadi. Bu jihat doimo antonimlar belgilanishidagi asosiy omil vazifasini bajarib kelgan. Antonimiya hodisasi yuzasidan erishilgan barcha yutuqlarga qaramasdan, mazkur hodisa juda ko'p munozarali, ochilmagan qirralarga ega. Masalan, tilshunoslar o'rtasida jins bildiruvchi so'zlar antonim yoki antonim emasligi yuzasidan munozarali fikrlar mavjud. Ba'zi manbalarda *erkak* – *ayol* tipidagi korrelyativ juftliklarning antonimik munosabat ifodalay olmasligi ta'kidlansa, boshqalarida esa bunday juftliklar antonimlar qatoriga kiritiladi. Jumladan, S.Usmonov *er – xotin, opa – singil, o'g'il – qiz* tipidagi juftliklarni «yarim antonimlar»<sup>25</sup> hisoblaydi, demakki, baribir antonimlar qatoriga qo'shadi.

Bizningcha, antonimiya faqat belgi kategoriyasiga xos (albatta, belgi bu o'rinda keng planda), korrelyativ so'zlar esa, asosan, konkret semantikali otlardan tashkil topadi. Ularning sememalarida birlamchi semalar «belgi» emas, «konkret predmet» bo'lib, ular ma'lum, ikkilamchi plandagi «belgi» semasi bilan bir-biriga zid. Masalan: *aka* – *uka* juftligi antonimik munosabatga misol bo'la olmaydi, chunki antonim keng planda ma'lum bir hodisaga nisbatan belgini ifodalovchi birliklar bo'lishi kerak, ammo *aka - uka* so'zlarining o'zi hodisani ifodalab turibdi, belgi esa ma'lum semasi xolos. Umuman aytganda, bu so'zlar antonimlik potentsiyasiga ega emas.

Ba'zi adabiyotlarda *o'qigan* – *o'qimagan*, *kelgan* – *kelmagan*, *borgan* – *bormagan* kabi holatlar bir so'zning turli shakllari bo'lgani holda antonimlar

---

<sup>25</sup> Қаранг: Усмонов С. Антонимлар. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – №2. – Б. 33-34.

qatoriga kirmasligi ta'kidlansa, boshqa tilshunoslar bunga tamoman qarama-qarshi tarzda «fe'llarning bo'lishli formasi bilan bo'lishsiz formasi antonimning alohida bir tipini tashkil qiladi», degan fikrni ham aytganlar. R.Shukurov «...ba'zi sifatdoshlarning bo'lishli va bo'lishsiz formalari harakatnigina emas, balki harakat orqali predmet belgisini bildirganda, ularda antonimlik xususiyati paydo bo'lishi mumkin»,<sup>26</sup> deydi.

Bizning fikrimizcha, fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik antonimik holat bo'la olmaydi. Birinchidan, nima bo'lganda ham, biz qarama-qarshilikni mantiqiy kategoriya sifatida emas, uning til birliklarida ifodalanishi tarzida tadqiq qilmoqdamiz. Til hodisasi sifatida esa, antonimlar bir-biriga nisbatan qarama-qarshi mazmun anglatadigan, til sistemasida mavjud bo'lgan alohida leksemalar bo'lishi darkor. *O'qigan* – *o'qimagan* esa tilda bir so'zning ikki shakli hisoblanadi. Hatto mazkur juftlik sifatdosh pozistiyasida oddiy inkorni emas, balki antonimiyaga xos bo'lgan belgini anglatib kelgan ma'nosida ham *o'qigan* – *o'qimagan* o'zbek tilida ikki so'z sifatida e'tirof etilmaydi. Shunday ekan, biz sifatdoshlar bo'lishli-bo'lishsiz shakllarida antonimik munosabatda bo'ladi, degan fikrga qo'shila olmaymiz.

Antonimlarning sintagmatik xususiyatlariga quyidagilar kiritiladi: 1) antonimlarning qurshovi; 2) antonimlar qo'llanadigan konstrukstiyalarning sintaktik modeli.

Tilshunoslar antonimik juftliklarning bir xil leksik qurshovga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratib kelishgan. Ko'pgina ilmiy manbalarda bu xususiyat antonimlarni belgilashdagi shart bo'lgan mezonlar qatorida e'tirof etiladi. Antonim so'zlar bir xil leksik qurshovga ega, ya'ni bir xil so'zlar guruhi bilan birlashib keladi.

Aytish kerakki, haqiqatan ham kontekstda birga qo'llanish qonuniyati antonimlarga xos xususiyat. Biz buni ko'plab nutqiy holatlarda, birinchi navbatda, antonimlarining izohlanishida kuzatishimiz mumkin. Ammo shunday bo'lsa-da, bu jihat antonimlar belgilanishidagi mezon sifatida xizmat qila olmaydi.

---

<sup>26</sup> Шукуров Р. Кўрсатилган диссертация. – Б. 16.

Haqiqatan ham, antonim soʻzlarning semantik tarkibida integral semalarning mavjud boʻlishi ularning sintagmatik jihatdan bir xil soʻzlar bilan birika olishini taʼminlaydi, ammo bu mazkur soʻzlarning individual qurshovga ham ega boʻla olishini inkor etmaydi.

Ammo leksik birliklardagi qarama-qarshilikning ifodalanishi turli turkum doirasida ham kuzatilishi ayni haqiqat. Aytish mumkinki, antonimik holat leksik birliklar semantikasidagi qarama-qarshi semalarning reallashishi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi. Chunki bunday vaziyatda mazkur qarama-qarshi semalardan boshqa barcha semalarning aynan boʻlishi qarama-qarshilikni yanada yorqin ifoda etadi. Ammo leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligiga asos boʻluvchi semalar doim ham ana shunday simmetrik holatda emas, asimmetrik holatda boʻlishi ham juda koʻp kuzatiladi. Masalan: *baland* – *past* leksemalarining antonimik munosabatiga ularning semantik tarkibidagi qarama-qarshi semalar («vertikal jihatdan oʻlchami yuqori» – «vertikal jihatdan oʻlchami quyi») asos boʻlgan. Ushbu juftlik antonimiyaning mavjud mezonlariga toʻla javob beradi. Lekin ayni shu qarama-qarshi semalar *baland* – *pasaymoq*, *baland* – *pastlik* leksemalari oʻrtasida ham mavjud. Bunday juftliklarga koʻplab misollar keltirish mumkin. Masalan: *katta* – *kichraymoq*, *oq* – *qoraymoq*, *yomon* – *yaxshilik*, *uzun* – *qisqarmoq* kabi. Ushbu leksik birliklar lisoniy ifodalovchi sifatida qarama-qarshilikka xos boʻlgan har qanday xususiyatlarni oʻzida ifodalay oladi. Ularda ham antonimlarga xos boʻlgan mantiqiy, psixologik, leksik, kommunikativ tomonlar mujassamlashgan. Shunga koʻra, lingvistik qarama-qarshilikning faqat antonimiya mezonlari asosida belgilanishi hodisa mohiyatini toʻliq ochishga imkon bermaydi. Demak, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilik munosabatini antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday keng doiradagi hodisani biz *antisemiya* (yunoncha *anti* – «zid», *sema* – «belgi») nomi ostida oʻrganishni lozim topdik.

Leksik birliklarning semantik tarkibida qarama-qarshilikka (antonimik munosabatga) asos boʻla oladigan semalarning mavjud boʻlishi *antisemiya* (yunoncha *anti* – «zid», *sema* – «belgi») hodisasining mohiyatini belgilaydi.

Lingvistik hodisa sifatida antisemiya antonimiyaga nisbatan keng qamrovga egaligi bilan xarakterlanadi. Har bir antonimik juftlik asosida antisemiya yotadi, biroq har qanday antisemik munosabat antonimiyani (antonimiyaning belgilanish mezonlariga ko`ra) yuzaga keltirmaydi. Antonimiyani antisemiyaning yuqori bosqichi sifatida baholash joiz.

Qarama-qarshilik mantiqiy jihatdan bir umumiylikning ikki farqli tomoni, ikki qutbi bo`lishi lozim. Tilshunoslikda ayni shu «bir umumiylik»ning in`ikosi sifatida turkumlanish olinadi. Ammo mantiqiy tushuncha va turkumlanish doim ham parallel kelmaydi. Masalan, *kulgi* – *kulmoq* so`zlariga e`tibor beraylik:

*Kulgi* – «xursandchilikni ifodalovchi tovushlar», *kulmoq* – «shu tovushlar bilan xursandchilikni ifodalamoq».

Ko`rinib turibdiki, leksemalar anglatayotgan denotatlarda deyarli farq sezilmaydi. Bunga nisbatan ko`proq bir *mantiqiy tushunchaning ikki xil reallashishi* tarzidagi ta`rif to`g`riroq bo`lar edi. Mazkur leksemalar grammatik jihatdan ikki turkumda, biroq mantiqiy aspektdagi tasnifi ularning har ikkisining «yig`lamoq» tushunchasi bilan qarshilanishini tasdiqlaydi.

E.N.Miller antonimiyani tadqiq qilish davomida ushbu hodisaga sof semantik kategoriya sifatida yondashib, grammatik kategoriya hisoblangan turkumlik antonimiyaning belgilanishida ahamiyatga ega emasligini aytadi. U antonimlarning belgilanishidagi an`anaviy paradigmatic mezon bo`lgan bir turkumga mansublikni ikki leksema antonimligi belgilanishidagi muhim shart sifatida qaralishiga hech qanday asos yo`qligini aytadi. Tilshunos antonimlar yuzaga kelishida «mohiyat» tushunchasi o`rni haqida gapirib, «bir o`zakdan hosil bo`lgan so`zlar faqat formal, grammatik jihatdan farq qiladi, leksikologik nuqtai nazardan esa ular aynan, «bir mohiyatli»<sup>27</sup> ekanligini ta`kidlaydi. Mazkur qarash to`lalgicha o`zini oqlamaydi. Biz «turli turkumdagi bir o`zakli so`zlar faqat formal jihatdangina farqlanib, leksik jihatdan aynan» degan fikrga qo`shilmaymiz, chunki bunday qarash til sistemasini tubdan o`zgartirib yuborishi ham mumkin. Birinchi navbatda, mazkur yondashuv til sistemasidagi so`z yasallishini – bir so`z zamirida

---

<sup>27</sup> Қаранг: Миллер Е.Н. Межчастеречная антонимия // Филологические науки. 1981. – № 1. – С.78-82.

ikkinchi, yangi, bir soʻzni yuzaga kelishini – umuman inkor qilish boʻlardi. Bundan tashqari, soʻz turkumlari grammatik kategoriya boʻlsa-da, ular soʻzlarning semantik xususiyatiga ham asoslangan holda belgilanadi. Shakliy har xillik mazmunga oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qolmaydi. Mantiqiy jihatdan shakl va mazmun birligi qonuniyati ham shuni taqozo etadi. Ammo soʻzlarning turkumlanishiga asos boʻluvchi kategorial sema soʻz mazmuniy strukturasidagi nisbatan eng umumiy xarakterli komponentdir.

E.N.Miller turkumlararo qarama-qarshilikning mavjudligini turli turkumdagi leksemalarning semantik jihatdan «aynan» boʻlishi nuqtai nazaridan, demakki, semantik jihatdan mavjud antonimik mezonlardan chiqmasdan yoki baribir ham, antonimiya bilan cheklab belgilashga harakat qilgan. Bizning maqsadimiz esa turli turkumdagi leksemalarning bir umumiy *semantik yadrosi* asosida qarama-qarshilik munosabatini belgilashdan iborat. E.N.Millerdan farqli ravishda, biz antisemik aloqaga kirishayotgan leksemalarning semantik tarkibida qarama-qarshilikni taʼminlovchi kontrar semalardan tashqari differentsial semalarning ham mavjud boʻlishini tan olamiz, lekin bu mazkur birliklar munosabatidagi qarama-qarshilikni inkor qila olmaydi. Chunki bir soʻzga nisbatan ikki grammatik-kategorial jihatdan farqli soʻzlarni qarshilantirish uchun ularning semantikasi toʻlaligicha aynan boʻlishi shart emas, asosiysi qarama-qarshilikning yuzaga kelishida xizmat qilayotgan semantik yadroning har ikkisi ham mavjud boʻlishidir.

Shunday ekan, leksemalarning semantik jihatdan qarama-qarshilik munosabati bir soʻz turkumi doirasida ham, har xil soʻz turkumi doirasida ham mavjud boʻla oladi. Zero, leksemalarning maʼno doirasi qanchalik boʻlishidan qatʼi nazar, ular qarama-qarshilik munosabatiga alohida semalari asosida kirishadi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bagʻishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid maʼnoli soʻzlarni yonma-yon qoʻllash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid maʼnoli soʻzlar farqlanadi. Masalan: **Eski** qishloqqa **yangi** odat. (Maqol) Hali ancha balandda boʻlsa ham uning **kamolidan zavoli** yaqinroq ekani koʻrinib turardi. Shuncha er **qoʻldan chiqqan** boʻlsa, uning

baravariga qancha davlat **qo`lga kirgandir**, muni xudo biladiyu xudoning sevimli bandasi qorako`z Miryoqub biladi!..(Cho`lpon) Ba`zan mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo`rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so`zni boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so`zga birdaniga zidlantiradilar. Masalan: U vaqtda o`zi – **kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi...** Xadichaxon esa **ezildi, kuydi, o`rtandi, xo`rlanib – xo`rlanib, achchiq – achchiq yig`ladi.** (Cho`lpon)

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta`sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan: «Zelixon Elchindan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U **mushtdek** yurakni **qoyadek** dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to`playotgan ekan...» (T.Malik)

Bu nutqiy parchada mushtdek va qoyadek so`zlari «kichik» va «katta» ma`nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan.

Zid ma`nolilikni barqaror birikmalarda ham ko`plab kuzatishimiz mumkin. **Iboralarda:** ko`kka ko`tarmoq – erga urmoq, yuzi yorug` – yuzi shuvut, ko`ngli oq – ichi qora, ko`ziga issiq ko`rinmoq – ko`ziga sovuq ko`rinmoq kabi. Yoki so`z va ibora o`rtasidagi – leksik-frazeologik zid ma`nolilik: xasis – qo`li ochiq, xafa – og`zi qulog`ida kabi. **Maqol va matallarda:** Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda. Yaxshidan ot qoladi yomondan dod. Osmon yiroq – er qattiq. **Hikmatli so`zlarda:** Bilmaganni so`rab o`rgangan – olim, orlanib so`ramagan – o`ziga zolim. (A.Navoiy)

Elbek asarlari tilining leksik-semantik tarkibida zid ma`noli so`zlar ma`lum bir guruhni tashkil etadi. U o`z badiiy asarlari tilida bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi so`zlar, ya`ni antonimlardan juda keng foydalangan.

Aytilganidek, antonimlarni belgilovchi ikkita asosiy o`lchov mavjud. Birinchi o`lchovda so`zlarning leksik ma`nosi alohida e`tiborga olinadi. So`zlarning leksik ma`nosida bir-biriga nisbatan zid, qarama-qarshi semalar mavjud bo`lsa, bunday so`zlar antonimlar sifatida belgilanadi. Ikkinchi o`lchovga ko`ra, ikki antonim so`z bildirgan tushunchalar o`rtasida oraliq tushuncha mavjud bo`lishi kerak. Tilshunoslikda

oraliq tushuncha “ mantiqiy markaz” nomi bilan yuritildi. Mantiqiy markaz bo`lib keladigan so`z odatda neytral, norma holatni bildiradi.<sup>1</sup>

Masalan, quyidagi she`rda qo`llanilgan *past* va *baland* so`zlariga nisbatan *tekis* so`zi mantiqiy markaz hisoblanadi:

Tekislandi shu chog` pastim-balandim,  
Tomirlarim to`ldi olovli qonga!..

Ayonki, zid ma`noli so`zlar badiiy asarlarda tazod san`atini yaratuvchi muhim vosita hisoblanadi. A.Hojiahmedov bu xususda quyidagilarni yozadi: “Tazod so`zi, zid qo`yish”, “qarshilantirish” ma`nolarini ifodalaydi. Shu so`z bilan ataluvchi she`riy san`at esa baytda ma`no jihatidan o`zaro zid, qarama-qarshi bo`lgan so`zlarni qo`llab, ta`sirchan badiiy timsollar lavhalar yaratishni nazarda tutadi.`<sup>1</sup>

Yevropa filologiyasida tazod san`ati antiteza deb ataladi. Badiiy asarda voqealar yoki tushunchalar bir-biriga qat`iy qarshilantirilsa, antiteza kelib chiqadi. Antiteza nutqning emostional ta`sirini orttiradi. Qarshilantirilayotgan narsalar orqali aytilmoqchi bo`lgan fikrni ta`kidlaydi.

Tilshunoslikda antonimlar leksik-semantik, grammatik va tarixiy-etimologik xususiyatlariga ko`ra odatda quyidagi turlar bo`yicha tahlil etiladi:

- 1) tub (asliy) va yasama antonimlar;
- 2) kontekstual (matniy) antonimlar;
- 3) tarixiy-etimologik qatlamiga ko`ra antonimlar;
- 4) so`z turkumiga ko`ra antonimlar.

Elbek badiiy asarlari tilidagi antonimlarni mazkur tahlil turlari bo`yicha o`rganishga harakat qilamiz. Shoir badiiy asarlari antonimlarga juda boy. U o`zining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini ifodalashda ushbu so`zlardan juda keng foydalangan.

Shoir she`rlarida qo`llanilgan zid ma`noli so`zlar, asosan, ot (*Sharq-G`arb*, *osmon-er* kabi); sifat (*oq-qora*, *baland-past*, *qattiq-yumshoq* kabi); ravish (*uzoq-yaqin*,

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 9.

<sup>1</sup> Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. -Т.: Шарқ, 1998. –Б. 83.

<sup>2</sup> Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 32.

oz-ko`p, tez-sekin kabi); fe`l (*sochmoq-termoq, kulmoq-yig`lamoq* kabi) turkumidagi so`zlardan iborat.

Alohida ta`kidlash o`rinliki, shoir she`rlarida turkiy (o`zbek) tilga mansub so`zlardan iborat antonimlar nisbatan ko`p miqdorni tashkil etadi. Yana bir e`tiborli tomoni shundaki, *G`arb* va *Sharq* so`zlaridan iborat antonimik juftlik juda ko`p o`rinlarda takror qo`llanilgan. *G`arb*, ya`ni Yevropa madaniyati *Sharq* madaniyatiga qarshilantirilgan.

Shoir she`rlarida kontekstual antonimlar ham mavjud. Chunonchi, uning

Erkin boshqalardir, qamalgan menman,

Hayvon qatorida sanalgan menman

she`rida qo`llanilgan *erkin* va *qamalgan* so`zlari shunday antonimlar jumlasiga kiradi. *Erkin* so`zining lug`aviy ma`nosi “1. Har qanday to`siq, g`ov, monelik va sh.k.dan xoli bo`lgan; bemalol. 2. Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mustaqillikka ega bo`lgan, ozod, hur” (O`TIL, II, 451-bet) bo`lib, uning antonimi «erksiz, qaram» (qar.:Rahmatullaev Sh va boshq. O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati. T., O`qituvchi, 1980. 200-bet)dir. Lekin shoir she`rida *erkin* so`zining zidi ma`nosida *qamalgan* so`zini keltiradi. U mazkur so`zni “ozodlikdan mahrum bo`lgan” ma`nosida qo`llagan. Natijada *qamalgan* so`zi *erkin* so`zining antonimi sifatida voqelangan.

Umuman olganda, Elbek she`riy asarlari zid ma`noli so`zlarga juda boy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini ifodalashda ushbu so`zlardan juda keng foydalangan. Mazkur guruhdagi so`zlar ular uchun zidiyatlarga to`la davrning umumiy ruhini ifodalashda asosiy til vositalaridan biri bo`lgan.

Elbek o`zbek tilining barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanib, milliy adabiyotimizni, xususan, she`riyatimizni yangi, o`ziga xos badiiy ruh, mazmun, milliy g`oya bilan boyitdi, bir so`z bilan aytganda, uni yuksaklikka olib chiqdi.

Jamiyat rivoji barcha fanlar singari filologiya sohasida ham yangi-yangi talqin-tahlil yo`nalishlarini keltirib chiqardi. Lingvopoetika shunday yo`nalishlardan biridir. Elbek she`riy asarlarini ushbu yo`nalish asosida ham o`rganishni lozim topdik. Ishimizning keyingi bobida shoir poetik asarlarini lingvopoetik aspektda tahlil etishga harakat qilamiz.

### III BOB

## ELBEK POETIK ASARLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Xalqning badiiy-estetik tafakkuriga oid merosni ilmiy asosda chuqur, har tomonlama, izchil va umumiylikda o'rganish jamiyat, ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim va ahamiyatlidir. Davrimiz ilm-fan oldiga qo'yayotgan maqsad va talablar barcha fan sohalarida shu kungacha erishilgan yutuqlarning birlashtirilishi, tahlil etilishi, barcha sohalar uchun samarali uslublarni ommalashtirishini ko'zda tutmoqda<sup>28</sup>. Ilm-fanning eng asosiy maqsadi fan sohalarini bo'yicha erishilgan natija va yutuqlarni birlashtirish, tahlil etish, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan samarali uslublarni ijtimoiy hayotga joriy etishdir.

Aytib o'tilganidek, jamiyat rivoji barcha fanlar singari filologiya sohasida ham yangi-yangi talqin-tahlil yo'nalishlarini keltirib chiqardi. Lingvopoetika shunday yo'nalishlardan biridir. Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funktsiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishga imkon yaratadi. Chunki, lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta'minlashga qaratilgan<sup>29</sup>.

O'zbek filologiyasining lingvopoetika yo'nalishida hozirga qadar qator tadqiqotlar yaratildi. Ular jumlasiga N.Mahmudovning «Oybek nasridagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi», «A.Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir», I.K.Mirzaevning «She'riy matnning lingvopoetik talqini muammolari», G.Rixsievaning «Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar», D.Xudoyberganovning «O'zbek tilidagi o'xshatish konstruktsiyalarining semantik va stilistik tahlili», M.Yo'ldoshevning «Cho'lponning badiiy til mahorati», N.Husanovning «XIV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-

---

<sup>28</sup> Ёкубекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. -Т.: Фан, 2005. -Б. 4.

<sup>29</sup> Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т.: 2003. -№ 2 (4). -Б. 84.

semantik va uslubiy xususiyatlariga doir» kabi o'zbek tilshunosligidagi<sup>3</sup>; Sh.Doniyorovning «Sh.Xolmirzaev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi», Y.Solijonovning «XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi», D.Quronovning «Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi», M.Yoqubbekovanning «O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari» kabi o'zbek adabiyotshunosligidagi<sup>30</sup> tadqiqotlarni aytib o'tish mumkin.

Badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etish usuli quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

□ asarning g'oya-mazmunini, falsafiy, mantiqiy, lisoniy, semantik va poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil etishga;

□ shoirning ijodi va dunyoqarashi o'rtasidagi o'zaro munosabatni, uning maqsadini va ijtimoiy tafakkur rivojida tutgan o'rnini to'g'ri belgilashga;

□ lirik qahramonning jamiyat va tabiatga oid tasavvurlari, voqea-hodisalarga nisbatan ruhiy kechinmalari va his-tuyg'ularini ifodalashda shoirning til vositalaridan foydalana olish mahoratini mufassal ko'rsatib berishga;

□ o'ziga xos tasviriy vositalar tizimini umumiylikda, o'zaro aloqadorlikda o'rganishga;

□ ijodkorning tili va uslubi, uning so'z boyligi, lug'aviy birliklarga munosabati, asar yaratilgan davr tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'laqonli fikr ifodalashga va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga.

Ayonki, ko'chim (trop) – biror narsa yoki hodisani ifodalash uchun so'z yoki so'z birikmalarining o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanishini anglatuvchi tushuncha. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'zning o'z va ko'chma

<sup>3</sup> Махмудов Н. Ойбек насридаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1985. -№ 6 (12). –Б. 48-50; Махмудов Н. А. Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1987. -№ 4 (8). –Б. 34-38; Мирзаев И.К.. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис. ... док. филол. наук. –Т.: 1992; Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2003. -№ 2(4). –Б. 84-86; Худойберганаева Д. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т.: 1989; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Т.: 2000; Хусанов Н. XIV аср ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. –Т.: Ёзувчи, 1997.

<sup>30</sup> Дониёрова Ш. Ш.Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Т.: 2000; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Т.: 2003; Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Т.: Ўқитувчи, 1997; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. –Т.: Фан, 2005.

ma'nosining munosabati hamda ularning narsa yoki voqelikka bo'lgan munosabatiga qarab ko'chimlar bir necha turlarga bo'linadi. Ulardan eng asosiylari: metafora, metonimiya, sinekdoxadir.

Bizning ongimizda qandaydir xususiyatlari, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki narsa yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilinib olinadi. Boshqacha aytganda, biror narsa yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror narsa yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi. Ko'chim umuman tilga xos hodisa bo'lib, u so'zning qo'llanish doirasini, uning ma'no tovlanishlarini boyitadi. Shuning uchun ko'chimlarning badiiy nutqda ishlatilishi ifodalilikni, ta'sirchanlikni oshirishga tasvirlanayotgan voqea-hodisani ravshanroq baholashga yordam beradi.<sup>1</sup>

Ko'chimlar odatda, ikkiga — sodda va murakkab ko'chimlarga bo'linadi. O'xshatish, sifatlash kabilar sodda ko'chimlar, metafora, metonimiya sinekdoxa, jonlantirish, ramz kabilar esa murakkab ko'chimlardir.

Sodda ko'chimlarda bir narsaning biror sifati ta'kidlab ko'rsatiladi yoki ikkinchi bir narsaning biror belgisiga o'xshatiladi. Murakkab ko'chimlarda esa biror narsa ikkinchi bir narsa orqali ifodalanadi, jonsiz narsa jonliday tasvirlanadi.

Ko'chimning bir turi ramz (simvol) metaforaning bir ko'rinishi bo'lib, shartli ravishda ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'z birikmasi, rasm, predmetni anglatadi. Boshqacha tarzda ifodalaganda, ramzlar obrazli tafakkur qilishning ko'rinishlaridan biri bo'lib, badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasidir. Shubhasiz, ko'chma ma'noda ishlatiladigan bunday so'z yoki birikmalar o'zlarining qandaydir xususiyatlari bilan tasvirlanayotgan hayotiy voqea va tushunchalarni eslatib turishi, biri ikkinchisiga ma'lum darajada o'xshab turishi lozim. Ular orqali fikr yuritish jadid she'riyatida ko'p uchraydi. Chunonchi, quyosh – erk, istiqlol, tun – hasrat, ma'rifatsizlik ramzi.

Ko'chim tilga xos hodisa bo'lib, u so'zning qo'llanish doirasini, uning ma'no tovlanishlarini boyitadi. Shuning uchun ko'chimlarning badiiy nutqda ishlatilishi

---

<sup>1</sup> Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 320.

ifodalilikni, ta'sirchanlikni oshirishga, tasvirlanayotgan voqea-hodisani ravshanroq baholashga yordam beradi.

Ayonki, ifoda vositalarining yolg'iz o'zi mustaqil holda badiiylik kasb etmaydi va badiiy nutqni tashkil qilmaydi. Ular faqat badiiy matn ichida, asar mazmuniga bog'liq holda, boshqa tasvir vositalari bilan birgalikda ma'lum ma'no kasb etadi, muayyan badiiy vazifani bajaradi, tasvirlanayotgan voqea-hodisani va unga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib va umumlashtirib ko'rsatishda muhim vosita bo'ladi.

Ifodaviy vositalar badiiy nutq tarkibida o'z ma'nolaridan boshqa ma'no tovlanishlariga, ko'chma ma'nolarga, majoziy xususiyatlariga ega bo'lgan so'z va iboralar bo'lib, ular badiiy nutq ta'sirchanligini, emostionalligini oshirishga, tarbiyaviy-estetik vazifasini konkretlashtirishga imkon beradi. Ifoda vositalari badiiy nutq tarkibida ifodalangan maqsadiga va bajargan stilistik vazifalariga ko'ra, yuqorida aytib o'tilganidek, metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, kinoya, allegoriya (majoz), simvol (ramz) kabi turlarga bo'linadi.<sup>2</sup>

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, Elbek she'riyatidagi murakkab ko'chimlar, xususan, metafora, metonimiya va sinekdoxalarni baqadri hol tahlil etishga harakat qildik.

### **3.1. Metaforalar va ularning lingvopoetik xususiyatlari**

Metaforalarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari o'zbek tilshunosligida ancha keng o'rganilgan. Tadqiqotlarning «aksariyatida metaforaning asosiy mohiyatini o'xshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etishi aytilgan».<sup>31</sup>

Metafora Sharq she'riyatida istiora deb ataladi va u ma'naviy san'atning bir turi hisoblanadi. Adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov o'zining «She'riy san'atlar va mumtoz qofiya» asarida istiora xususida quyidagilarni yozadi: «Istiora arabcha so'z bo'lib, «biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq» degan ma'noni

---

<sup>2</sup> Ўша асар . 71-б.

<sup>31</sup> Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. –Т.: Маънавият, 2002. –Б. 67.

ifodalab, adabiy asarda soʻzni oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼnoda, aniqrogʻi uni haqiqiy maʼnosida emas, balki majoziy bir maʼnoda qoʻllash sanʼati sanaladi. Koʻpincha bu ikki maʼno oʻzaro oʻxshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih sanʼatiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbihi kinoyaga, yaʼni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi».<sup>32</sup>

Mazkur fikrdan shuni anglash mumkinki, istiora tashbih sanʼatiga qisman yaqin turadi, ularning eng muhim oʻzaro farqi shundaki, tashbih sanʼatida mushabbihi (oʻxshatish asosi), mushabbihun bih (oʻxshatish timsoli), vajhi tashbih (oʻxshatish belgisi), vositai tashbih (oʻxshatish vositasi) kabi uzvlar qoʻllanilsa, istiorada esa faqat mushabbihun bih (oʻxshatish timsoli) istifoda etiladi.

Taʼkidlash joizki, metaforalarning oʻziga xos xususiyatu tabiati, poetik mohiyat-mazmuni xususidagi ilmiy talqinlar unga oid atamalarning turlichaligini hisobga olmaganda bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ularning barchasida metaforalar nom koʻchishning alohida bir turi sifatida eʼtirof etilgan, badiiy tasvirdagi taʼsirchanlik, ixchamlik, emostional – ekspressivlik metaforada oʻxshatishga qaraganda kuchliroq ekanligi taʼkidlangan, ijodkor ahli asar gʻoya-mazmunini yorqin ifodalash maqsadida badiiy tasvirning bu turidan keng foydalanishga harakat qilganligi qayd etilgan.

Haqiqatan ham, metaforalar his-tuygʻu va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, taʼsирbaxsh tarzda etkazib berish imkonini beradi. U oʻzining ixchamligi, soddaligi, semantik jihatdan sermaʼnoliligi bilan sheʼriy matnning qisqa shakliga juda mos keladi va uning badiiyatini oshirishga muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganidek, metaforik hodisada muayyan bir narsa, belgi, harakat ikkilamchi nomlanadi. Mumtoz adabiyotda ikkilamchi nomlash badiiy-estetik mohiyat kasb etishi uchun unga quyidagi talablar qoʻyilgan:

— ijodkorning gʻoyaviy-badiiy niyatiga bevosita xizmat qilishi lozim va u maqsadli qoʻllanishi, asar mazmuniga, gʻoyaviy yoʻnalishiga mos ravishda boʻlishi shart;

---

<sup>32</sup> Ҳоҷиаҳмедов А. Шеърӣй санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарқ, 1998. –Б. 53.

— xalqning badiiy-estetik tafakkurini boyitishi, emostional – ekspressivlik ifoda etishi, estetik qimmatga ega bo`lishi kerak;

— metaforalarni haddan ziyod qo`llash badiiy asarning g`oyaviy-badiiy jihatlariga salbiy ta`sir ko`rsatganidek, fikrni ularsiz ifodalash ham asar qimmatiga putur etkazishi shubhasizdir. Shuni e`tiborga olib, metaforalarni me`yorida qo`llash lozim;

— keng xalq ommasi uchun tushunarli bo`lishi, u tomonidan qabul qilinishi va ma`qullanishi shart;

— o`xshatish timsollari hayotiy haqiqatga to`g`ri kelishi, unga zid bo`lmasligi, ikki ob`ekt o`rtasidagi nozik mutanosiblik mantiqan mos bo`lishi va ular leksik va grammatik jihatdan belgilangan me`yorlar asosida ifodalanishi kerak;

— o`xshatish timsollari yangi, go`zal, betakror va ta`sirbaxsh bo`lishi lozim.

XX asr o`zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo`shgan Elbek badiiy asarlaridagi metaforalar o`zbek tilshunosligida hali alohida tekshirish ob`ekti bo`lgan emas. Ayonki, predmet, narsa va voqea-hodisalar o`rtasidagi o`xshashlikka asoslangan poetik ko`chim—metafora badiiy tasvir vositalarining eng muhimlaridan biri sanaladi.

Metafora usulidagi ma`no ko`chishida narsa-hodisalar orasidagi o`xshashlikka asoslaniladi. Metaforani yashirin o`xshatish deb atash mumkin. Yashirin o`xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o`xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o`xshayotgan narsa uning ma`nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o`xshatilayotgan narsalardan aynan o`xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "*oltin kuz*", "*oltin davr*" birikmalarining birinchisida "*rang*", ikkinchisida "*qimmat*" asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko`rinishlaridan bo`lib, quyida o`xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo`luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko`ramiz.

R.Parfining: "*Suv ostida yaltiraydi tosh, Xarsanglarda sinadi suvlar*" — satrlarida metaforaning ma`nosi ikki bosqichda namoyon bo`ladi. Shoir tilimizda

ancha keng qo'llaniluvchi suvning oynaga o'xshatilishiga tayanadi (birinchi bosqich) va shu asosda suvning xarsangga urilib parchalanishini oynaning sinishiga o'xshatadi (ikkinchi bosqich). Shoirning quyidagi:

Derazamga uriladi qor,

Jaranglaydi jarangsiz kumush,

satrlarida metaforaning ma'no assostiastiyalari yanada kengroq. Ma'lumki, *qorning kumushga (rang o'xshashligi)* o'xshatilishi ancha keng qo'llanadi. Shoir shu asosda "kumush"ning yana bir assostiastiyasini uyg'otadi: qorning yog'ishini "*kumush tangalarning sochilishi*"ga o'xshatadiki (jaranglaydi jarangsiz kumush), go'yo kimdir hayri-ehson qilib tanga sochayotgandek. Xalqimizda "qor" yog'ishi to'kinlikdan, barakotdan deb bilinishi sizga ma'lum, albatta. Ko'ramizki, qor shoirning assostiativ fikrlashida avvalo "kumush"ni, keyin xalqimizning maishiy tafakkurida muqim o'rinishgan fikrni uyg'otadi. Anglashidadiki, leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashar ekan. Masalan, shoir yozadi:

Eng dahshatli baqirig - soqovning baqirig'i.

O', qanday kuch bilan baqirar qabrtoshlar...

Albatta, bu o'rinda metaforaning ma'nosi turlicha tushunilishi, u turli o'quvchining ongida turlicha assostiastiyalarni uyg'otishi mumkinligi tabiiy. Parchadagi birinchi misra ikkinchisining anglanishiga asos bo'ladi. "Soqovning baqirig'i"dagi dahshatli jihat shuki, uni kamdan kam odam eshitadi, eshita oladi. Shunga o'xshash, qabrtoshlar ham bizni juda ko'p narsalardan ogoh etadi, faqat ularning baqirig'ini biz doim ham "eshitolmaymiz". Baqirig'ini yonidagi odam eshitmayotganini bilib turgan soqovning holatini tasavvur qilasiz-da, bizni ogoh etib unsiz baqirayotgan qabrtoshlar, ular ortidagi o'tganlar ruhini tasavvur etasiz. Va ayni shu nuqtada she'r dilingizni titratadi, boshda tushunarsizdek ko'ringan satrlar qatidagi ma'no ongingizga o'chmas bo'lib muhrlanadi<sup>33</sup>.

---

<sup>33</sup> Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. –Б. 95-97.

Elbekning «Kiyikka» nomli sheʼri metaforik obrazlar asosida yaratilgan sheʼrlaridan biri hisoblanadi. Shoir mazkur sheʼrida fikru tuygʻularini ramzlar vositasida, oʻziga xos ulubda ifodalashga uringan. Uning buyuk ijtimoiy-estetik ideali yurt ozodligi ekanligi sheʼr mazmuniga chuqur singdirilgan. Avvaliga kiyik bilan bogʻliq holat tasvirlanayotgandek tuyulsa-da, sheʼrni oʻqigan sari zohiriy mazmuni ochilib boraveradi. Jonivorlar olamida eng beozori, eng chiroylisi va ayni paytda tutqunlikdan koʻra erkin yashash tabiatiga ega boʻlgan kiyik erksevar shoir qalbida goʻzal erk, ozodlik timsoli boʻlib shakllanganligi sheʼr ruhidan aniq anglashiladi. Shoirning kiyikka nisbatan «qorakoʻz oppogʻim» deya murojaatidan uning erk tushunchasini goʻzal qiyofada tasavvur etganligidan dalolat beradi.

Soʻyla mening sevgan goʻzal kiyigim,  
Nechun muncha mendan qochib, uzoqlarga tushibsang ?  
Aytgil menga, ey qorakoʻz oppogʻim,  
Kimdir seni bu erkinli dunyo ichra qoʻymagan.

Sheʼrning umumiy ruhidan kelib chiqilsa, «kiyik» ot leksemasi «quvur shoxli sutemizuvchilar oilasining ohu, bugʻu va hokazolar kabi katta bir guruhining umumiy nomi» maʼnosida emas, balki erkinlik ramzi ekanligi ayon boʻladi. Mazkur leksik birlikdan shoir koʻchma, majoziy maʼnoda foydalangan va unga yangi maʼno yuklagan. Natijada sanʼatkordan oʻtkir zehn va nozik mushohada yuritishni taqozo etadigan badiiy sanʼatlardan biri istiora voqelangan.

Mazkur sheʼrdagi metaforik koʻchim yukini olgan soʻzlardan yana biri «boʻri» soʻzidir. Maʼlumki, oʻzbek adabiyotida shakllangan «itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon; qashqir» (OʻTIL, 1, 164-b.) leksik maʼno ifodalovchi boʻri soʻzi ushbu sheʼrda mustamlakachi, ozodlikni zulm bilan bostiruvchi kishilar maʼnosida qoʻllangan:

Kecha-kunduz «ov» oxtarib yurgan u och boʻrilar,  
Seni qoʻlgʻa tushurgusi, tushirmaguncha qoʻmas.

Elbek badiiy talqinida mustamlakachilik siyosati yirtqich boʻri timsolida beriladi. Yuqoridagi «kiyik» soʻzi singari «boʻri» soʻzi ham oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼnoda, yaʼni majoziy maʼnoda qoʻllangan.

Adabiyotshunoslik ilmida ta'kidlanishicha fikr-tuyg'uni ta'sirchan ifodalashda istiora tashbihdan kuchli sanaladi. Istiora san'atining ana shu xususiyatini teran anglagan o'tkir zehn sohibi Elbek ulardan keng foydalangan. Ta'kidlash o'rinliki, biri o'ta yuvosh, biri o'ta yirtqich bo'lgan mazkur hayvonlarning xususiyat-tabiati bir-biriga zid qo'yish orqali tasvirning emostional - ekspressivligini oshirishga erishgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bo'ri so'zi majozan "yovuz, zolim, qonxo'r odam" ma'nosini ifodalaydi. Shoirning boshqa she'rlarida ham bo'ri so'zi xuddi shu ma'noda, ya'ni metaforik ma'noda qo'llanilganligini kuzatish mumkin:

Kutma insofni sira ulardan,

Yaxshilik chiqmas och bo'rilardan.

Elbek she'riyati tilidagi an'anaviy (umumiy) metaforalar sifatida yana quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

arslon:                               Shuning uchun, ey chinliqning qurboni,

Ey kishilik dunyosining arsloni.

Arslon, yuqorida aytib o'tilganidek, «mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher»dir. Shoir arslon so'zini she'rida "bahodir, zabardast, dovyurak" ko'chma ma'nosida qo'llagan.

sher:

Ammo, sizlarkim, kurashchi erlar,

O'limdan qaytmas qahramon sherlar.

Sher so'zi bilan arslon so'zining o'z lug'aviy ma'nosi aynan bir xil (qar: O'TIL, II, 407-b.). Mazkur so'zni shoir "azamat. polvon; har jihatdan etuk, zo'r, baquvvat; qo'rqmas, botir kishilar" ko'chma ma'nosida qo'llagan.

bulbul-gul:

Tinmay tun-kun gul shoxida sayrab turg'on mungli bulbul,

Aytchi, sening sayrashingni gul ham bir oz sezarmi?

Bulbul – chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. U ko'chma ma'noda "xushovoz navozanda, mohir notiq yoki go'zal yor" ma'nosida qo'llaniladi. Mumtoz adabiyotda bulbul— gulning chin oshig'i,

majoziy ishq sohibi sifatida talqin etiladi. Uning ma`shuqasi – gul. Gul bor joyda bulbulning bo`lishi tabiiy. Emishki, go`zal g`unchaga oshiq bo`lgan bulbul uning yuz ochishini kutib sadoqat bilan termulib o`tirarkan. Jafokor gul esa bulbulning ko`zi ilinganda ochilib, oshig`ini dog`da qo`yarkan. Bundan ranjigan bulbul ming bir xil nag`ma bilan fig`on chekib kuylar ekan. Bulbulning barcha qo`shiqlari gul haqida, muhabbat va sadoqat haqida ekan. Gul va bulbul obrazlarining motivlashgan yaqinligi ustiga, ularning qofiyadosh ham ekanligi she`riy misralardagi doimiy metaforik juftlik sifatida shakllanishiga olib keladi.<sup>34</sup>

Elbek “Kesilg`on umid” she`rida *gul* va *qush* so`zlarini metaforik ma`noda qo`llagan:

Qush ham sayrardi ko`b sevinch bilan

Gul butog`ida o`tli un chekib.

Shoir she`riyati tilidagi xususiy (individual) metaforalar sifatida quyidagilarni aytib o`tish mumkin:

eski yo`l: Shuning uchun-da har bir eski yo`l

Yoshlar ko`ziga yomon ko`rinur.

Mazkur she`r parchasi shoirning “Yoshliq” she`ridan olingan bo`lib, unda “eski yo`l” birikmasi metaforik ma`no anglatadi. Ayonki, yo`l so`zining o`z lug`aviy ma`nosi “kishilar yoki transport qatnashi uchun belgilangan uzun er bo`lagi” dir. U ushbu she`rda “g`oyaviy yo`nalish; dunyoqarash, maslak” ko`chma ma`nosida qo`llanilgan. Shoir aytmoqchi, jamiyat taraqqiyotiga g`ov bo`lib kelgan avvalgi g`oyaviy fikr va yo`nalishlar davr yoshlari ko`ziga yomon ko`rinadi.

Alohida ta`kidlash joizki, shoir she`riyati tilida *yo`l* so`zining metaforik ma`noda qo`llanishi ko`p uchraydi: *yangi yo`l*, *eski yo`l* kabi. U jamiyat hayotidagi yangilik va eskilik sifatlarini mazkur so`zlar vositasida berishga uringan.

eshik:

Biz uchun berkli tutilg`on ul eshik bul kun ochiq.

Bizga yo`ldosh qayg`uli kunlar bu kun bizdan qochiq.

---

<sup>34</sup> Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. -Т.: Фан, 2005. –Б. 104.

Eshik soʻzining oʻz lugʻaviy maʼnosi “uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida oʻrnatilgan ochib yopib turiladigan moslama”dir. Uni shoir “maʼlum maqsadga boshlovchi, yoʻl ochib beruvchi boʻsagʻa” koʻchma maʼnoda qoʻllagan.

jonivor:

Hoy uyatsiz jonivorlar, ikki yuzli qarolar,  
Sizdan emasmi bizga bunday balolar.

Jonivor – jon egasi, tirik jon, tirik organizm (oʻsimliklardan boshqasi). Shoir sheʼrida u metaforik maʼnoda, yaʼni “odam, maxluq” maʼnosida kelgan. Mazkur parcha shoirning “Tekinxoʻrlargʻa” sheʼridan. Anglashiladiki, shoir tekinoxoʻr, uyatsiz odamlarni “jonivorlar” soʻzi bilan ifodalagan.

chechak:

Hoy soʻlgʻin chechak,  
Oʻksuz kelinchak.

Chechak – tabiiy ravishda oʻsadigan gulli oʻsimlik; gul . Shoir uni “qiz, kelinchak” koʻchma maʼnosida qoʻllagan. Sheʼrda chechak bilan pechak obrazlari oʻrtasidagi munosabat tasvirlangan. Shoir pechak soʻzini keltirar ekan, uni “umumiy maʼnoda anglashilmasun,” deb izohlaydi. Ayonki, chechak soʻzining lugʻaviy maʼnosi “oʻsimlik tanasiga va boshqa narsalarga chirmashib oʻsadigan bir yillik oʻsimlik; chirmoviq”dir. Unda boshqa oʻsimliklar tanasiga chirmashib, ularning hisobiga yashash, ularga zarar etkazish, yovvoyilik xususiyati mujassam.

Shoir pechak obrazi orqali ayrim erlarning oʻz xotinlari hayotiga zomin boʻlganliklarini ifodalagan. Xotin-qizlar ozodligi, teng huquqligi masalalari dolzarb boʻlib turgan ijtimoiy – siyosiy davrda mazkur masala mavzusiga oid qator sheʼrlar yozgan adib yuqoridagi kabi metaforik koʻchimlardan mohirlik bilan foydalangan.

Maʼlumki, jonlantirish metaforaning bir turi boʻlib, unda «jonsiz yoki mavhum narsalarda insonga xos xususiyatlarni, yaʼni jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, soʻzlaydigan qilib tasvirlanadi»<sup>35</sup>. Jonlantirish badiiy tasvir usullari orasida muhim oʻrin tutadi. U eng qadimgi tasvir

<sup>35</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 214.

usullaridan biri bo`lib, xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotda bu usuldan keng foydalanilgan. Mumtoz adabiyotda jonsiz predmetlarni inson uchun xarakterli holatga keltirish tashxis deb yuritiladi. Tashxis (jonlantirish) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko`chirish san`atidir<sup>36</sup>.

Elbekning quyidagi she`rida insonning kulish xususiyati quyoshga ko`chirilgan:

Shu choq ko`rindi sekin, ezgu qutli, nurli quyosh,  
Ochunga soldi ko`zin, bolqunib-da kuldi yuvosh.

Shoirning “Tonggi uyg`oqliq” she`rida esa insonning iljayish xususiyati yulduzga ko`chirilgan:

Ko`kning nurli yulduzlari birma-bir...  
Sezdirmaslik uchun bir oz iljayar!

Elbekning tabiat manzaralari tasviriga oid juda ko`plab she`rlarida jonlantirish shoirning o`z ko`nglidagi his-tuyg`u va fikrlarni aytishda muhim vosita bo`lgan.

Shoirning “Ko`klam chog`ida yaproqlar” she`rida kelajakka umid bilan qarash, tushkunlikka aslo tushmaslik fikri yaproq obrazi orqali berilgan. Unda yaproq ko`klam chog`ida insonga o`xshab jilmayadi, quvonadi, yayraydi:

Ko`kargan yaproqlar og`ochlar uzra,  
Jilmayib, quvonib, yayrab tururlar.

Shoirning “Tutqun qushcha” she`rida erk, ozodlik g`oyalari qushcha obrazi timsolida berilgan. She`rda oltindan to`qilgan tor qafasdagi qushchaning tutqinlikdagi holati, uning erkinlik istab qilgan xatti-harakatlari tasvirlangan:

Yotardi bir qushcha doim qayg`uda,  
Yig`lardi ko`b vaqt, tinmayin o`ksib.

Ayonki, yotish, qayg`urish, yig`lash, o`ksimoq (afsuslanmoq) insonga xos. She`rda bu xususiyatlar qushchaga ko`chirilgan. Quyidagi she`r parchasida ham shu holatni kuzatish mumkin:

Oy ham mudrab, ko`zin suzib, uyqusirab

---

<sup>36</sup> Ҳоҷиаҳмедов А.Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. -Т.: Шарк, 1998. –Б. 38-40.

Yotog`iga allaqachon yotgan edi.

Mudrash, ko`zni suzish, uyqusirash insonga xos harakat, buning oy tomonidan amalga oshirilishi ma`no ko`chishiga olib kelgan.

Ko`chimlarning badiiy nutqda ishlatilishi ifodalilikni, ta`sirchanlikni oshirishga, tasvirlanayotgan voqea-hodisani ravshanroq baholashga yordam beradi. Elbek she`riyati tilida quyidagi an`anaviy (umumiy) metaforalar qo`llanilgan:

**Bo`ri:** Kecha-kunduz “ov” axtarib yurgan u och **bo`rilar**,

Seni qo`lga tushirgusi, tushirmaguncha qo`ymas.

Ma`lumki, bo`ri so`zi majozan “yovuz, zolim, qonxo`r odam” ma`nosini ifodalaydi. Shoir uni shu ma`noda qo`llagan.

**Arslon:** Shuning uchun, ey chinliqning qurboni,

Ey kishilik dunyosining **arsloni**.

Arslon – mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher. Shoir arslon so`zini she`rida “bahodir, zabardast, dovyurak” ko`chma ma`noda qo`llagan.

**Sher:** Ammo, sizlarkim, kurashchi erlar,

O`limdan qaytmas qahramon **sherlar**.

Sher so`zi bilan arslon so`zining o`z lug`aviy ma`nosi aynan bir xil (qar: O`TIL, II, 407-b.). Mazkur so`zni shoir “azamat. polvon; har jihatdan etuk, zo`r, baquvvat; qo`rqmas, botir kishilar” ko`chma ma`nosida qo`llagan.

Shoir she`riyati tilidagi xususiy (individual) metaforalar sifatida quyidagilarni aytib o`tish mumkin:

**Eski yo`l:** Shuning uchun-da har bir **eski yo`l**

Yoshlar ko`ziga yomon ko`rinur.

Mazkur she`r parchasi shoirning “Yoshliq” she`ridan olingan bo`lib, unda “eski yo`l” birikmasi metaforik ma`no anglatadi. Ayonki, yo`l so`zining o`z lug`aviy ma`nosi “kishilar yoki transport qatnashi uchun belgilangan uzun er bo`lagi” dir. U ushbu she`rda “g`oyaviy yo`nalish; dunyoqarash, maslak” ko`chma ma`nosida qo`llanilgan. Shoir aytmoqchi, jamiyat taraqqiyotiga g`ov bo`lib kelgan

har qanday avvalgi g'oyaviy yo'nalishlar davr yoshlari ko'ziga yomon ko'rinadi. Alohida ta'kidlash joyizki, shoir she'riyati tilida yo'l so'zining metaforik ma'noda qo'llanishi ko'p uchraydi: yangi yo'l, eski yo'l kabi. Elbek jamiyat hayotidagi yangilik va eskilik sifatlarini mazkur so'zlar vositasida berishga uringan.

**Eshik:** Biz uchun berkli tutilg'on ul **eshik** bul kun ochiq.

Bizga yo'ldosh qayg'uli kunlar bu kun bizdan qochiq.

Eshik so'zining o'z lug'aviy ma'nosi "uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib yopib turiladigan moslama"dir. Uni shoir "ma'lum maqsadga boshlovchi, yo'l ochib beruvchi bo'sag'a" ko'chma ma'noda qo'llagan.

**Jonivor:** Hoy uyatsiz **jonivorlar**, ikki yuzli qarolar,

Sizdan emasmi bizga bunday balolar.

Jonivor – jon egasi, tirik jon, tirik organizm (o'simliklardan boshqasi). Shoir she'rida u metaforik ma'noda, ya'ni "odam, maxluq" ma'nosida kelgan. Anglashiladiki, tekinxo'r, uyatsiz odamlarni shoir "jonivorlar" so'zi bilan ifodalagan.

**Chechak:** Hoy so'lg'in **chechak**

O'ksuz kelinchak.

Chechak – tabiiy ravishda o'sadigan gulli o'simlik; gul . Shoir uni "qiz, kelinchak" ko'chma ma'nosida qo'llagan. She'rda chechak bilan pechak obrazlari o'rtasidagi munosabat tasvirlangan. Shoir pechak so'zini keltirar ekan, uni "umumiy ma'noda anglashilmasun" deb izohlaydi. Ayonki, pechak so'zining lug'aviy ma'nosi "o'simlik tanasiga va boshqa narsalarga chirmashib o'sadigan bir yillik o'simlik; chirmoviq"dir. Unda boshqa o'simliklar tanasiga chirmashib, ularning hisobiga yashash, ularga zarar etkazish, yovvoyilik xususiyati mujassam. Shoir pechak obrazi orqali ayrim erlarning o'z xotinlari hayotiga zomin bo'lganliklarini ifodalagan. Xotin-qizlar ozodligi, teng huquqligi masalalari dolzarb bo'lib turgan ijtimoiy – siyosiy davrda Elbek mazkur masala mavzusiga oid qator she'rlar yozgan. Ularda yuqoridagi kabi metaforik ko'chimlardan mohirlik bilan foydalangan.

Jonlantirish metaforaning bir turi bo`lib, “jonsiz yoki mavhum narsalarda insonga xos xususiyatlarni, ya`ni jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan fikrlaydigan, so`zlaydigan qilib tasvirlashdir”(3,214-bet). Jonlantirish badiiy tasvir usullari orasida muhim o`rin tutadi. U eng qadimgi tasvir usullaridan biri bo`lib, xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotda bu usuldan keng foydalanilgan. Mumtoz adabiyotda jonsiz predmetlarni inson uchun xarakterli holatga keltirish tashxis deb yuritiladi. Tashxis (jonlantirish) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko`chirish san`atidir. Elbekning quyidagi she`rida insonning kulish xususiyati quyoshga ko`chirilgan:

Shu choq ko`rindi sekin, ezgu qutli, nurli **quyosh**,

Ochunga soldi ko`zin, bolqunib-da **kuldi** yuvosh.

Shoirning “Tonggi uyg`oqliq” she`rida esa insonning iljayish xususiyati yulduzga ko`chirilgan:

Ko`kning nurli **yulduzlari** birma-bir...

Sezdirmaslik uchun bir oz **iljayar**!

Elbekning tabiat manzaralari tasviriga oid juda ko`plab she`rlarida jonlantirish shoirning ko`nglidagi his-tuyg`u, fikrlarni aytishda muhim vosita bo`lgan. Shoirning “Ko`klam chog`ida yaproqlar” she`rida kelajakka umid bilan qarash, tushkunlikka aslo tushmaslik fikri yaproq obrazi orqali berilgan. Unda yaproq ko`klam chog`ida insonga o`xshab jilmayadi, quvonadi, yayraydi:

Ko`kargan **yaproqlar** og`ochlar uzra

**Jilmayib, quvonib yayrab** tururlar.

Shoirning “Tutqun quncha” she`rida erk, ozodlik g`oyalari qushcha obrazi timsolida berilgan. She`rda oltindan to`qilgan tor qafasdagi qushchaning tutqinlikdagi holati, uning erkinlik istab qilgan hatti-harakatlari tasvirlangan:

**Yotardi** bir **qushcha** doim **qayg`uda**,

**Yig`lardi** ko`b vaqt, tinmayin o`ksib.

Ayonki, yotish, qayg`urish, yig`lash, o`ksimoq (afsuslanmoq) insonga xos. She`rda bu xususiyatlar qushchaga ko`chirilgan. Quyidagi she`r parchasida ham shu holatni kuzatish mumkin:

## Oy ham mudrab, ko`zin suzib, uyqusirab

Yotog`iga allaqachon yotgan edi.

Mudrash, ko`zni suzish, uyqusirash insonga xos harakat, buning oy tomonidan amalga oshirilishi ma`no ko`chishiga olib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Elbek metaforalarning lisoniy-badiiy xususiyatlari va imkoniyatlarini teran anglagan, ulardan o`z o`rnida foydalanib, estetik qiymati yuqori bo`lgan she`riyat namunalarini yaratishga muvafaq bo`lgan. Uning asarlarida ifodalangan metaforalar o`zining ta`sirchanligi, betakrorligi, jozibadorligi va kuchli obrazlilik bilan alohida ajralib turadi.

Badiiy asarning ta`sirchanligini, asosan, unda qo`llanilgan badiiy tasvir vositalari ta`minlaydi. Ularsiz badiiy asar ta`sirsiz, quruq va zerikarli bo`ladi. Chunki kitobxon uchun asarda qalamga olingan voqealargina muhim emas. Balki, voqealar qanday ifodalangani ahamiyatlidir. Yozuvchining mahorati badiiy tasvir vositalarini qay darajada ishlata olishiga bog`liq bo`ladi. Shuni aytish joizki, har qanday o`xshatishning lingvopoetik asosini o`xshatish etaloni (ya`ni, asosga xos xususiyatlarining ramziy mujassami) tashkil qiladi. O`xshatishning poetik qimmatini ham ana shu o`xshatish etaloni belgilaydi. Elbek asarlarini o`qiganda shu narsaga amin yoki ishonch hosil qilish mumkinki, shoir bu holatni to`liq va aniq tasavvur qilgan, shuning uchun ham u o`xshatishlarga murojaat qilar ekan, zukko kuzatuvchi sifatida behad muvofiq va yangi o`xshatish etalonlarini qo`llaydi. Elbek asarlarida o`xshatish etaloni unsurlari to`g`ri tanlangan. Masalan, shoirning 1919 -yilda yozgan «Ko`z yoshlarim» she`riga e`tibor qarataylik:

Qorong`u kun, qora bir tun kabi edi bu ochun,

So`nilg`on erdi «yoniq»lar u kech ichinda butun.

She`r mazmunidan anglashiladiki, «ochun» (dunyo, olam) tunga, qop-qora tunga o`xshatilmoqda. Shoir o`z davridagi hayotni qorong`u tunga o`xshatgan. Ma`lumki, tun qorong`u bo`lishi mumkin, biroq kunnig qorong`u bo`lishi kutilmagan hodisadir. *Kun* va *tun* so`zlari vositasida shoir jamiyat hayotini ifodalashga harakat qilgan. Ikkinchi qatordagi «So`nilg`on erdi «yoniq»lar» jumlasini buni aniq ko`rsatib turibdi. «Yoniqlar» so`zi bu o`rinda *davrning ziyolilari*,

*jamiyatning fidoyilari* ma`nosida qo`llanilgan. Odatda o`xshatish tabiatda mavjud bo`lgan yoki bor deb tasavvur qilinadigan narsa va hodisalarni bir-biriga kiyoslash asosida vujudga keladi. Ulardan biri orkali ikkinchisining belgisini, moxiyatini, to`larok, bo`rttiribroq ko`rsatib berishdir. O`zbek tilida o`xshatish munosabatini ifodalovchi *kabi, singari, yanglig`, go`yo, xuddi, bamisoli, misli, misoli, baayni* kabi yordamchi so`zlar mavjud. Ular yordamida o`xshatish munosabatini ifodalaganda etalonlarga alohida urg`u berish imkoniyati vujudga keladi. Natijada badiiylilik, ixcham obrazlilik kuchayadi. Aytilganidek, o`xshatishlar tasvirning jonli, jozibali va ta`sirchan chiqishida muhim stilistik vositadir. Shoirning «Qalbim» she`rida xayol kapalakka qiyoslangan:

Xayolim qo`limdan kapalak kabi

Uchqinib yo`qoldi, bilmadim, qayg`a?

Ushbu she`riy parchada o`xshatish etaloni *kapalak*. bo`lib, o`xshatish sub`ekti esa *xayoldir*. Kapalakning uchishini xayolan tasavvur etsak, shoir bu o`rinda o`xshatish etalonini to`g`ri belgilaganligiga amin bo`lamiz. Shoirning o`xshatishlarida asos etakchi uzv bo`lib, ular, asosan, otlar, otlashgan so`zlar (*kiyik, qarg`a, ilon, oy, quyosh el, bog` kabilar*) bilan ifodalangan.

Elbek asarlarida o`zbek tili bulbulga («*Bulbul kabi sayrab turg`on turk tili*»), yoshlik dengizga («*Yoshlik dengizday qāynab toshadir*»), oppoq bulutlar oqqushlarga («*Oqqushlar kabi tizilib uchg`on oppoq bulutlar*»), quyosh onaga («*Quyosh ona kabi bag`rin ochib, uni sevib boqar edi*») o`xshatilgan. Bu kaabi o`xshatishlar shoir asarlarida ko`plab uchraydi. Ular badiiy nutqning ta`sirchanligini ta`minlagan, fikrning aniq va yorqin ifodalanishiga xizmat qilgan.

Shoir she`riyatidagi metaforalar, asosan, ot, sifat va fe`l so`z turkumi bilan ifodalangan. Ot metaforalarni mavzular bo`yicha quyidagicha guruhlash mumkin:

- osmon jismlarining nomi: yulduz, quyosh, oy kabilar;
- o`simlik nomlari: gul, // chechak, lola, boychechak, binafsha kabilar;
- jonivorlarning nomi: qush, bulbul, sher kabilar;
- fasl va payt tushunchalarining nomi: kuz, qish bahor// ko`klam, tong

kabilar;

- joy nomlari: er, ko`k (osmon), ko`cha va boshqalar;
- turli narsa, qurollarning nomi: qilich, nayza, kafan va boshqalar;
- mavhum tushunchalarning nomi: malak, pari, jon, farishta, haqiqat, ishq va boshqalar;
- odam a`zolarining nomi: ko`z, qo`l, yuz, bet, tana va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, Elbek metaforalarning lisoniy-badiiy xususiyatlari va imkoniyatlarini teran anglagan, ulardan o`z o`rnida foydalanib, estetik qiymati yuqori bo`lgan she`riyat namunalarini yaratishga muvafaq bo`lgan. Uning asarlarida ifodalangan metaforalar o`zining ta`sirchanligi, betakrorligi, jozibadorligi va kuchli obrazlilik bilan alohida ajralib turadi.

### **3.2. Metonimiyalar va ularning lingvopoetikasi**

Ma`no ko`chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonimiya (gr.-"o`zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") usulida ma`no ko`chganida narsa-hodisalar o`rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ("stadion hayqirdi", "butun shahar qatnashdi"), vaqt ("og`ir kun", "omadli yil"); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita ("achchiq til"); narsa va uning egasi, yaratuvchisi ("Fuzuliyni o`qimoq"); narsa va u yasalgan modda, xom-ashyo ("barmoqlari to`la tilla"); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi("ko`z yummoq") kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur etakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o`zining estetik funkstiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo`lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo`llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo`nda va ta`sirli ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun A.Oripovning "Bahor" she`ridan olingan "Qaydadir yurtini eslab ingrar nay" satrini olib ko`raylik. Cholg`u asbobi orqali kuy ma`nosining berilishi — metonimiya,

biroq u "ingrar" metaforasi bilan qo`shilib kuchli badiiy samara beradi. Yoki "Faryod chekkanim yo`q el ichra taqir, O`ch ham olganim yo`q na qalamimdan" satrlarida ham yana vosita orqali jarayon nazarda tutiladi va u ham "o`ch olmoq" metaforasi bilan baqamti qo`llanadi. Bu ikkisi birlikda esa "butun vujudim bilan ijodga berilib g`amlarimni unutishga harakat qilmadim" degan ma`noni beradi va, muhimi, shu mazmunni obrazli, ta`sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi misollarda vosita-harakat aloqasi asosidagi ko`chimni ko`rgan bo`lsak, U.Azimning: "Ko`zlarini ochib-yumar Mitti qushcha - yarador. Falak, unga najot yubor, O`lim, bo`lma xaridor",- satrlarida joy metonimiyasini ko`ramiz. Zero, bundagi "falak" so`zi tafakkurimizda o`rinlashgan ishonch asosida "yaratgan"ni anglatadi. Yoki yana shu shoirning "Sen nimani ko`ribsan, ey, Rim?" satrida ham joy nomi orqali unda yashovchilar ma`nosi ifodalanadi<sup>37</sup>.

Metonimiya badiiy tasviriy vositalardan biri bo`lib, unga xos xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

- metonimiya predmet yoki hodisalarning makon va zamondagi o`zaro doimiy bog`lanishlari asosida birining nomini ikkinchisiga ko`chirishdir. Bunda bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida na tashqi, na ichki o`xshashlik (umumiy belgi) bo`lmaydi, balki ular orasida doimiy real aloqaning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi;

- metonimiya so`zlarning ko`chma ma`nosiga asoslanadigan ko`chim (trop)ning asosiy turlaridan biri: ikki tushuncha o`rtasidagi yaqinlikka asoslangan o`xshashsiz ko`chim. Metonimiyada tashqi ko`rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador bo`lgan, lekin bir-biriga o`xshamagan predmet belgilari chog`ishtiriladi.<sup>1</sup>

---

<sup>37</sup> Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. –Б. 95-97.

<sup>1</sup> Бу хусусда қаранг: Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1975. –Б. 22-23; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 182-183; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Т.: Фан, 1997.; Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1975; Рябцова Э.Г. Лингвистическая природа и стилистические функции метонимических тропов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Л.: 1973; Каримов С.А. Шоира Зулфия поэзияси тилида метонимиялар / Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд: 1980. –Б. 33.

Anglashiladiki, metonimiya o`zaro aloqadorlikka, yaqinlikka asoslangan ma`no ko`chishi bo`lib, u biror narsa yoki tushuncha o`rniga ikkinchisini qo`llash hodisasi sanaladi. U umuman tilga xos hodisa bo`lib, badiiy nutqda ifodalilikni, ta`sirchanlikni oshirishga tasvirlanayotgan voqea-hodisani teran baholashga yordam beradi. Badiiy adabiyot namunalaridagi metonimiyalarni semantik mohiyat va vazifaviy – uslubiy xususiyatlariga ko`ra ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin:

- uzual metonimiyalar;
- kontekstual metonimiyalar.<sup>1</sup>

Uzual (lingvistik) metonimiyalarning o`ziga xos jihati shundaki, ular avvaldan tilda tayyor holda mavjud bo`ladi. Bunda o`zaro yaqin, aloqador tushuncha yoki narsa nomining biri o`rnida ikkinchisi qo`llaniladi. Mazkur guruhga kiruvchi metonim so`zlar badiiy adabiyotda obrazlilikni yuzaga keltirish va fikrni siqiq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularda emostional ta`sir kuchi deyarli bo`lmaydi. Ijodkorning ijobiy yoki salbiy munosabati o`z ifodasini topmaganligi uchun bunday so`zlar uslubiy bo`yoqqa ega emas.

Metonimiyaning mazkur guruhiga oid lug`aviy birliklar Elbek she`riyati tilida ko`plab uchraydi. Chunonchi, **uning**

Bir ozgina choy ichishib, dam olib,

Yana o`sha og`ir ishga tusharlar

baytidagi «choy» so`zi metonimik holatda qo`llanilgan. Misoldagi xitoy tiliga tegishli ushbu so`z asli «bargi damlab ichiladigan janubiy o`lkalarda o`suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta»ni anglatadi, bu o`rinda esa u «shu o`simlikning maxsus ishlangan barglaridan damlangan xushbo`y ichimlik» ma`nosida qo`llanilgan. Ular orasida aloqadorlik va yaqinlik tushunchasi mavjudligi bois birining nomi ikkinchisiga ko`chirilgan. Yuqorida ta`kidlanganidek, bu kabi metonim so`zlar avvaldan tilda tayyor holda mavjuddir.

---

<sup>1</sup> Каримов С.А. Шоира Зулфия поэзияси тилида метонимиялар / Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд: 1980. –Б. 33.

Kontekstual (matniy) metonimiyalar uzual (lingvistik) metonimiyalardan tasviriylilik, ekspressivlik, uslubiy buyoqning mavjudligi jihatidan farqlanadi va uning uslubiy mohiyat-mazmuni matndan anglashiladi. Chunonchi, Elbekning «Ketganingdagi» she`ridagi

Sen ketding, barcha jahon jim

Yer yutsa yaxshi shu choqda

baytda genetik manbai forsha-tojikcha bo`lgan «jahon» so`zi «er yuzi va undagi butun borlik dunyo olam» asliy ma`noda qo`llanilmaganini anglash u qadar qiyin emas. Shoir mazkur so`zni poeziyada faol ishlatiladigan «dunyodagi hamma xalqlar, butun insoniyat» ko`chma ma`nosida, ya`ni metonimik ma`noda qo`llagan. Bu holat she`r ta`sirchanligini oshirishga, unda obrazlilikni yuzaga keltirishga yordam bergan. She`rning umumiy matni va mazmunidan kelib chiqilsa, «jahon» metonimik so`zining semantik-uslubiy ma`nosi yana ham oydinlashadi.

Iste`dodli shoir Elbek *choy* metonimik so`zdan keng foydalangan. Masalan:

Yutganim ko`k **choy**ning yarmisi sovib,

Qoldi og`zim ichra o`tmay to`xtalib.

Aytilganidek, xitoy tilidan o`zlashgan choy so`zi “Janubiy o`lkalarda o`suvchi doimiy yashil buta daraxti” (O`TIL, II, 376-b.) ma`nosini ifodalaydi. Shu o`simlikning maxsus ishlangan barglaridan damlangan xushbo`y ichimlik nomi ham choy so`zi bilan ataladi. Ular o`rtasida o`zaro aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlik buta daraxti va uning barglaridan maxsus tayyorlab ichiladigan ichimlik o`rtasida hosil bo`lgan. Mazkur baytdagi “choy” so`zi metonimik hodisa bo`lib, narsaning nomi shu predmetdan hosil bo`ladigan predmetga ko`chirilgan: choy (o`simlik) – choy (ichimlik).

Qishlog`im, seni men ortiq suyaman,

Sen mening birinchi hayot **bashigim**.

Bolaning tug`ilishidan so`ng o`sib-ulg`ayishi, tarbiyasining boshlang`ich, dastlabki o`rni beshikdir. Shunga ko`ra, biror voqea-hodisaning yuzaga kelgan,

tariyalanib ulg`aygan bosh o`rni beshik so`zi bilan ataladi.<sup>38</sup> Elbekning mazkur she`rida ham beshik so`zi vositasida voqea-hodisaning tug`ilgan eri, ya`ni qishloq, kengroq ma`noda ifodallasak vatan tushunchasi o`rtasida ma`lum umumiylik, aloqadorlikka ega.

Mana shunday choqda, o`ksuz, bir yoziqsiz yosh bola,  
Ovloqdagi buzqlikda ingrab-ingrab yig`lardi.

*Ovloq* so`zi dastlab *ov qilinadigan* joyni bildirgan. Ma`lumki, ov qilinadigan joy aholi yashaydigan joydan chetda xilvatda bo`ladi. Demak, bunda “chetlik”, “xilvatlik” belgisi bor. Xuddi shu belgi asosida *ovloq* so`zi “aholi yashaydigan joydan, insondan chet, pana joy”ni ifodalash uchun qo`llanadigan bo`lgan, shunday joyning atamasiga aylangan.<sup>2</sup> She`rda qo`llangan *ovloq* so`zi *ov* so`zi bilan bevosita aloqador bo`lib, ular o`zaro umumiylik xususiyatiga ega.

Molni olg`on men emasman, Noryigit deb,  
O`g`rulikni ul **bo`ynig`a** sen to`nkasang.

Umumturkiy bo`yin so`zining lug`aviy ma`nosi “gavdaning bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi” (O`TIL, I, 159-b.)dir. Azaldan og`ir yuklar bo`yinda tashilgan, asosiy og`irlik tananing shu qismiga tushgan. Demak, bo`yinda “og`irlikni ko`tarish” belgisi bor. Xuddi shu asosda bo`yin so`zining ma`nosi kengayib, u o`zida yana bir qancha ko`chma ma`noli birikmalarni hosil qilgan. Masalan, bo`yniga olmoq (o`z ustiga, zimmasiga olmoq ma`nosida), bo`yniga qo`ymoq (gardaniga, zimmasiga, ustiga yuklamoq ma`nosida) va boshqalar.

Elbek qo`llagan “bo`ynig`a to`nka(moq)” birikmasida “o`g`rilik aybini Noryigit zimmasiga yuklamoq” ma`nosi anglashiladi. Og`irlikni ko`tarish xususiyatiga ko`ra ma`no ko`chishi yuz bergan.

Aniq-ravshan yaqinirki, bu och cho`l  
O`z bag`rida **millionlarni** boqajak.

Yuqorida aytilganidek, sonlar o`zicha nominativ vazifa bajarmaydi, lekin ular otlashsa bu vazifaga ega bo`ladi. Mazkur baytdagi «millionlar» so`zi son –

<sup>38</sup> Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981. –Б. 225.

<sup>2</sup> Ўша асар, 224-бет.

metonimiya bo`lib, u bog`lanishi lozim bo`lgan ot tushib qolgan, natijada mazkur sanoq son otlashgan.

Kuldi dunyo, keldi shodliq barchamizga bus-butun

“Dunyo” so`zi she`rda metonimik ma`noda, ya`ni “yer yuzidagi barcha odamlar” ko`chma ma`nosida qo`llanilgan. Dunyo insonlar yashaydigan hayotga bevosita aloqador.

Mana shul choq bizning qishloq tinchgina,

Kirishadir biz qaytg`uncha uxlarga.

Baytda “qishloq” so`zi “qishloq kishilari, aholisi” ko`chma ma`nosida qo`llanilgan.

Yo buyuk tog`lar to`y qilishdimi,

To`yga siznida chaqirishdimi?

“To`y” so`zi she`rda metonomik ma`no kasb etgan bo`lib, harakatning nomi shu harakat natijasida hosil bo`ladigan hodisaga ko`chirilgan. Buni Cho`lpon she`rlari tahlilida aytib o`tgan edik. To`y(moq) – “eb-ichib, rizqlanib o`zining ovqatga bo`lgan talabini qondirmoq” (O`TIL, II, 244-b.) Shu hodisa asosida yuzaga kelgan to`y so`zining lug`aviy ma`nosi esa “bazzom-tomoshalar bilan ziyofat berib o`tkaziladigan ba`zi marosimlarning umumiy nomi” (O`TIL, II, 243-b)dir.

Bir maqol bor o`zbekda, unda o`zbek bunday der:

“Chigirtkalar ekin er, ekmay-tikmay tekin er.”

“O`zbek xalqi” ma`nosi shu xalqni ifodalovchi nomga ko`chirilgan. Ular, ya`ni o`zbek va xalq o`rtasida doimiy, mantiqiy aloqadorlik mavjud.

Shabparralar erkli umr surishga

Eng osig`li, eng yoqimli bir tun emish!

Shuning uchun bu quyoshga qarshi bular.

“Quyosh” so`zining lug`aviy ma`nosi “oftobning nuri, yorug`lik; oftob, kun tushib turgan joy, oftob” (O`TIL, II, 613-b.) bo`lib, u she`riy parchada tun so`ziga zid ma`noda ifodalangan. “Quyosh” so`zi metonimik, ya`ni “kunduz” ko`chma ma`noda qo`llanilgan. Bunda shoir “Quyosh” va “kunduz” tushunchalarining o`zaro aloqadorlik belgi-xususiyatlariga asoslangan. Mazkur metonimik hodisani

she`ning umumiy ma`no va mazmunidan kelib chiqib anglash mumkin. Shoirning “Shabparralar qarori” masalida keltirilgan mazkur masalida ko`rshapalaklar bir vayronada yig`ilib, kengash o`tkazadilar. Yaxshi hayot kechirishlari uchun tunning qulayligini aytib, kunduzni qoralashadi. Shoir shu o`rinda kunduz so`zidan emas, balki, she`riga badiiy ruh berish uchun “quyosh” so`zidan foydalanadi. Bu esa o`z navbatida she`r ta`sirchanligini oshirishga asos bo`lgan. Endi diqqatimizni shoir asarlaridagi sinekdoxalar va ularning uslubiy-badiiy xususiyatlarini tahlil etishga qaratamiz.

### 3.3. Cinekdoxalar va ularning uslubiy-badiiy xususiyatlari

Yuqorida aytib o`tilganidek, sinekdoxa ko`chimning asosiy turlaridan biri bo`lib, unda bir qism yoki bo`lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha, butun hodisa orqali ayrim bo`lak haqida fikr yuritiladi. Masalan,

Har **eshik**da uyalmay tentirab,

Qorni uchun tilanadi boshlar

she`rida shunday holatni kuzatish mumkin. Ayonki, ayrim o`zbek dialektlarida, chunonchi, Farg`ona shevalarida eshik “uy, hovli, bino yoki hovlining kiraverishida o`rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama” ma`nosidan tashqari “hovli, uy-joy; xonadon” (O`TIL, II, 457-b.) ma`nosida ham qo`llaniladi.

Mazkur she`rda shoir eshik so`zini aynan shu ma`noda qo`llagan. Anglashiladiki, qism (eshik) orqali butun (uy, hovli) ma`nosi ifodalangan. Narsa o`rtasida aloqadorlik yuz bergan.

Elbekning quyidagi she`riga e`tibor qarataylik:

Kichgina, mitti, murg`ak chog`idan

Ko`p **eshiklar** ko`rdi, bo`ldi u qarol.

She`rda qo`llangan “eshiklar” so`zi sinekdoxaning go`zal namunasidir.

Ko`chma ma`no hosil qiluvchi sinekdoxa xususida tilshunoslikda turlicha talqin va tasniflar mavjud. Bir guruh tilshunoslar uni metonimiyaning bir ko`rinishi

sifatida belgilashsa, boshqa bir guruh olimlar uni ko`chma ma`no hosil qiluvchi alohida ko`chim turi deb qayd etadi.

Rus tilshunoslari L.A.Buloxovskiy<sup>39</sup>, D.N.Shmelev<sup>40</sup>, o`zbek tilshunosi O.Azimov<sup>41</sup> kabilar sinekdoxani metonimiyaning bir ko`rinishidan iborat ko`chim sifatida tasniflashgan .

Franstuz tilshunosi J.Maruzo<sup>42</sup>, rus tilshunosi A.A.Reformatskiy<sup>43</sup>, o`zbek tilshunosi M.Mirtojiyev<sup>44</sup> kabilar esa sinekdoxani alohida ko`chim turi tarzida talqin etishgan.

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan tahliliy ishlar natijasiga asoslanib shuni aytib o`tish kerakki, sinekdoxa metonimiyaning bir ko`rinishi emas, balki alohida ko`chim turidir. Buni quyidagi fikrlar asosida dalillashga harakat qilamiz:

1. Metonimiyada o`xshagan bilan o`xshatilgan alohida ikki narsa, voqelik, harakat, holat, belgidan iborat bo`lsa, sinekdoxada o`xshagan bilan o`xshatilgan mutloqo bir narsa, ularning biri ikkinchisining tarkibiy qismi bo`ladi.

2. Metonimiyada ma`no ko`chishi o`xshagan bilan o`xshatilgan o`rtasidagi aloqadorlik natijasi bo`lsa, sinekdoxada ma`no ko`chishi butun va uning bo`lagi mantiqiy yaxlit tushunilishining hosilasi bo`ladi. Yangi ma`no ko`chishi metonimiyada ob`ektlarning o`zaro aloqadorlik belgisiga qarab nomlashdan kelib chiqqan bo`lsa, sinekdoxada ob`ektlarning biri ikkinchisiga asosiy belgidan iborat qism bo`lishiga asoslanib nomlashdan kelib chiqqan bo`ladi.

3. Metonimiyada o`xshagan bilan o`xshatilgan xususiy jihatdan bir xil ham, turli xil ham bo`lishi mumkin. Sinekdoxada esa o`xshagan va o`xshatilgan ning biri butun, ikkinchisi, albatta, uning qismi bo`lishi shart. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, metonimiya va sinekdoxada asos ob`ekt bilan unga aloqador ob`ekt o`rtasidagi munosabatlar bir-biriga mutloqo o`xshamaydi. Ko`chma ma`no hosil qiluvchi mazkur ko`chimlar bir-biriga mantiqan bog`liq bo`lmagan o`ziga xos

---

<sup>39</sup> Булоховский Л.А. Введение в языкознание. -М.: Наука, 1954. -Стр. 60.

<sup>40</sup> Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. -М.: Наука, 1964. -Стр. 65.

<sup>41</sup> Азизов О. Тилшуносликка кириш. -Т.: Ўқитувчи, 1963. -Б. 63.

<sup>42</sup> Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. -М.,Наука, 1960.

<sup>43</sup> Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М.: Наука, 1967. -Стр.54-60.

<sup>44</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Т.: Фан, 1975. -Б. 56-57.

hodalardir. Sinekdoxa ma`no ko`chish hodisasining alohida bir turi sifatida belgilanishi va talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Shoir she`rlari tilining o`ziga xos xususiyati shundaki, ularda odam tana a`zolari, xususan, oyoq va qo`l so`zlari aksariyat o`rinlarda sinekdoxani yuzaga keltirgan. Shunga doir ayrim misollarni quyida keltirib o`tamiz:

Biz yo`qsullar boshqalarga qul bo`lib,

Chet oyoqlar tovonida ezildik.

Mazkur she`rda odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o`rmlashi uchun xizmat etadigan a`zo – “oyoq” so`zi sinekdoxani hosil qilgan. “Oyoqlar tovon” birikmasida “oyoq”ning qismi hisoblangan “tovon” so`zi butunning qismi sifatida qo`llangan. Tovu oyoqning bir qismi. “Oyoq” “tovon”ga nisbatan sinekdoxa hosil qilsa, butun tananing o`zi esa “oyoq”qa ham, tovonga ham tegishli. Shoir she`rning ta`sirchanligini oshirish uchun “oyoq” va “tovon” so`zlarini yonma-yon qo`llaydi. She`rda o`zbek xalqining o`zga xalqlar tomonidan ezilganligi, alam-jabr ko`rganligi tasvirlangan.

Har xoin qo`l, meni erga urmas edi,

Har bir oyoq ko`kragimdan yurmas edi.

“Xoin qo`l” – sotqin, faqat o`z manfaatini o`ylaydigan kimsalarga ishora. Aytilganidek, odam tanasining tayanib turishini, yurishini ta`minlaydigan “oyoq” so`zi butun gavdaga tegishli, uning bir qismi hisoblanadi. Mazkur so`z orqali butun bir odam ma`nosi ifodalangan.

Ana sochdim qalbimdagi gullarni,

Termak uchun chaqiraman qo`llarni.

Shoirning ushbu she`rida “qo`llar” so`zi “kishilar, odamlar” ma`nosida qo`llanilgan. Ya`ni qism (qo`l) orqali butun (odam, kishi) ma`nosi ifodalangan. Bu, o`z navbatida, she`rga o`zgacha ruh berib, she`rning badiiy ta`sirchanligini nihoyatda oshirgan.

Shoirning quyidagi she`rida esa qo`l so`zi vositasida “yigit-qizlar” ma`nosi ifodalangan:

Boqchangga yosh qo'llar ekalar gullar,

Ochilmoq istaydir lola, sunbullar.

Sinekdoxalarda butunning nomi bilan atalgan bo'lak hamma vaqt o'sha butunning mantiqiy bir qismi bo'lishi shart. Sinekdoxalarga xos asoiy xususiyat shundan iboratki, muayyan narsa, predmetning butun va bo'lak qismi makon va zamonda har doim birga mavjud bo'ladi. Ular muntazam ravishda uzviy va mantiqiy aloqadorlikka ega. Sinekdoxalarda qismni butunsiz, aksincha, butunni qimsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Elbek *qo'l* so'zi vositasida sinekdoxani voqelantirgan.

Masalan:

Qo'llarim qalamni qilolmay udda

Qaltirab to'xtadi chol tayog'iday.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sinekdoxada o'xshagan va o'xshatilgan mutlaqo bir narsa, ularning biri ikkinchisining butuni yoki tarkibiy qismi bo'ladi. "Qo'l" so'zi mazkur she'rda sinekdoxa hodisasini yuzaga keltirgan bo'lib, butun (qo'l) orqali qism (panja, barmoq) ma'nosi ifodalangan. Barmoq o'xshagan, qo'l esa o'xshatilgandir.

Yig'lab, oh chekib, qarab o'ltirma,

To'pla tegranga mazlum **qo'llarni**.

Qo'l so'zi, asosan, "odamning barmoq uchlaridan elkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi" (O'TIL, II, 634-b.) ma'nosida qo'llaniladi. Elbek gavdaning bir qismi nomi vositasida butun tushunchasini ifodalashga harakat qilgan. "Kishilar, insonlar" tushunchasi she'rda "qo'llar" so'zi bilan berilgan.

Ko'p xassos **quloqlarga**

Sezilmasdan qo'yildi.

She'rdagi "quloqlar" so'zi sinekdoxani yuzaga keltirgan. Eshitish organi bo'lmish quloq so'zi qism – butun munosabatiga kirishgan.

Boy uyida imom, so'fi va oqsoqol,

Yana ma'lum besh-oltita patak **soqol**.

Soqol – iyakda o`sadigan qil tuklar qoplamasi. Shoir “soqol” so`zining oldidan “patak” so`zini keltirish orqali salbiy bo`yoqdorlik ma`nosini oshiradi va shu birikma orqali “kishi, odam” tushunchasini voqelantiradi.

Butun va bo`lak munosabatiga ko`ra sinekdoxalarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Butun nomi bilan bo`lakni atovchi sinekdoxalar. Bunga yuqorida ko`rib o`tganimiz, *barmoq* so`zi o`rniga *qo`l* so`zining qo`llanilishini misol qilib keltirib o`tish mumkin.

2. Bo`lak nomi bilan butunni ifodalovchi sinekdoxalar. Bunga *peshona*, *oyoq*, *qo`l* kabi sinekdoxalarni aytib o`tish mumkin.

E`tiborli tomoni shundaki, bo`lak nomi bilan butunni atovchi sinekdoxalar Elbek she`riyati tilida ko`p uchraydi.

Ayonki, sinekdoxa hodisasi o`simlik va sabzavot nomlarida ko`p uchraydi.

Masalan, Elbekning quyidagi she`riga e`tibor qarataylik:

**Olmalar** erga tangalar sochishib,

Gul chaman birla to`y bazm qiladi.

She`rda keltirilgan *olma* so`zining ma`nosi «atirgullilar oilasiga mansub ko`p yillik mevali daraxt» (O`TIL, I, 533-b.)dir. She`rda *olma* so`zi shu daraxtning mevasi ma`nosida qo`llanilgan, ya`ni butun (daraxt) orqali qism (meva) tushunchasi ifodalangan.

Elbek she`riyati tilida sinekdoxa yo`li bilan ko`chma ma`no hosil bo`lishi, asosan, ot va sifat guruhidagi so`zlar asosida voqelangan. Ot guruhidagi so`zlar asosida hosil bo`lgan sinekdoxalar nisbatan ko`pchilikni tashkil etadi. Aniq narsa, predmet va o`simliklar nomi sinekdoxalarni hosil etishda faol ishtirok etgan. Aniqlovchi + aniqlanmishli birikmani ixchamlashtirish asosida hosil bo`lgan sinekdoxalar miqdor jihatidan sifatlovchi + sifatlanmishli birikmani qisqartirish asosida yuzaga kelgan sinekdoxalarga nisbatan ko`pchilikni tashkil etadi.

Genetik manbaiga ko`ra sinekdoxalarning aksariyatini o`z qatlamga oid leksik birliklar tashkil etadi. Ular orasida, ayniqsa, odam tanasi a`zolari va o`simliklar nomi sinekdoxa yo`li bilan ko`chma ma`no qosil etishda

sermahsuldir. Bu o`zbek tilining ko`p ma`noli va ko`chma ma`noli so`zlarga boy ekanligini dalillovchi asosdir.

## UMUMIY XULOSALAR

Taniqli ma`rifatparvar shoir Elbek nazmiy merosining lug`aviy va lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini berdi:

1. Elbekning shaxs va ijodkor sifatida, xususan, shoir sifatidagi shakllanishi jadidchilik g`oyalari ta`sirida kechganki, adibning ilk ijodini ulardan ayro holda tushunish va baholash maholdir. Turkistonda asrimiz boshlaridan keng tarqala boshlagan jadidchilik g`oyalari ta`sirida milliy adabiyotimiz o`z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bir bosqichiga kirdi. Ma`rifat yoyish orqali millatni taraqqiy ettirish maqsadini ko`zlagan jadidchilar, chunonchi, Elbek badiiy adabiyotni bu yo`ldagi samarali vosita deb bildilar. Elbek va boshqa jadid ijodkorlarining adabiyotni shu ezgu maqsadlarga safarbar etishi, shunga muvofiqlashtirish yo`lidagi sa`y-harakatlari chin ma`noda jadid (yangi) adabiyotini maydonga chiqardi. Jadid adabiyotining mazmun-mohiyatini belgilagan asosiy omil, shubhasiz, *jadidchilik harakati ko`zlagan ijtimoiy maqsadning estetik ideal* sifatida qabul qilinganidir. Idealning "erga tushgan"i jadid adabiyotini mavzu e`tibori bilan real hayotga yaqinlashtirdiki, bu milliy adabiyotimizda realistik tendensiyalarning kuchayishi va intensiv rivojlanishiga turtki berdi.

Jadid adabiyoti milliy adabiyotimiz tarixidagi buyuk hodisa edi. Zero, ayni shu adabiyot vakillari zamonaviy o`zbek adabiyotiga asos solib, milliy adabiyotimiz taraqqiyotini jahon adabiyoti taraqqiyot o`zaniga burdilar.

2. XX asr boshlarida o`zbek milliy tili shakllandi va yangi taraqqiyot yo`liga kirdi. Jadidlar, chunonchi, Elbek milliy g`urur va iftixor, milliy oriyat tuyg`ularini o`stirishda, milliy ruhni shakllantirishda, millat ongi taraqqiyotini tezlashtirishda ona tili va adabiyoti vositasidan keng va samarali foydalandilar. Ular ona tilining sofligiga alohida diqqat-e`tibor qaratdilar va uni kelajak avlodga go`zal, beg`ubor shakl-mazmunda etkazish uchun bor kuch-g`ayrat va bilimini sarfladilar.

3. O`zbek adabiyoti taraqqiyotida Elbekning munosib o`rni bor. Milliy adabiyotimizda zamonaviy she`riyat endigina shakllanayotgan pallada ijod qilgan

Elbekning ijodiy izlanishlari poetik xazinani boyitishga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Elbek o'z ijodi bilan poetik janrning turfa imkoniyatlarini namoyon qildi, turli poetik usul va vositalarni dadil tajriba qilib, ularning milliy adabiyotimizda o'zlashib qolishiga puxta zamin hozirladi.

4. Elbek badiiy til vositalaridan keng va samarali foydalangan shoirlardan biridir. Til vositalari uning asarlarida o'ziga xos vazifa bajarib, obrazlilik, badiiylilik yaratgan. U, ayniqsa, metaforalarning lisoniy-badiiy xususiyatlari va imkoniyatlarini teran anglagan, ulardan o'z o'rnida foydalanib, estetik qiymati yuqori bo'lgan she'riyat namunalarini yaratishga muvafaq bo'ldi. Uning asarlaridagi metaforalar o'zining ta'sirchanligi, betakrorligi, jozibadorligi va kuchli obrazlilik bilan alohida ajralib turadi.

5. Elbek she'riyati leksikasining lug'aviy tarkibi, semantik qirralari shoir tanlagan etakchi mavzu – ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik mavzulari bilan aloqador bo'lib, bu holat adib she'riy asarlari badiiyatini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi.

6. Elbek ma'nodosh so'zlarga boy o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Elbek yangi o'zbek adabiyoti va madaniyatining shakllanishi davrida yashadi hamda mana shu milliy adabiyotning mazmun mundarijasiga yangiliklar olib kirib, uning rivoju takomiliga munosib ulush qo'shdi. U iste'dodli shoir sifatida badiiy adabiyotning mazmunan va shaklan yangilangan namunalarini yaratdi. Mazmuniy o'zgarishlar, ayniqsa, uning she'riy asarlarida to'la o'z ifodasini topgan. Shoir she'rlarining lug'aviy tarkibi juda boy va rang-barang bo'lib, ularda so'zlarning o'rinsiz takrori deyarli uchramaydi. Bunga u ma'nodosh so'zlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. Elbek sinonimlardan badiiy nutqni ravshan va ravon qilib tuzish, qaytariqlardan qochish, kitobxonning estetik didini tarbiyalash maqsadida keng va unumli foydalangan.

7. Elbek she'riyati tilida ham mumtoz o'zbek she'riyatida ishlatilgan bir qator leksemalar, trafaretlar, obrazli iboralar qo'llanilgan. Ammo ularni shoir ko'p holda tamoman yangi, ko'chma ma'nolarda qo'llaydi, ularga yangi-yangi

real va ramziy ma'nolar yuklaydi, asar badiiyatini ta'minlashga xizmat qildiradi.

8. Elbek poetik tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shdi. Uning she'rlarida she'ni barkamol va go'zal qiluvchi barcha fazilatlar — nafislik, ohangdoshlik, uyg'unlik, ma'nodorlik, ravshanlik, go'zallik va mutanosiblik mavjud. U so'zlarning yashirin ma'no qirralarini kashf etib, noyob she'riyat namunalarini yaratdi, badiiy til vositalari asosida o'zining ozodlik va hurlikka bo'lgan sog'inch va intilishlarini zo'r mahorat bilan badiiy ifoda etdi.

9. Elbek she'riyatining asosiy mavzusi va motivini xalqni ilmga, ma'rifatga, ona tili — o'zbek tilini sevish, uning rivoji va sofligini saqlashga da'vat etish g'oyalari tashkil qiladi. Shoir she'rlarining lug'aviy tarkibi, badiiy-funkstional xususiyatlari mana shu maqsadga bo'ysundirilgan.

10. Elbek o'z she'rlari tilida imkon qadar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanishga, bu orqali she'rlari tilini sodda, xalq didiga yaqin bo'lishiga intilgan. Shu sababli uning she'rlarida o'z qatlam, ya'ni genetik jihatdan o'zbek tiliga oid so'zlar asosiy o'rinni egallaydi va ulardan shoir mohirona foydalangan.

11. Elbek she'rlari tilidagi so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llanishi davrning asosiy intilishlarini, jadidlarning maqsad va g'oyalarini ifodalashga yo'naltirilgan. Bu esa ko'p holda an'anaviy poetik so'zlarni tamoman yangi ma'nolarda qo'llashga olib kelgan.

12. Muayyan tilning boyligi faqat uning tarkibidagi so'zlarning miqdori bilangina emas, so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan ham belgilanadi. Elbek o'zbek adabiy tilini, bir tomondan, o'zbek xalq shevalaridagi leksik birliklar hisobidan, ikkinchi tomondan, lug'aviy birliklarning yangi-yangi ma'no qirralarini kashf etish asosida boyitdi. U ona tilida mavjud bo'lgan har bir so'zning ko'chma ma'no hosil qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanib, uning rivojiga, kengroq ma'noda, o'zbek xalqining ijtimoiy tafakkuri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Atoqli ma`rifatparvar, jadid adabiyotining taniqli namoyandasi bo`lgan Elbekning barcha asarlari tilini kelgusida to`liq tadqiq qilish XX asr boshlaridagi o`zbek adabiy tilining asosiy lisoniy xususiyatlarini ochishga hissa qo`shishi shubhasizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият — енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик, I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. -Тошкент: Маънавият, 2000.
3. Абдурауф Фитрат Танланган асарлар. V жилдлик, III жилд. Драмалар, хикоялар, публицистик мақолалар. -Тошкент: Маънавият, 2003.
4. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. V жилдлик, IV жилд. -Тошкент: Маънавият, 2006. 11-88-бетлар.
5. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. — Тошкент, 1999.
6. Авазов Н. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижодий мероси. НДА. — Тошкент, 1995.
7. Айний. Бухоро инқилоби тарихи. // Асарлар: 8 томлик, 1-том.— Тошкент, 1967. 201-234-бетлар.
8. Алиев А. Маҳмудхўжа Бехбудий. —Тошкент: Хазина, 1994.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. -Тошкент: Фан, 1983-1985.
10. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн// Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-том. -Тошкент: Фан, 2000.
11. Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. —Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
12. Баҳодир Карим. Янгиланиш соғинчи. -Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. -79 бет;
13. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли.НДА.-Тошкент, ЎзФАТИ, 2002.
14. Боймирза Ҳайит. Туркистон XX асрда. // Навқирон Бухоро. —Бухоро, 1992. 9-сон. 14-15-бетлар.

15. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат (Олий ўқув юртлари учун қўлланма). - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
16. Боту. Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2004.
17. Боту. Қани, ким бор // Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2004.
18. Боту. Тил ва имло конференцияси якунлари // Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004.
19. Ғаниев И. Фитрат драмаларининг поэтикаси. ДДА. –Тошкент, 1998.
20. Дадабоев Ҳ., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Фан, 2007.
21. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. -Тошкент: Шарқ, 1994. -140 бет.
22. Древнетюркский словарь. –Ленинград: Наука, 1969.
23. Жавҳарова Р. Сирожиддин Сидқий Хондайлиқий адабий мероси. НДА. –Тошкент, 1996.
24. Жадидчилик: ислоҳот, янгилаш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар) даврий тўплам. 1-китоб. -Тошкент: Университет, 1998.
25. Зиё Кўк Алп. Туркчилик асослари. –Тошкент: Маънавият, 1992.
26. Зиё Саид. Танланган асарлар. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.
27. Ибрат, Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар.–Тошкент: Маънавият, 1999. 228 бет.
28. Иброҳимов С. Ўзбек миллий ёзувининг ривожланиши //Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. №2. 52-54-бетлар.
41. Ингеборг Балдауф. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар.-Тошкент: Маънавият, 2001.
29. Каримов Б. Чўлпон ижоди ва 20-30-йиллар танқидчилиги // Чўлпон ва танқид. -Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. 3-10-бетлар.
30. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик.- Тошкент: Маънавият, 2002. -308 бет.
31. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали.–Тошкент: Маънавият, 1992.

- 32.Қосимов Б. Карвонбоши. // Бехбудий. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият, 1999. 5-38- бетлар.
- 33.Қосимов Б. Маслакдошлар: Бехбудий Ажзий, Фитрат. -Тошкент: Шарқ, 1994. -156 бет.
- 34.Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедова С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти (олий ўқув юртлари учун дарслик).- Тошкент: Маънавият,2004.
- 35.Қосимов С. Бехбудий ва жади́дчилик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. 19-26 январь.
- 36.Кошғарий М. Девону луғотит турк. I, II, III жилдлар. –Тошкент: Фан, 1960-63.
- 37.Қурбонова М. Фитрат – тилшунос. –Тошкент: Университет, 1996.
- 38.Қуро́нов Д . Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
- 39.Қуро́нов Д. Чўлпон насри поэтикаси. ДДА. –Тошкент, 1998.
- 40.Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тараққиёти. // ЎТА. 2001. №4.
- 41.Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Ташкент: Маънавият, 1999. -183 бет.
- 42.Маҳмудхўжа Бехбудий. Тил масаласи // Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият,1999.
- 43.Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жади́дчилик тарихидан лавҳалар).- Тошкент: Шарқ,2001. -127 бет.
- 44.Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1982.
- 45.Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
- 46.Навоий асарлари луғати. – Тошкент:Фан, 1972.
- 47.Намозова Н. Ҳожи Муиннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти . НДА. 2005.

- 48.Нурмонов А. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва такомиллашуви // Тухфа. - Тошкент: Мерос, 2001.
- 49.Нурмонов А.Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон,2002. -232 бет.
- 50.Саидов Ё. Жадидлар ва миллий тил. –Т.: Фан,2006. 72 бет.
- 51.Саидов Ҳ. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. НДА. –Тошкент, 1998.
- 52.Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари. НДА. -Тошкент, 1995.
- 53.Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. НДА. - Тошкент, ЎзФАТИ, 2005.
- 54.Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917).–Тошкент:Академия, 2000.
- 55.Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи.- Тошкент:Ўқитувчи,1994.
- 56.Тўлабоев О. Каримбек Камийнинг ҳаёт ва ижод йўли. НДА. –Тошкент: ЎзМУ, 2010. – 24 бет.
- 57.Узоқов Ҳ. Эрк йўлида эрксиз кетган фидойи // Элбек. Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 1999.
- 58.Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси.–Тошкент: Маънавият, 1995.
- 59.Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири XX аср бошлари). -Тошкент: Фан, 1981.
- 60.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. (З.М.Маъруфов таҳрири остида). –Москва: Рус тили, 1981.
- 61.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. (А.Мадвалиев таҳрири остида). –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006- 2008.
- 62.Ўзбекистон тарихи (дарслик). -Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.
- 63.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
- 64.Хожи Муин. Танланган асарлар. -Тошкент: Маънавият, -2005. -175 бет.

- 65.Шарафиддинов О. Адабиёт яшаса – миллат яшар. // Чўлпон. Адабиёт надир. –Тошкент: Чўлпон,1994.
- 66.Элбек. Бошланғич мактабда она тили // Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 1999.
- 67.Элбек. Ёзув йўллари // Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 1999.
- 68.Элбек. Имло масаласи // Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 1999.
- 69.Элбек. Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 1999. – 287 б.
- 70.Этика. <http://www.koob.ru/books>
71. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
- 72.[www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)

## MUNDARIJA

1. **Kirish.** Ishning umumiy tavsifi.....
2. **I bob. Жадидчилик ҳаракати ва Elbekning milliy til taraqqiyotida tutgan o`rni**.....
3. **II bob. Elbek lirik asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari**
  - 3.4. Polisemantik so`zlar.....
  - 3.5. Omonim so`zlar.....
  - 3.6. Sinonim so`zlar.....
  - 3.7. Antonim so`zlar.....
4. **III bob. Elbek poetik asarlarining lingvopoetik xususiyatlari**
  - 4.1. Metaforalar va ularning lingvopoetik xususiyatlari.....
  - 4.2. Metonimiyalar va ularning lingvopoetikasi .....
  - 4.3. Sinekdoxalar va ularning uslubiy-badiiy xususiyatlari....
4. **Umumiy xulosalar**.....
5. Foydalanilgan adabiyotlar.....



